


OLMOS

BODOM GULI

Xotiralar, hikoyalar

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2004



Olmos.

Bodom guli: Xotiralar, hikoyalar.— T.: G'.G'ulom nomida-
gi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.—136 b.

Ushbu fo'plam buyuk alloma shoirimiz G'afur G'ulom bilan za-
mmondosh, yaqin hamsuhbat bo'lgan adiblar haqidagi o'chmas xotiralar
bilan bir qatorda adiba Olmosning hayotiy kuzatishlari, hikoya va hajviya-
laridan tarkib topgan. O'ylaymizki, u kitobxonlarda katta qiziqish
uyg'otadi.

BBK 84 (5U)

A 4707620701-58
M 352 (04) -2004 Rejaga qo'shimcha, 2004

© Olmos, G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004-y.

ISBN 5-635-02261-8

BODOM GULI

8-sinfda o'qib yurgan vaqtlarim. Bo'yim baland bo'lga-ni, badantarbiya darsidagi saflanishda birinchi bo'lib turga-nim uchun meni "Laylak" deb mazax qilishardi.

Oynaga qarasam, ozg'in, qop-qora, lablari do'rdaygan, burni ham yuzining naq yarmini qoplagan qizni ko'rardim. Ba'zan xunukman, deb o'ksib ham qo'yar edim.

Buning ustiga nima ish qilsam, teskarisi bo'lardi: choy qo'ysam samovar erib tushar, "o'choqqa o'tga qarab kel", deyishsa, o'choqqa boshimni tiqib qarardimmi-ey, kiprik, hatto qoshim jizg'anak bo'lardi. Oshxonadan choymi, ovqatmi olib kelish kerak bo'lsa, albatta to'kilardi. Idishlarni yuv-moqchi bo'lsam, sinardi yoki o'zim yiqlilib, bitor yerimni qashqa qillardim. Shunda ayam:

— Nima balo, qo'ling qiyshiqmi, ko'zingga qarab yursang bo'lmaydimi, muncha beso'naqay bo'lmasang! — deb koyir-dilar. Shunda buvim yoki dadam mening jonimga ora kirishardi:

— Qo'y, hadeb koyiyverma. Hali biram qiz bo'lsinki...

Maktabdan kelayotib, daraxt kurtaklari bo'rtib qolganini, qushlarning yayrab, osmonlab uchib yurganini — bahor kelayotganini ko'rib, ko'r glimda quvonch ko'pirar edi. Shu alfozda qo'shnimiz Fozila opaning anhor bo'yida mis anjom-larni qumlab yuvayotganiga ko'zim tushib, ularga havasim kelib ketdi. Yarqiragan idishlar oftobda odamning ko'zini qamashtirardi.

Men ham ertaga dam olish kuni hammayoqni tozalab, "bahorga uy ko'taraman", deb reja qilib qo'ydim.

Azonda turdim. Dadam Mustafo akani kutib, dala bozo-riga borishga taraddudlanib turgan ekanlar. Vaqtli uyg'ongan-nim uchunmi:

— Ha, Mosh, men bilan dala bozorga borasanmi? — dedilar.

Ba'zan dala bozorga – Chernyayevkami, Troskiygami boradigan bo'lsalar, meni ham olib ketardilar. Dadamning dehqonlar, sutchilar, cho'ponlar bilan gapirishib, hazilla-shishlarini yaxshi ko'rар edim.

Dadam biror narsaga xaridor bo'lsalar, sotuvchining atrofi odamga to'lib ketar, hamma dadamlarni tanib, gapga tortar, dadam ham har bir kishining o'ziga loyiq gapmi, biror qiziq askiyami qilib, ko'nglini ko'tarar edilar.

Dadamning savollariga javobim kechikkaniga:

– Ha, Mosh, boshqa ishing bormi? – dedilar.

– Men ayamga uylarni ko'taraman, degan edim. Yanagi haftada olib borasiz. O'shanda lola, ravoch ham chiqib qolar, – dedim.

– Ravochni esingga tushganini qara-ya, agar chiqqan bo'lsa olib kelaman, – dedilar dadam.

Men ikkinchi qavatdagi mehmonxonadan billur idishlarni vodoprovod yoniga olib tushdim. Deraza pardalarni ochib olib, oyna, romlarni yuvdim. Billur idishlarni qaytib olib chiqib ketayotganimda qoqilib, bittasini qo'limdan tushirib yubordim. Ayam uy ishlari, ukalarim bilan ovora bo'lsarda, idishning singan ovozini eshitgan ekanlar. Oshxonadan:

– Ha, nimani sindirding, qo'li qiyshiq, hech qayeringga sinig'i kirmadimi? – dedilar.

Men indamadim. Zero, mening tarafimni oladigan dadam bozorda, buvim namoz o'qiyotgan bo'lsalar kerak. Sinmay qolgan idishlarni joylab bo'lib, mis idishlarni anhorga olib tushdim. Fozila opa yuvgan joyga bordim. O'sha yer qumloq, anhorning sayoz bo'lib oqadigan joyi edi.

Qum, pomidor, achigan qatiqda yuvilgan mis idishlar quyosh nurida yarqirardi.

Ariq bo'yida qator qilib samovar, katta-kichik tancha patnis, samovar patnis, non patnislarni terib qo'ydim. Men bu ishlarni bajarib bo'lgunimcha, pardalar qurigan ekan, dazmollab, qayta osib qo'ydim.

Hamma ishlarimni sarishtalab bo'lib, keyin o'zim ham yuvinib, sochlirimni tarab, toza ko'ylik kiyib oldim.

Soat birlar bo'lib qolgan edi. Ayam bilan buvim yozgi oshxonada somsa qilishayotgan edi, shu orada dadam ham keldilar.

Ukalarim dadamning atrofini o'rab olishdi. Hammalariga atalgan narsa bor edi. Mustafo aka bozordan olib kelgan xarajatni mashina yukxonasidan ola boshladi. Chelakda qatiq, bidonchada qaymoq, pishloq, saryog', tuxum, go'sht, qurt, qoplarda kartoshka, piyoz, sabzi, sholg'om...

Ayam oshxonadan chiqib, olib kelingan narsalarni joy-joyiga joylab:

— Dadasi, choy tayyor, somsani ayam tandirdan uza-yaptilar. O'tiring, choy iching, — dedilar.

— Sharsharadagi choyxonada ulfatlarni ko'rib qolgan edim, birga ovqatlandim. Yana bozorga boraman...

— Voy, shuncha narsa olib keldingiz-ku, yetar...

— Ko'chatning yaxshisi Eski shaharda bo'ladi. Ahmadjon zargarni ham ko'rishim kerak.

Mustafo qoplarni oshxonaga olib kirib qo'ygach, dadam yana bozorga ketdilar.

Shu topda eshikdan uchta xushro'ygina juvon kirib keldi.

— Oyizla bormila? — so'radi yoshi kattarog'i.

— Kiringlar, hozir ayamni chaqiraman, — dedim-da, ularni mehmonxonaga boshladim. Yo'l-yo'lakay juvonlardan biri:

— Aylanay, otingiz nima? — deb so'radi.

— Olmos, — dedim, bular kim, qaysi qarindoshimiz ekan, deyman, eslolmayman. Xonaga olib kirib, stol atrofiga o'tkazdim, dasturxon yozdim.

Ayam kirdilar.

Men, mehmonlarga atab qo'yilgan ne'matlarni dasturxonga torta boshladim. Bodom, pista, konfetlar, dadam yaqinda Sarosiyodan olib kelgan anorlarni chiroqli qilib kesib qo'ydim. Ayam g'alati bo'lib, g'ashlari kelibmi-ey o'tirgallari uchun choyni ham ularga o'zim quyib berdim.

Ovqat pishgan, yarim kosadan qilib, suzdirib olib chiqdim. Mehmonlar ovqatni men tayyorlagan deb o'ylashdi, shekilli:

— Munchayam qo'llaringiz shirin ekan-a, — deb al-qashdi.

Bu gap menga yana ham yoqib ketgan edi. Ayamni jahllari chiqqandek menga:

— Bor, dadangga dasturxon qil, ovqatlarini ber, — dedilar.

Men noiloj pastga tushib ketdim. “Nega ayamni jahllari chiqayapti? Qaysi ishim yoqmad?” deyman-u, gap nima-daligini bilmayman. Shu payt eshikdan kirib kelgan dadam mening kayfiyatimni ko'rib:

— Ha, Mosh, nima bo'ldi? — dedilar.

— Hali idishlarni yuvayotganimda, siz olib kelgan billur vazani sindirib qo'ydim. Ayam o'shangan xafa bo'lib o'tiriptilar, — dedim.

— Qo'yaver, sinsa sinipti, bosh-ko'zingdan sadaqa. Yana borib, undan chiroyligini olib kelib, onangni xursand qilamiz. Xafa bo'lmaquin.

Shu mahal mehmonlarning tepadan tushayotgani eshitildi. Men ular bilan xayrlashay deb chiqdim. Ular mening katta qiz bo'lib qolganimni, qo'llarim hamma ishga kelishib turganini, oyoq-qo'llarim chaqqonligini maqtashdi. Ammo ayamni chehralari ochilmas edi.

Mehmonlar men bilan quchoqlashib xayrlashayotganda, men:

— Yana kelinglar, — desam, bitta yoshginasi:

— Voy, aylanay tillaringizdan. Siz keling, desangiz, kelaveramiz-da, — dedi.

— Eshigingizga yotib olamiz, hali, — dedi yoshi ulug'-rog'i.

Bu maqtovlar menga yoqardi. Ular qayta-qayta xayrlashishdi.

Men tepadan pastga, pastdan tepaga yuguraverib, char-chagan edim. Ayvondagi stulga o'tirib, “ayamning yaxshi ko'rgan billur guldonlarini sindirib qo'yganim yaxshi bo'lindi-da”, deb xayollanib tursam, dadam bilan ayamlarni suhbatlari eshitila boshladi.

— Dadasi, bugun qizingizga sovchi keldi...

— Nima deyapsiz?

— Ha, mahallada qiz qidirib yurishgan ekan. Bexos biznigiga kirishsa, Olmosni ko'rib qolishihti. Kimni uyiga kirishganini ham bilishmas ekan.

— Aytdingizmi?

— Qizingizni yoshligini aytdim. Kimni qizi ekanini o'zları

surishtirib bilib olishar, deb indamadim. Lekin qizimiz uyimizga kelib turadigan mehmonlardan deb, rosa xizmat qildi.

- Hali bola-da. Tushunmagan.
- Qizingizga ularni maqtovlari, “aylanay, o’rgilaylari” biram yoqdiki... Men nima qilarimni bilmay qoldim.
- Muharramxon, shuning uchun ham unga ko’proq shirin, erkalaydigan gaplarni gapiraylik, a?
- Siz, ayam juda erka qilasizlar. Hech bo’lmasa men sal qattiqroq turay, deyman. Taltayib ketmasin, begona uygashoradigan qizu...

— Baribir. Chiroqli, maqtov so’zlarni eshitib yursa, birovlarining gapiga uchmaydi. Ko’rganmisiz, bodom daraxti erta bahorda sal kun isisa gullab qoladi. Yana sovuq bo’lganda gulini to’kib yuboradi-da, hosilsiz qoladi. Uyida shirin so’z eshitmay o’sgan qizlarni, o’sha bodom daraxtiga o’xshataman. Yetilib kelayotgan qizlarga ota-onasi odob-axloqni urishiib, qarg’ab emas, chiroqli gaplar bilan o’rgatsa, deyman. Qizlar shunda o’z qadrini biladigan bo’ladi.

Men ayam bilan dadamni gaplarini oxirigacha eshitdim. Ayamning jahli nimaga chiqqanini endi tushungan edim.

SIYOHDON

Esimni tanibmanki, dadam po’lat peroli ruchkada siyoh bilan she’r yozar edilar.

Dadamning bir nechta katta-kichik siyohdonlari bo’lib, ularga rango-rang siyohlar solingan bo’lar edi. Ylar sharafiga har xil kayfiyatda she’rlar bitganlar.

Siyohdon, azizim, qora ko’zligim,
Qora tunlar aro yorigan ko’zgu...

Ushbu ajoyib satrlar bag’ishlangan siyohdon hozir G’a-fur G’ulom uy-muzeyida saqlanmoqda. U oddiygina, shishadan yasalgan, qopqog’i yo’q (yo sinib ketgan), hashamatli ham emas...

Urush vaqtari qo'ni-qo'shnilar kechqurunlari biznikida yig'ilishib, radio eshitishar, jang maydonlaridagi dahshatli voqealarni gapirishar edi. Vahimali xabarlarni eshitib, kechasi qo'rquvdan uyg'onib ketardim.

Men bolalar uxlaydigan xonadan ayam bilan dadam xonalariga o'tayotganimda ish stolidagi o'sha siyohdonga ko'zim tushardi. U xuddi joni bordek meni kuzatib turar, oy nurida yaltirab, "qo'rqma", deyayotgandek bo'lardi. So'ng ayam bilan dadamni o'rinalariga kirib ikkovlarini achoqlab, tinchib uxbab qolardim.

Yuqoridagi she'rning shu bandini o'qisani, kechasi dadamni ish stollarini yonidan o'tayotgandek, siyohdon meni kuzatib turgandek, bolaligim yodimga tushadi.

1944-yilning dekabr oyida Arpapoyadagi uyimizga ko'chib kelganimizda dadam o'sha siyohdonni ham birga olib kelgan ekanlar.

Hozirgi kunda nabiralarimiz siyohu siyohdon nimaligini bilishmaydi.

Dadamni siyohdonlari marmardan yasalgan, yana biri billur, siyoh soladigan yeri, qopqog'i kumushdan yasalgan juda chiroyli siyohdon bo'lib, uni sinib qolmasin deb, ayab tutardilar.

Dadam qalam uchlashga usta edilar. Ish stollarida har xil rangdagi chiroyli uchlangan qalamlar turishini yoqtirar edilar.

Tabiiyki, biz bolalar dadam qalmlarining ishqibozi edik. Shuning uchun ayam har doim bizga qo'riqchi bo'lib, dadamning ish stollaridagi narsalarga tekkizmaslikka harakat qilardilaru harakatlari ko'pincha zoye ketardi.

Biz qalamlarni sekingina olib chiqib, uchini sindirib, u yer-bu yerga tashlab ketardik.

Dadamning ish stollaridagi katta-kichik haykalchalar, qalamdonu qog'ozlar, qog'oz bostirgich, qog'oz qirgichu kuldonlar bizni eng qiziqtiradigan narsalar edi. Ularni olib o'ynagimiz kelardi.

Dadam ish stollarini besaranjom bo'lsa, o'zlariga kerak bu-yumlar joyida turmasa, uni qidirib she'r yozayotganlarida xayollari bo'linib she'r yoza olmay qolishlarini ayam bizga

necha bor tushuntirmoqchi bo'lardilar. Dadam shoir ekanliklaarini, she'r yozayotganlarida ish stollaridagi narsalar joy-joyida bo'lishini yaxshi ko'rishlarini tushunib yetma-gunimizgacha qalamlar yo'qolishi, siyohlar to'kilib ketaverishi davom etaverardi.

Dadam siyohni juda tanlar edilar yoki stollarini tortmasida suvlansa rangi chiqadigan kimyoviy qalamlar bo'lar edi. Qalamlarni ko'pincha ishlatib yurgan bola, albatta, men bo'lardim, so'ng ko'pincha sovunli tog'orada ivitilar edim... Shisha idishda (tush) qora suyuq siyoh g'amlangan bo'lar, u negadir og'zi berk tursa ham tez qurib qolardi. Lekin men uchun eng antiqasi labga tekkizib yozsa rangi o'zgaradigan qalamlar edi. Gunafsha rangli siyohning suyug'iyu poroshogi do'konlarda ko'plab sotilar, chunki butun maktablarda shu rangli siyohda yozish rusum edi.

Boshqa ranglisi, ya'ni barg rang, qora-qizil, havo ranglisi dadam o'zlarini qalamlardan tayyorlar edilar.

Bu g'oyat epchillikni, ehtiyyotkorlikni talab qiladigan nozik ish edi.

Qalamni (kimyoviysini) o'tkir pichoqda uzunasiga ikkiga bo'linsa o'rtasidagi yozadigan o'zagi (rifeli)ni olish oson. Uni olib, avvaldan iliq suv quyib tayyorlab qo'yilgan kichkina shisha idishga qalamni o'zagi ezib kukunga o'xshatib yanchib solinib, yaxshilab chayqalgach, sekin-sekin sehrli rang paydo bo'lardi. So'ng dadam tayyor bo'lgan siyohdan po'lat peroli ruchkada qog'ozga yozib, mashq qilib ko'rар edilar.

Perolar ham 96-nchi, qurbaqa va boshqa nomlar bilan atalib, uning yo'g'on, ingichka yozadiganlari bo'lar edi.

Dalada bo'y yetgan bir qiz ketmon-la
She'rimdan go'zalroq qator olmoqda.
O'n mingcha qalamga pero bo'lulgulik
Ketmondan bu qalam chetda qolmoqda...

She'rdan parchani keltirib taajjub qilaman. Adabiyotshunoslarning e'tirof qilishlaricha, dadamni eng dolzarb voqealarga hozirovob she'r yozadigan shoir deyishar edi.

Lekin dadam o'zlaridan baribir ko'ngillari to'imas ekan-da, deyman...

Shunday qilib, siyoh tayyor, endi qalam (eskicha qamishdan yasaladigani)ni ham dadam avval tomga bostirish uchun g'amlab qo'yilgan qamishdan o'tkir pichoqda dastalab kesib olardilar.

Qamishning egiluvchanini topib (qalam uchun qamishning yaroqlisini dadamning o'zлari yaxshi bilar edilar), so'ng o'tkir chust pichoqda yo'nib, uchini xuddi o'ymakor ustalardek pero shakliga o'xshatib yasardilar. O'rtasidan bo'lib, qiyiqlarini chiqarardilar, so'ng qalam tayyor bo'lgach, qanday yozishini tekshirish uchun siyohga botirib, qog'ozga yozib ko'rardilar. Qalin yozsa qamish qalamni uchini yana yo'nardilar. U qo'lda ushslash uchun o'ng'ay, barmoqlarni qabar-tirmaydigan (yo'g'on ham emas, ingichka ham emas) bo'lishi kerak edi.

Atrofimiz qamish qiyiqlariga to'lib ketardi. Birpasda yig'ib olardim.

— Mosh, hazir bo'l, qamish o'tkir bo'ladi, qo'lingni kesib olma, — derdilar dadam.

So'ng qog'ozga, "mashqi qalam", "qalam mashqi" degan men uchun eng sehrli she'rning debochasidan so'zlar yozilar edi. Chunki, uning yozilishidagi har bir harakatni men kuzatib, ishtirok qilgandek bo'lardim-da.

So'ng juda chiroqli husnixatda:

Quyoshning tig'iday oltin qalam-la
Ufqday keng qalbim she'rini yozay.
Yoqutni eritib gulgun qalam-la,
Jahonni qamragan fikrimni yozay...

Hech kim aytmagan so'zlarda go'zal she'rlar yozilardi.

— Olmos, xatim surkalsa, siyoh yoyilib ketsa yozgim kelmay qoladi, sen-chi? — derdilar dadam meni xuddi o'zлari bilan teng ko'rib.

— Menmi, bilmayman, — deyman xijolat bo'lib: — Har doim daftaramga o'zidan-o'zi yo siyoh to'kiladi, yo yozganim

surkalib ketadi... o'zingiz daftalarimni ko'rasiz-ku... Faqat o'qituvchim uchun yozaman-da, — desam, dadam qah-qah urib kulib yuborardilar...

O'sha yillar dadam havas bilan hovlimizning o'rtasiga hovuz qazdirib, unda o'rdak, g'oz, qafasda bedana, kaklik, bir juft tovus boqtiradigan bo'ldilar.

Hovuz atrofiga qishda ham ko'm-ko'k bo'lib yashnab turadigan butalar, sambit, sarv, arg'uvon, archalarning turli navlaridan o'tkazdilar. Bu daraxtlar orasida parrandalar sayrab, sayr qilib yurishi Behzodning va boshqa rassomlarning Sharafiddin Ali Yazdiy, Sa'diy, Bobur, Alisher Navoiy asarlariga chizilgan qadim miniatyuralaridagidek bog'imizga sharqona husn berar ekan, shekilli.

Dadam tabiiy bu manzaradan ilhomlanib, chigal ko'ngilari sal bo'lsa-da yozilsa kerak (u vaqtlar men bu gaplarni tushunib yetmas edim, albatta).

Keyincha bu parrandalarning taqdiri qiziq kechgan: bir juft tovus chiroyli ediku-ya, lekin ularning ovozi juda xunuk, xuddi yomon xotinlarni hovliga chiqib erini qarg'ab chinqirishi (dadamlarni aytishlaricha)ga o'xsharmish.

Tovusni bittasi uchib ketganmi yoki birov havas qilib olib ketganmi, noma'lum vaziyatda yo'qolgan (ayam yo'qolganidan hech ham xafa emas edilar). Ikkinchisini har saharda butun uyimizdagilarni vahimali sayrashi bilan cho'chitaver-ganidan dadam kimgadir hadya qilib yuborganlar.

O'rdak-g'ozlarning hovuzda suzib yurishi juda manzarali ediku-ya, lekin atrofni iflos qilib, o'sib turgan gullarning g'unchasini, bargini cho'qib, o'sishga qo'yaganligidan ularni ham Garzantemir ota (bog'bonimiz)ga berib yuborganlar.

Bedenalar hamda kaklikni o'rtoqlaridan birining (kimligi esimda qolmagan) qushlarga ishqiboz o'g'liga sovg'a qilib yuborganlar.

Yuqorida aytganim parrandalarning patidan ham dadam "ilhom" uchun qalam yasab, qalamdonga solib qo'yar edilar.

Dadamlar aytishlaricha, o'tgan zamonalarda mirzolar pat qalamda yozishgan emish, shoirlarni ko'pincha pat qalam ushlab xayolga berilib o'tirganini tasvirlashgan...

Men kattaroq bo'lganimda dadamni siyohlari tugaganida uni yasashni (juda qiziqqanım, bir g'ayritabiiy ish deb bilganimni sezib bo'lsa kerak) menga buyurardilar.

Qancha qalam uchiga qancha suv solishni avval ko'p marta ko'rganman, bilardim. O... bu muhim ish menga buyurilgandan hayajondan boshim osmonga yetardi. Eski gazetalarni stolga solib, hech qayerga to'kib-sochmay bajarishga harakat qilar edim... Lekin u to'kilib ketaverardi, siyoh tayyor bo'lgach, yuz-qo'lim, ko'yaklarimni yechib ivitib yuvish yoki ximchistkaga berish kerak bo'lardi-yu, lekin buyurilgan ishni eplaganim uchun na akam, na boshqa odam menga "g'ing" demasdi. Chunki, kamyogarlik qilib yasagan siyohimda she'r yozishlaridan g'ururlanishimni ular bilishardi.

Dadam kechqurun kelib siyohni qog'ozda sinab, men bilmagan arabcha harfda, so'ng men bilgan o'rischa harfda qator-qator she'r yozgandek "qalam mashqi", "mashqi qalam" qillardilar.

— Mosh, jijing, siyohni yaxshi yasabsan, — deb sochimni to'zg'itib yuborardilar. Shunda men kattalardek sipolik bilan:

— Dada, siyohdoningizni ichini yaxshilab sovunlab yuvib, artib, so'ng siyoh soldim, — desam, dadam:

— Yaxshi qilibsan, agar eskisini to'kib, idishini yuvib tashlamasang, yangisi aynib qolishi mumkin. Avvalgisi quyulib qolgan, chang-chung tushib, yozayotganda peroga qil yopishib, xatim surkalib, xunuk chiqishi mumkin edi, — derdilar-da, to'xtab yana:— Senga bir podshoning g'azalidan siyoh haqidagi misrasini aytay...

— Podsholar ham she'r yozishganmi, — desam, dadam:

— Ha, ular ham podsho, ham shoir bo'lgan-da, juda go'zal she'rilar yozgan. Lekin podsholar hatto qalamni siyohga botirishni ham o'zlariga ep ko'rismagan yoki hafsalalari kelmag'an, qalamning siyohi tugaguncha boshqasi ketma-ket tayyor bo'lib tursin uchunni xat yo she'r yozayotganida qalamni siyohga botirib tayyorlab uzatib turadigan kanizaklari bo'lgan ekan.

Shunday bir kanizak qalamni siyohga botirib berib turganida qalam uchiga qil yopishib chiqibdi. Qillik qalamda xat yozilsa, surkalmasin uchun kanizak qalamni qoshiga surtib qildan tozalab berayotganiga podshoning ko'zi tushibdi.

Podshoning ilhomni kelmay turgan ekanmi, kanizak juda chiroyligi ekan, qoshiga surtilgan siyoh mukammal husniga putur yetkazgandek bo'libdi, shunda podsho:

Qoshingga tekizmagil qalamni
Bir so'z bilan buzmagil raqamni, —

deb boshlanadigan g'azalni yozgan ekan, dedilar.

— Ja chiroyligi she'r ekan, — desam, dadam:

— Voy jijing-ey (meni erkalaganlarida har doim shunday dardilar), sen ham chiroyligi g'azallarni tushunadigan bo'lib qolibsan-ku, — dedilar.

Hayajondan bu she'r kimniki ekanini so'rab ham olmapman...

Keyinchalik, bu voqeaga 40 yillar vaqt o'tganda dadamlar haqida xotira kitobini tayyorlash vaqtida Abduqodir Hayitmetov domlaning maqolalarini o'qib, esimdan chiqib ketgan she'r Amir Umarxonni ekanini bilib oldim. Dadam Abduqodir akaga bu hikoyani boshqacha, adabiyotshunos sifatida chiroyligi qilib aytib bergen ekanlar...

Dadamni 12 jiddlik akademik nashrlarini bosmaga tayyorlash vaqtida qo'lyozmalar turli siyohlarda yozilganini ko'rib, bolaligimdagisi xayoldan o'chmas voqealar yodimga tushdi.

Dadam chiroyligi siyohdondan rangli siyohlarda silliq yoza-digan qalam (ruchka)larda oppoq qog'ozga husnixat bilan yozishni yoqtirar edilar.

Ayam dadamning yozgan she'rlerini siyohini o'ngitmaysa angin i paklarda bog'lab, avaylab saqlab qo'yari edilar.

Ayajonim qarigan chog'larida nabiralarini otini adashtirishlari mumkin edi-yu, lekin hayotlarida dadam bilan bog'lig hodisa, voqealarni hech eslaridan chiqarmas edilar.

Agar dadam yozgan biror varaq qo'lyozmani ko'rsatsam, qachon, qayerda, nima maqsad bilan yozilganini aytib berar edilar.

Dadamning birinchi muxlislari ayajonim edilar.

Dadamning yozgan she'rlerini birinchi eshitadigan va unga xolisalillo ballo beradigan ham ayam edilar...

Siyohdonlar ko'p, biriga qora, biriga qizil, bargrang, gunafsha, ko'k siyohlar solib qo'yilar, kayfiyatga qarab

yoki qaysi rangda yozgilari kelsa o'shanisida go'zal she'rlar yozilardi:

Sendagi u siyoh — yo'q, siyoh emas,
Qalbimda qaynagan qip-qizil qonim...

yoki:

Ulug' jang kunlari yozar chog'ida
Mardlarning qonidek daftarga tomding.
La'nati mal'unlar nomin yozganda
"Men qora emasman!" dedingu tonding.

Siyoh, siyohdonga bundan ortiq baho berib bo'ladimi.
Dadam uchun siyohu siyohdon tirik odamu u bilan
suhbatlashayotgandek... Habibiy, Boniy, Sayfiy domlalar
bilan ham siyoh haqida bahslar bo'lardi.

Bir kuni Xitoyda siyohni guruchni kuydirib yasalishini,
shuning uchun bunday siyohda chizilgan rasmlar asrlar osha
rangi o'chmay bizgacha yetib kelganini aytib berayotganlarini
eshitganman.

Yoki qaysidir mamlakatda siyoh o'simliklarning sharbatidan yasalishini ham aytgan edilar.

1950—60-yillarda siyoh to'ldirib yoziladigan avtoruchkalar chiqqanida, dadam har bir yangilikni olqishlab qabul qilganchi kabi bu qalamni ham yoqtirganlarini o'zları aytardilar:

Pero chizar chinni kosa darzidan ham ingichka
Bu qalamda iqim sevib yozaman har safar.

Bu qalamda o'z xalqimning baxtin yozaman faqat
Va bepoyon Vatanimning istiqbol nashidasin.

Dadam maqola yoki hikoya yozadigan vaqtlarida Shoahmad amaki, Porsoxon domlalarning suhbatini olib, husnixatlardan mamnun bo'lib, aytib turar, ular yozib olishar edi...

Ba'zan yosh muxbirlar kelib tezroq biror "she'r, maqola yozib bering, aytib turing, yozib olamiz", deb qistashar,

o'shanda ularni xati yoqmasa, o'qiy olmasalar g'ashlari kelib, "do'xtirlarning dori yozadigan xatiga o'xshabdi", deb qo'yar yoki pochtadan xat kelsayu uni o'qiy olmasalar, "Yozganini o'zi kelib o'qib bersa bo'lar ekan", deb qo'yardilar...

Dadamning qiziq odatlari bor edi, agar qog'ozga siyoh tomsa, o'shandan biror parrandami yoki odamning rasmini yasab qo'yar edilar.

Bunday rasmlar ko'pincha bosma qog'ozlarga chizilardi. Maqsud amakining rasmlarimi yoki o'zlarini ko'zoynakli avtosharjga o'xshagan, yoki meni sochim to'zib turganini-mi, bir oyoqli turna tumshug'ida baliq bilan solingan rasmi hozirgidek ko'z oldimda turipti, lekin ularni yoshlik qilib saqlab qolmaganman.

Umuman, dadam she'r yozayotganlarida o'ylab o'tirib qog'oz hoshiyalariga rasm chizib qo'yar edilar.

Ba'zi vaqtlar biror satr chiqmay tursamikin yoki xayol-larini jamlash uchunmikin, qog'oz hoshiyasiga bir kunda qilingan xarajatlarni hisob-kitobini chiqarib qo'yardilar. Dadamning qog'ozga munosabatlari, qog'ozni yaxshi ko'rish-larini alohida yozgim keladi:

Do'stim Muharramga oshiq ko'z bilan
Bir umr termuldim, ikkoving mumtoz.

Ko'zimni oqidek mucha tozasan
Sadafdek ko'ksingga injular tizgan
Oshiq shoirlarning jon, jonisan.

Maqtovni ko'ring, qog'ozga bu misralardan ortiq so'z aytish qiyindir.

Qog'ozni silliq, oq , siyoh yoyilib ketmaydiganini yoqtirar edilar. Sobir aka, Habibiy, Munirxon domla, Qutbidin eshonlar bilan bo'lgan uyimizdag'i mumtoz suhbatlarda qogoz qanday paydo bo'lgani, tosh bitiklar daraxt po'stloqlari, hayvonlarni terisi, fir'avnlar davrida qamish (papyrus)-lar qog'oz o'rnini bosganini, necha ming yil ilgari Xitoy ulamosi Kaylun qog'ozni ixtiro qilganini aytib berayotganlarini choy tashib uzuq-yuluq eshitib qolar edim.

Bu suhbatlar nafaqat she'riyat, musiqaga emas, dunyoviy ilmlar doirasida ham bo'lardi, men ularning ufqi borib yuksaklarga taqalishidan taajjub qilardim...

Dadamda bir nechta toza g'azallar, bayozlar yozish uchun tayyorlangan qalin, muqovasi charmidan yasalgan kitoblari bor edi. Ulami qo'qon qog'ozni deyilar ekan. Ularning tayyorlanganiga bir asrdan ziyodroq vaqt bo'lgandir. U qog'oz (kitob) ni viraqlari harir, yupqa, yaltiroq bo'lib, chiroyli ko'k, qizil chiziqlarda ramkalangan. Chiziqlar o'rtasida tilla hallari bor.

Qo'qon qog'ozni arab yozuvida husnixatda yozish uchun mo'ljallanganu dadam tarix uchun asrab qo'yganmilar yoki qarigan chog'larida falsafiy she'r, g'azallar yozib to'ldirmoqchi bo'lganlarmi...

O'sha qo'qon qog'ozni (kitob)ni ayamni dadalari Mirzo Xayrullaxon a'lam (bir muddat mingboshi, Qo'qon qozisi bo'lgan ekanlar) ko'pgina nodir qo'lyozma kitoblari bilan birga dadamning yangi kuyovlik vaqtlarida sovg'a qilganini aytib bergen edilar.

Buvam Mirzo Xayrullaxon aljabr, falsafiy ilmning mutaxassisini bo'lganlar, shu sabab juda qadimiyligi, noyob kitoblari ko'p bo'lgan. Inqilob davrida uylarini tintuv qilib qimmatbaho buyumlar bilan birgalikda kitoblarni ham olib ketishgan, hovlining o'rtasiga olib chiqib kitoblarni gulxanda yoqib yuborishgan ekan (buvim aytib berardilar).

Dadamni ish stollarining tortmasida pachkalab eng oliv navdagagi qog'ozlar turardi. Dadam qog'ozni isrof qilishni yoqtirmas, she'r, maqola, hikoyalarning qoralamasini gazeta qog'ozida yozar va she'r tayyor bo'lgach, oqqa yo o'zları, yo ayam ko'chirar edilar.

Avvallari qog'oz kamchil vaqtarda uni non bilan teng qadrlashgan, unga xudoning nomi yozilishi mumkinligi uchun yerga tashlamaslik, oyoq bilan bosmaslik kerak, deb buvim bizga ham o'rgatar edilar.

Lekin biz dadamning sadafdek oppoq qog'ozlariga rasm solgimiz kelardi, faqat ularni ayamdan so'rab olishimiz kerak bo'lardi...

Ko'pincha ayam, dadamning qog'ozlarini ayab bizga sarg'ish kepakli gazeta qog'ozini berib:

— Chizib tashlashingizga shunisi ham bo'laveradi. Oqi dadangni she'r yozadigan qog'ozlari, uni topilishi qiyin,— der edilar.

Biz hali tushunib yetmagan ilohiy holat — she'r yozish siyoh, siyohdon, qalam, qog'ozga qanchalik bog'liqligini nisbiy bo'lsa-da, ayamni so'zlaridan, harakatlardan sezар edik.

She'r yozish ilohiy mo'jiza, xudo bergan iste'dod ekanini keyinroq tushunib yetganman.

Ayajonim bo'lsalar, dadamga she'r yozish uchun eng oliv sharoit yaratishga harakat qilar edilar. Harakatlari zoye ketmaganini yana bir misrada:

Mirza Abdulqodir uyg'onib qolib
Qizil siyohdonda chiza boshladi.
Fikrimcha azizim Muharramxonim
She'r yozayotganim seza boshladi, —


deb meni shuncha urinishlarimni qisqa qilib siyohu rang va unga o'ch bolalar ko'payganiyu ayamlarga muhabbatlarini ayrib qo'yaqlganlar...

O'sha bolalik vaqtlarimda nega har kungi bo'lib o'tgan voqealarni yozib qo'ymadim, deb afsuslanaman. Hozirgidek miyam qopchiqlaridan qaytarib bo'lmas, mendan boshqa hech kim ko'rmagan, eshitmagan javohir otam-onam bilan o'tgan baxtiyor kunlarni noyob marjondek hech birini yo'qotmay, bir ipga tizishga urinaman.

O'sha noyob daqiqalarni ko'z o'ngingizda gavdalantira ol-sam, o'zimni behad baxtiyor deb bilaman.

MIRTEMIR AMAKI

Hovlimiz har doim ijodkorlar bilan gavjum bo'lar edi. Kunlardan bir kuni 2–3-sinflarda o'qirdim shekilli, uyimizga Mirtemir amaki keldilar. U kishi avvallari ham Shayx amaki. G'ayratiy, Habibiy domlalar kelishganida birga kelar edilar. Mirtemir amaki dadam bilan Samarcandda 30-yillarda tanishgan, Farg'ona kanali qurilishida ham uchrashishganini dadam aytguchi edilar.



Mirtemir amaki dadam bilan ko'pgina safarlarda: O'zbekiston kunlariyu dekadalar, ijodiy safarlarda birga bo'lishgan.

Ko'pincha dadamning yuraklari siqilar yoki suhbatlarga moyil bo'lib qolarmidilar, shunda do'stlarini yig'ib bir piyola choy yoki bir osham osh ustida ajoyib dil suhbatlarda Mirtemir amaki albatta bo'lardilar.

Sobir Abdullaga yozgan hazil she'r "Qor xat" dagi:

Kim kelur erkan, desangiz: saqlagin eski udum
Men bo'lurman, mavlaviy Shayxga, mulla Uyg'uni Fo'rum.
Mirtemir xushkayfligi g'oyat tamosho bo'lg'usi
Qahqaha avjga chiqib, sovsem xorosho bo'lg'usi, —

degan satrlarni eslasak bo'ladi.

Mirtemir amakimning kelishlari negadir mening esimda yaxshi qolgan ekan.

U kishi kulrang kostyum-shimda, boshlaridagi do'ppini xuddi dadamnikiga o'xhatib kiygan edilar. U kishi dadamlaridan sal bo'yłari pastroq, jussalari ham kichikroq edi.

Choy ichib bo'lib dasturxon yig'ayotgan edik, hammamiz bir xonada, buvim to'rda fotiha o'qiyotgan edilar.

Mirtemir amaki xonaga kirib, avvalo buvimlarga iltifot ko'rsatib, "ona" deb hurmat so'zlarini aytdilar. Dadam bilan qo'l olishib ko'rishdilar. Mirtemir amakini qo'llarida semiz papka bor edi. Ular dadam bilan zinadan ikkinchi qavatdagi ijodxonaga chiqishayotganda, dadam:

— Muhammamxon, bizga tepaga choy bering, — dedilar...

Kuz... bemahal sovuq tushgan, hali uylarga pechka yoqilmagan, xonalarning "zaxi" chiqib yotgan (ayamlarning gaplari) edi.

Ayam ijodxonaga plitka (isitgich) olib chiqdilar-da, maxsus tayyorlab qo'yilgan bir bo'lak marmar tosh ustiga qo'yib yoqdilar.

Kichkina yumaloq stolchaga dasturxon tuzay boshladilar.

Men pastdan choynak-piyola, yana kerakli narsalarni olib chiqib berib turdim.

Dadamning boloxonadagi ishxonalarida yo'lbars terisi bo'lib, kallasi tasqara qilib qotirligan, ko'zları shishadan,

hamлага тайярлангандек тишлари ко'риниб турарди. Биз болалар уни миниб олиб о'ншашни юқтирадик. Шу сабаб мен гар доимгидек аллақачон ю'лбарсга миниб олган едим.

Аヤм имо билан "пастга туш" дедилар. Мен ю'лбарс тас-карасидан тушдиму дадамни олдардан кетгим келмасди.

Дадам Миртемир амаки билан сухбатлашиб о'tirishardi.

Аям пастдан патнисда шириналлар, о'лларда човгум билан чиқдилар. Электр самоварга човгумдан сув солиб:

— Дадаси, чой тайyor, agar yana kerak bo'lsa, самовар о'yib о'ydim, qaynasa o'chirib о'yardsiz, — deb, о'zlari pastga tushib ketdilar.

Дадам чиroyli elektr samovar (qopqog'i billur, jo'mra-gining buraydigani fil suyagidan yasalgan, ushlagichlari o'ymakor ishlangan)dan чой дамлаб, issiq-issiq ichishni xush ko'rар edilar.

Дадам Миртемир амакини чоюга тақлиф qildilar.

Иkkalalari Nekrasov haqida gaplashib, чой icha boshlashdi.

Мен hamон ю'лбарс терисида о'tirib олиб, ularni gaplariga quloq solardim. Улар xонада мен борлигимни ham sezishmas, о'zlarini gaplari bilan band edilar. Мен bo'lsam, bola emasmanmi, ularning e'tiborini о'zimga qaratmoqchi bo'lib:

— Dada, мен ham Nekrasovning she'rini yod bilaman, — dedim.

Дадам bo'lsalar endi xонада борлигимга e'tibor berib:

- А, qaysi she'rini bilasan, — dedilar.
- Mujechok snagatok, — dedim.

Mirtemir амаки bo'lsalar:

- Qani aytib ber-chi, — dedilar.

Мен ham uyalmay-netmay maktabda rus tili muallimi-miz yodlatган she'rni aytib berdim.

Mirtemir амаки:

— Yaxshi, rahmat, lekin bu she'mi dadang о'zbekchaga tarjima qilganlar-ку, nega о'zbekchasini yodlamading, — dedilar.

Мен nima deyishni bilmay:

— Menga о'qituvchimiz aytgani uchun yodladim-da, agar о'zbekchasi борлигини бilsam, unda aytar edim... Endi yod olaman bo'lmasa, — dedim уyalib.

Дадам билан Mirtemir амаки gapimga rosa kulishdi.

So'ng dadam:

— Mirtemir amaking ham Nekrasovdan tarjima qilayapti, — dedilar.

So'ng ular o'zlarini gaplari bilan bo'lishdi.

Men dadamni xonalaridan bo'shagan idishlarni olayot-ganimda katta papkani ustiga Nekrasov : "Rusiyada kim yaxshi yashaydi" deb yozilgan so'zlarga ko'zim tushdi. Bu voqeaga ancha vaqt o'tib ketdi, bir kuni dadam:

— Olmos, sen Mannon bilan (shafyorimiz) Mirtemir amakingnikiga borib kelgin, u amakingni sen yaxshi bilasan-ku,— deb o'sha og'ir katta papkani berdilar-da:— Ichida xati bor, agar amaking bo'lmasalar kennoyingga berasan, — dedilar.

Dadam biz bolalarga ko'pincha ish buyurganlarida bizni kattalar bilan mustaqil, birovni yordamisiz gapirisha oladimi, yo'qmi, o'z fikrini tushuntira oladimi, mas'uliyati yetadimi, deb sinab ko'rар edilar.

Men xo'p ishorasini qilib, papkani oldim va mashinaga o'tirib Mirtemir amakimnikiga ketdim.

Mirtemir amakining hovlilarining atrofi gir aylana imo-rat ekan, oynavand ayvonlariga kirdim. Bolalar, qizlar bor edi. Yoshi o'tganroq ayol meni qarshi oldi. Kimligimni ayt-gandim, ayol uya kirib ketdi-da, ichkaridan o'rtta yoshli oq-sariqdan kelgan xushro'ygina juvon chiqib, men bilan ko'rishib ayamni, dadamlarni, buvimlarni so'radilar. Men nimaga kelganimni aytdim. Kennoyi, Mirtemir amakini ayollar shu kishi (men u ayolni birinchi bor ko'rishim edi) ekan, amakim uya yo'qliklarini aytdilar. Papkani berdim.

— Olmosxon, uya kiring, choy ichib keting, — dedilar. Men uya dadam kutayotganlarini aytib, xayrlashdim.

Mirtemir amakining papkalarini dadamning ish stollari-da turganini ko'p marta ko'rganman. Ko'k siyohda zikh yozilgan she'rlar o'sha Nekrasovning "Rusiyada kim yaxshi yashaydi" poemasining tarjimasi edi.

Uning har varag'ida dadamning qo'llari bilan yozilgan joylari bor. O'sha qo'lyozma Mirtemir amakining arxivlarida turgan bo'lsa kerak.

Universitetda o'qib yurgan chog'larimda, albatta meni sevgi-muhabbat lirikasi qiziqtirardi: Xayriddin Saloh, Saida

Zunnunova, Yong'in Mirzo she'rlari menga ko'proq yoqardi. Bir kuni choy ustida hammamizga dadam she'rlar haqida hikoya aytib berib o'tirgan edilar, men dabdurustdan:

— Dada, hozirgi ijodkorlardan kimni she'rlarini yoqtirasiz? — deb so'radim, dadam o'ylab ham o'tirmay:

— Shayx amakingni she'rlari, dramalari yoqadi. Lekin Mirtemir amakingni she'rlarida katta falsafiy fikrlar ko'p. U juda katta iste'dod sohibi, bunday shoir bizda boshqa yo'q, — dedilar-da, Mirtemir amakini men eshitmagan lirik she'rlarini yoddan o'qib berdilar. Men dadam hozirgi o'zları bilan tengqur shoirlarning she'rlarini yoddan bilishlariga hayratlanib:

— Dada, qachon yod olgansiz bu she'rni? — desam:

— Qizim, men biror she'mi o'qisam yoki eshitsam, menga yoqsa, o'zidan-o'zi yod bo'lib qoladi, — dedilar.

Mening hayratim yanada oshib:

— Qachondan beri shunday? — desam, yana xayolga berilib:

— She'r meni o'z domiga tortgandan beri bo'lsa kerak, — dedilar. Shu sabab Bedil, Fuzuliy, Sa'diy, Navoiy va boshqa shoirlarning ijodini besh qo'lday bilar ekanlar-da, deb o'yladim. Dadamni Mirtemir amakiga bergen baholaridan keyin men domlaning she'rlarini boshqacha qunt bilan o'qiydigan bo'ldim.

Mirtemir amakim katta faylasuf shoir, o'zlariga xos bo'lgan baland ovozlari bilan tengqurlaridan ajralib turishlarini o'shanda angladim.

Mirtemir amakimning ijodlari dadamning ijodlariga uy-g'unligini she'rlarini o'qiganimda sezар edim.

Mirtemir amakimning Yozuvchilar uyida, uchrashuvlarda o'qigan she'rlarini ko'p marta eshitganman, yoqimli, hayqiroq ovozlari hali-hali qulog'im ostida jaranglab turgandek bo'ladi.

ABDULLA QAHHOR

1957-yili mashhur hind raqqosasi Vayjantemala Toshkentga kelgan edi. Uning Alisher Navoiy nomli teatrda bo'ladigan konsertiga dadam ikkita bilet olib kelgan edilar. O'sha vaqtida men Hulkar bilan filologiya fakultetida oldinma-keyin o'qir edik. Tanaffuslarda, kutubxona yoki adabiy kechalarda uchrashar, bir-birimiznikiga tez-tez borib turar edik. Bu gal

ham teatrga Hulkar bilan maslahatlashib birga boradigan bo'ldik. Uni teatr eshigi yonida kutadigan bo'ldim.

Shu kuni sochimni yuvib bitta qilib o'rdir, pushti sun'iy krepjorjet qo'sh etak kimono ko'ylagimni kiydim (o'sha vaqtida kiyim ham ko'p emas edi, shuning uchun esimda qolgan-da). Dadam gulzorimizda ochilib bo'lgan gullarni qirqayotgan ekanlar.

Teatrga ketayotganim, konsertdan so'ng Hulkarnikida yotib qolishimni ayam va dadam bilishar edi.

— Dada, men ketdim, — dedim.

Dadam usti-boshimni kuzatib (har doim shunday qilar edilar):

— To'xta-chi, — dedilar-da, bitta chiroyli to'la ochilma-gan olovrang atirgulni uzdilar, tikonlarini qaychi bilan olib silliqlab, so'ng: — Beri kel, — dedilar.

Yaqin borsam, ko'ylagimni yoqasi ochiqroq edi, o'rtasiga gulni qistirib qo'ydilar. Ko'ylakka aynan shu gul kerakdek juda mos tushdi. O'zlarining ixtiolaridan mammun bo'lib:

— Endi boraqol, — dedilar.

Teatrga yetib borganimda, Hulkar meni kutishi kerak bo'lgan joyda yo'q edi. Men uni bir oz kutdim.

Nihoyat, Hulkar keldi.

U har doimgidek juda chiroyli guldor yangi ipakli ko'y-lakda edi.

Sochlari oxirgi rusumda chiroyli turmaklangan, peshonasi ochiq, qo'l-oyoqlari, bo'yи basti kelishgan, ham Hamid akamlarga, ham Zulfiya opamlarga o'xshab ketgan xushro'y qiz edi.

Biz shoshilib ichkariga kirdik.

Konsert boshlanmagan edi-yu, lekin hamma joyida o'ti-rib sahna ochilishini kutardi. Kechikib qolganimizga uyalib, joyimizni qidirmayoq ikkita bo'sh joyga o'tira qoldik.

Men ochilmagan sahnadan ko'zimni olmasam-da, oldindagi qatordan birov o'girilib qaraganini sezdim: Kibriyoxon opa, yonlarida Abdulla aka o'tirgan ekanlar. Kibriyoxon opa menga bosh irg'ab salomlashdilar-da, Abdulla akaning quloqlariga bir narsa deb pichirladilar.

Abdulla aka avval Hulkarga, so'ng menga sinchiklab qarab oldilar-da (men shoshilib, o'ng'aysizlanib salom berdim, ular

eshitmadilar, shekilli, javob bo'lmadi), balandroq ovozda Hulkarga bir narsa deb gapirdilar, e'tibor bermaganim uchun eshitmay qoldim. So'ng men haqimda:

— Voy-bo'y, G'afurning familniy burni shundoqqina qiziga ko'chgan ekan-ku, — dedilar.

Burnim kattaligiga ishora qilganlarini bildimu xursand bo'lib turganini birpasda uch pul bo'ldi.

Hulkar hech gapni eshitmay sahnaga mahliyo tikilib bo-shini sarak-sarak qilardi. Oldimizda o'tirgan baland bo'yli odamlardan sahna ko'rinasdi. Men bu yerda o'tirgim kelmay goldi.

— Hulkar, yur, oldingi qatorlarda joy ko'p ekan, sahna ga yaqinroq o'tiraylik, — dedim.

Hulkar ham:

— Hech narsa ko'rinnmayapti, yur, — dedi.

Biz yugurib sahnaga yaqinroq joyga borib o'tirdik.

Avvallari faqat hind filmlarida ko'rganimiz raqqosaning san'ati, kuyning sehridan mahliyo bo'lib tomosha qilar edik.

Konsert tugagach, Hulkarlarnikiga yo'l oldik.

Zulfiya opam bizni kutib o'tirgan ekanlar.

Hulkar ikkovimiz taassurotlarimizni og'iz to'ldirib aytib tugata olmaymiz. Shunda Abdulla akaning atayin meni eshitsin deb aytgan gaplari esimga tushib, yana ko'nglim g'ash bo'lib ketib, Zulfiya opamlarga gap men haqimda bo'lmasa-da:

— Mening burnim juda katta-ya, — dedim.

— Voy, jonim, o'zingga yarashib turadi. Hind qizlarining ham burni chimchilagandek bo'lmaydi, ko'rgandirsan, Hulkarning burni ham dadasinikiga o'xshab ketadi, — deb meni yupatgan bo'ldilar.

Hulkar choy damlab kelib:

— Oyijon, nima deyapsizlar, — dedi.

Zulfiya opam:

— Hech, — deb qo'yaqoldilar.

Choy ichib o'tirib o'tgan-ketganlardan gapirib rosa kulish-dik.

Ertasiga yakshanba bo'lgani uchun nonushtada uzoq choy ichib o'tirdik. So'ng uyga ketadigan bo'ldim. Zulfiya opam:

— Bugun dam olish kuni-ku, yana yotib qolaqol, — dedilar.

— Ayamga yordam berishim kerak, dam olish kunlari uyimizda mehmon ko'p bo'ladi, — deb xayrashdim.

Uya kelsam, dadam kasalxonaga o'rtoqlarini ko'rgani ketgan ekanlar.

Ayamlarga konsertni gapiribgina emas, harakatlar bilan Vayjantemalaning raqslarini ko'rsatib berdim.

Ayam:

— Konsertga kimlar boripti, — dedilar.

Shunda yana Abdulla akaning gaplari esimga tushib ketdi. Kimlarni ko'rganimni aytib turib, Abdulla akaning gaplarini ham aytib berdim.

Ayam:

— Burning kichkina emasligi rost, dadangnikiga o'xshashi ham to'g'ri. Qani edi hammaning bolasi ozgina bo'lsa ham otasiga o'xshasa. O'sayapsan, voyaga yetsang burning tortilib ketadi. Dadang seni juda erkalatib yuborganlar-da, senga maqtov bo'lsa. Hamma "Olmosxon, Olmosxon" deganiga havolani ketgанинги sezgандирлар, sal shashtingni pasaytirib qo'yay deganlar-da Abdulla aka, xo'pam sinchkov odamlar-da, boplab gapirib qo'yadilar, shuning uchun ba'zi odamlar u kishiga kek saqlab yuradi. O'ylab ko'rilsa, gaplari to'g'ri bo'ladi. Kibriyoxon bekami ko'st, pazanda, savodi tugal — go'zal juvon-a, — dedilar.

— Ha, juda chiroylilar, — dedim men.

— Abdulla aka hajv ustasilar, hikoyalarida hech kim eshitmagan o'xshatishlar qilib qo'yadilar-da. O'qimaganmisan?

— Ko'p emas...

— Sen hadeb o'rischa ro'monlarni o'qiyvermay, Abdulla akani ko'proq o'qigin-a, qanday odamliklarini, nozik ta'bliklarini, odamlarga munosabatlarini bilib olasan. Shunaqa hikoyalar yozib qo'yganlarki, o'qib odamning ichi ag'dar-to'ntar bo'lib ketadi. Xuddi Chexovning hikoyalariga o'xshagan, har bir hikoyada bir ro'moncha mazmun bor. Har birida inson taqdiri... Tarjimalarini aytmaysanmi. Hikoyalarining tiliga e'tibor bergin, har bir so'zni joy-joyiga qo'yib ishlatgan yozuvchining o'zi kam-ku. Dadang Abdulla akani juda katta yozuvchi deb hurmat qiladilar.

Men Abdulla akani, 12–13 yoshimda ekanimda, Qo'qonda akam Muhiddinxon redaktorlik qilgan "Kommuna" gazetasida bositgan hikoyalarni o'qib, biznikiga kelganlarida ko'rganman. U kishi akam bilan o'rtoq edilar.

Dadangning she'rlari, Abdulla Qahhorning hikoyalari 20—30-yillardayoq mashhur bo'la boshlagan. Kibriyoxon aymoqchi, Abdulla aka juda mehnatkash yozuvchi, katta quntga ega odam emishlar. Dadangda o'sha qunt bo'lsa, qancha-qancha asarlar qog'ozga tushishi mumkin edi...

Har kuni choy ustida, o'rtoqlari bilan ulfatchilikda hech takrorlamay, har gal yangisini aytib bergen afandiyu hikoyalarning o'zi bir kitob bo'ladi. Dadang aytib bergen hikoyalaru hikmatlarni qancha-qancha yozuvchilar o'ziniki qilib, o'xshatolmay yozib yuradi, dadangning o'zlarida esa yozishga qunt yo'q. Sen Abdulla akaning quntlaridan o'rgangan, yozganlaridan ko'proq o'qigin, — dedilar.

Ayamning Abdulla aka haqidagi gaplari ko'nglimdagi ozginagina xijilni allaqachon chiqarib yuborgan edi.

Shu-shu bo'lidiyu, men Abdulla akaning asarlari — "Sarob", "Qo'shchinor chiroqlari", "Sinchalak", "O'tmishtdan ertaklar"ni va qator hikoyalarni takror-takror o'qib, har gal yangi ma'no tuyadigan bo'lidi.

Iste'dodlari, mahoratlari, hajvlaridagi so'z o'yiniga har gal tan berardim.

Abdulla aka Kibriyoxon opa bilan biznikiga mehmon bo'lib kelishganida choy tashib, universitetda uchrashuvlarda ko'rganimda hurmatlab, yosh bo'lganim sabab uyalib, salobatlari bosib salom-alikdan nari o'tishga jur'at qilgan emasman.

Afsuski, menga Abdulla aka bilan suhbatlashish nasib bo'lmadi. Faqat u kishi qanday ulug' inson ekanlarini Kibriyoxon opa aytib bergen xotiralardan va biz yozuvchilar uchun darslikdek bo'lib qolgan asarlaridan bilaman, xolos.

HAMID AKA

Hamid G'ulom deganda uning she'rlari, romanlari, ajoyib dil o'rtovchi hikoyalari, yo'l xotirotlari, ocherk, publisistik maqolalari marjondek tizilib xayolimga keladi. Uning mada-

niyatimiz, adabiyotimiz ravnaqiga qo'shgan hissasini o'ylayman. Mana shular haqida yozsam bo'ladi, lekin bular haqidaadabiyotshunoslar ipidan-ignasigacha joy-joyiga qo'yib tahlil qilib bera oladilar.

Hamid akamning dadam bilan safarlarga borganlari, ular bilan ko'pincha hamroh bo'lganlari, dadamni ardoqlab, avaylab, ko'ngillariga qarab yurganlari haqida yozsammikin... Yoki chet el, qardosh respublikalardan kelgan mehmonlar uyimizga kelishganda, har doim dadamni o'ng qo'llaridek yonlarda bo'lganlari haqida aytsammikin, deb xayolim yugurib ketadi...

Lekin bu voqealar haqida Hamid akamni o'zları juda chiroyli, ta'sirli qilib xotiralar yozishlari turgan gap.

Mening Hamid akam haqidagi ajoyib esdaliklarim juda ko'p. Hammasini eslasam — kitob bo'ladi.

Xotiralarimni dadam G'afur G'ulom bilan Hamid akamning bir-birlariga bo'lgan aka-ukadek samimiy munosabatlari, mening eng avvalgi, afsus, qaytarib bo'lmas hayrat to'la taassurotlarimdan boshlay qolay.

Biz Kaduoboddan Beshyog'ochning "Arpapoya" siga ko'chib kelganimizda besh yoshli qizcha edim. O'ynab yurib, hovlimiz atrofi, qo'ni-qo'shnilarini bilib oldim.

Uyimiz bilan Muqimiy nomli teatr o'tasida eski uylar bo'lib, ular tezgina buzilib, o'sha uy egalariga boshqa joylardan joy berilgani uchun o'rta bo'shab qoldi. Teatr hovlisi bilan bizning hovlimiz bir bo'lib qoldi. O'rtada devor yo'q edi. Artistlar yuzlariga grim qilib, rol uchun kiyinvolib katta hovlida sayr qilib yurishardi. Men uchun bu — teatrda qo'yilgan spektakldan ham zo'r tomosha edi.

Sal kattaroq bo'lganimda, teatr orqasidagi ko'chalar, Beshyog'och bozori tomonlarni ham o'rtoqlarim bilan borib ko'radigan bo'ldim.

Hamid akamlarni uylari esa, yosh naturalistlarning "Forobiy" degan har xil to'garaklari bor maktab ko'chasining boshida edi.

Hamid akam shu ko'chada yashar edilar. Uylari o'sha davr uchun ancha hashamatli ichkari-tashqarili katta hovli bo'lib, ikki qavatli edi shekilli, u yerda anchagini oila: amakivachchalar, qarindosh-urug'lar birga tinch-totuv yashashar

edi. Men 8—9 yoshli qiz bo'lib qolganimda shu "Forobiy" mактабига о'rтоqlарим билан ko'п борар edim.

Ana shu, "Forobiy" (qisqacha shunday derdik)ga борганимда албатта Hamid акамларнигiga кириб xabar olib, болалари билан o'ynab (Alisher mendan salgina kichkina edi) xuddi kattalardek uydan олганим konfetlarni ularшиб kelishni o'zimni vazifam deb bilgan edim, shekilli.

Yana menga Manzura opam (Hamid акамнинг umr yo'ldoshi) juda yoqar edilar. Manzura opam biznikiga keѓганларida mahliyo bo'lib qolar edim.

Ular juda chiroli edilar. Manzura opam g'oyat go'zal ovozларидаги qo'ng'iroqchaga o'xshagan ohang meni o'ziga rom qilardi.

Ko'pincha Hamid акам билан dadam safarlarga ketishgанида, ulardan xabar bormi, deb biznikiga kelar edilar.

Manzura opam kelishлari билан yонларига borvolib u kishini gapga tutar, ovozларидаги kam uchraydigan qo'ng'iroqcha menga yoqar, gaplashgim kelaverardi. Manzura opam hamma savollarimga zerikmay javob berardilar.

Familiyamiz bir bo'lганидан ancha vaqtgacha Hamid акамни dadamni tug'ishgan ukalari deb bilar edim. Shu tuyg'u haligacha men билан birga. Manzura opam ayam билан oasingildek sirli-sirli so'zlashib o'tirishganida, men ham gapga aralashib quvonib o'tirardim.

Uyimizга mehmon kelадиган bo'lsa dadam:

— Hamidni chaqirib kel, — deb menga buyurar edilar, men bir zumda yugurib borib aytib kelardim.

Kunlardan-bir kuni erta tongda uyg'onib ketib, qilar ish topmay hovlida aylanib yursam, dadam:

— Mosh, bor Hamid аканги aytib kel, agar uyg'onmagan bo'lsa, uyg'otib olib kel, — dedilar.

Uylariga borsam, eshikлari ochiq, Hamid акани oyilari hovlida ekanlar. U kishi baland bo'yli, hushfe'l juvon edilar. U kishiga dadam aytgan gapni aystsam, kulib:

— Manzuraxon hozir hovlilarни sarishtalab kirib ketgan edi-ya, nevaram injiqlik qilib kechasi билан uxlatmadи-yov, charchab uxbab qolishdimikin, bir oz to'xtab tur-chi, o'zлari chiqib qolishar, — dedilar.

Men oyiga har xil savollarni ko'p berib yubordim shekilli, javobiga ulgurolmay kulib:

— Voy, so'roqchi qizim-ey, buncha tiling biyron, dadangni qizisan-da, a, — dedilar.

Men ham bo'sh kelmay: "Hamid akamsiz uyg'bormasligimni, dadam uyg'otib bo'lsa ham olib kel", deganlarini aytsam, oyim yana kulib ichkariga kirib, gapimni aytdilar shekilli, ichkarida jonlanish sodir bo'ldi.

Hamid aka yuviniib, kiyinib chiqdilar. Hamid aka bilan uyg'a yetgunimizcha gapirishib ketdik.

Hamid akam mendan:

— Akamni kayfiyatları yaxshimi? Uyda kim bor? Opam yaxshimilar? Nima yangiliklar? — kabi savollariga, uyimizda bo'lib o'tgan voqealarni i pidan-ignasigacha aytdim. Kim kelganu kim ketgan, nima degan, nima maqsadda kelgani, hammasini to'kib soldim.

Hamid akam uyimizga yetib borgunimizcha xonadonimiz "sir-asroridan" to'la ma'lumot oldilar.

Dadam she'r yozib, bozor qilib kelib, Hamid akamni sabrsizlik bilan kutib turgan ekanlar.

Ayam:

— Hamidjon, akangiz yangi yozgan she'rlarini Siz o'qib bermaguningizgacha choy ichishga ham ishtahalari bo'lmay turgan edilar, yaxshi kelib qoldinglar, — dedilar.

Dadam ichkaridan qo'llarida qog'ozlar bilan hovliga chiqdilar. Hamid akam bilan qo'l olishib ko'rishdilar. Dadam:

— Abdul Hamid seni kutib turgan edim, shu she'rni o'zing o'qivorgan, — dedilar-da, qo'llaridagi qog'ozlarni berdilar.

Hamid aka qog'ozlarga ko'z yogurtirib chiqib:

— Aka, juda zo'r-ku, ajoyib she'r yozibsiz, o'zingiz o'qing, sizchalik o'qish qo'limdan kelarmikin, — dedilar.

Dadam gapni cho'rt kesib:

— Azondan beri seni o'qishingni kutib turi pman, o'qi,— dedilar.

Ana shundan keyin Hamid akam faqat o'zlariga xos ajoyib shirali, saqat u kishigina talaffuz eta oladigan ohanglar bilan dadamni she'rlarini o'qidilarki, atrof sukutida ovozlari kishini mahliyo qilmay qo'ymasdi...

Dadam Hamid akam ijrosida yana ham ajoyib jilo olgan she'rlaridan ko'ngillari to'lib mammun edilar. Hamid akam dadamni she'rlarini g'oyat go'zal, falsafiy she'rni dadamdan boshqa hech kim yozolmasligini aytib, yana ham dadamni quvontirgan edilar.

— G'afur aka, she'rni siz yozingu men o'qiy-da, — deb o'sha maqtovga o'zlarini ham qo'shib qo'yganlari dadamga yana ham yoqib tushdi shekilli, ikkalalari yana bel olishib ketishdi.

Murg'ak taassurotlarimda o'sha damlar bir ilohiy damlardek muhrlanib qolgan. She'r sehri, uning takrorlab bo'lmas yurak urishlaridagi ritmlari, talaffuzi, hayajon bilan o'qilishi ko'zimga yosh keltirib, qalbimni to'lqinlantirib yuborgan edi.

Hamid akam dadamni hamma erkaliklarini ko'tarar, o'zları erkelaydigan gaplar aytib endi gilos tagidagi stolga tayyorlangan dasturxonda choy ichib o'tirishardi. Ayam parvona bo'lib:

— Abdul Hamid, choy iching, manovilardan yeng, hammasini siz kelasiz deb tayyorladim, — deb hurmatlar edilar.

Hozir o'ylasam, ayam Hamid akamlardan unchalik katta emas ekanlaru, ularga va dadamni har bir shogirdlariga opalarcha mehribonchilik qilishlari, she'r yozish, ijod mashaqqatini bilganlardan ekan-da, deyman. Mening qulog'imdan esa hali o'qilgan she'ring jarangi ketmas edi. O'sha vaqtlardan beri Hamid akamning dadam yozgan she'rlarini o'qishlarini yaxshi ko'raman. Hech bir iqtidorli artist, so'z ustasi ham dadamni she'rlarini Hamid akamchalik tushunib yetib, kerak joyida pauzalar bilan dil o'ynatadigan qilib o'qiy olmaydi.

Shu bois qayerda bo'lmasin, ya'ni uchrashuvlarda, adabiy kechalarda iloji bo'lsa Hamid akamdan dadamni she'rlarini o'qib bering, deb yalinib yuraman. Hamid akam dadamni she'rlarini o'qisalar, yuqorida aytganim voqealarni qaytadan kechirgandek, o'sha qaytarib bo'lmas vaqtdagidek baxtiyor bo'laman, hali ham menda dadamga erkanib yurgandagidek his paydo bo'ladi. Hamid akam dadamning she'rlarini o'qiyaptilarmi, demak, dadam tirik, meni issiq bag'rilariga olayotgandek bo'laveradi...

Aytib bergenim ushbu voqeaga ham 50 yildan ko'proq vaqt bo'libdi.

USTOZI ULAMO

Ozod akani har doim bilgandekman. Zafar akamlarni (Muzaffar Muhitdinovich Xayrullayev — tog'amning o'g'ilari) qachondan eslay olsam, o'shandan Ozod akamlarni ham bilgandekman.

Uyimizga ko'p kelar edilar.

Albatta, avvallari Zafar akamlarni talabalik do'stlari bo'lganlari uchun, keyinroq tanqidchi adabiyotshunos sifatida, so'ng oilamizning yaqin kishisi, qadrdonimiz, xushchaqchaq, hazilkash, dadamlarni Ozodlari sifatida bilaman.

O'sha vaqlarda dadamlar bilan Zafar aka, Ozod akalar qandaydir adabiyot muammolari, o'tgan zamondagi shoirlarning dunyoqarashiyu yozgan asarlari haqida bahslashishgan bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

Ko'pgina davlat arboblariyu yetuk adabiyotshunos faylasuflar tarixni chuqur bilgan dadam oldida ip yecholmay qolishganini ko'p ko'rghanman.

Ozod aka bo'lsalar, dadamdan tortinmay o'z fikrlarida turib olganlarini ko'rGANIMDA tan bergandim. Ozod aka o'z haq fikrlarini o'tkazishda hech qanday murosasizlikka berilmasliklari menga har doim yoqadi.

Maktabni tugatib, universitetga o'qishga kirganimda, qarasam, bizga dars beradigan domlalarning ko'pi biznikiga kelib yuradigan dadamning shogirdlari ekan. Yoshi ulug' taniqli olimlar: Homil Yoqubov, G'ulom Karimov, Saida Nazrullayevadan tortib, kuchga to'lgan jo'shqin Laziz Qayumov, Ozod Sharafiddinov, Anvar Shorahmedov, Tursun Sobirov hammalari kun ora uyimizda ko'rib turadiganlarim, endi mening domlalarim...

Albatta, ulardan dars olish, o'zlashtirish men uchun ham qiyin, ham oson edi.

Darsda o'qib kel, deganlarini bilmasam, ulardan xijolat qillardim. "Shunday odamni qizi, adabiyotni fahmlamas ekan", — deb o'ylashmasin deb tirishib o'qirdim.

Osonligi esa, hech hayiqmay o'z fikrimni aytardim, to'g'ri bo'lsa to'g'ri, noto'g'ri bo'lsa noto'g'ri, degan javobni olardim. Darslarda, kurs ishlari yozishda uyalmay maslahat so'rardim. Ular ham o'z akalarimday javob berishardi.

Ozod akani shaxmat o'ynaganlarini ko'rganmisizlar? Haqiqiy turnir, dahanaki jangga aylanardi. Har xil iboralar, hazillar, anekdotlar, jirillashlar, papiros tutuniga to'la xonada asablar uzilgudek holat paydo bo'lardi. Akam Ulug'bek bilan shaxmat o'ynaganlarini ko'rgan kishi haqiqiy "bolelshik" bo'lib qolardi. U o'yinlarni faqat ko'rish kerak...

Biz talabalar domlalarimizni juda qadrlar edik, chunki ular bilan hamfikr edik. Shuning uchunmi, ular bizga ishda o'rnak bo'lishardi. Universitetda o'qib yurganimizda Laziz aka, Anvar aka, Ozod akalar bizni ideallarimiz edi. Laziz aka yumshoq, lirizmga berilib gapni uzoqdan bezab, she'rlarni chirolyi o'qib tushuntirardilar. Biz qizlarni hurmattab, erkalab "bonu" der edilar. Ozod aka olovli vulqondek otilib, so'zları hayajondan ichlariga sig'magandek gapirar edilar. Ularni darslari bir paraga sig'mas, tanaffus ham eslaridan chiqib ketar, dars bahs-munozara, mushohadaga aylanib ketardi. Har bir darsda asablari qil ustida turar, o'zlarining so'zlarini, hislarini hech ayamasdan sarf qilardilar, ba'zan yozuvchining asarlaridan, tanqidchining taqrizi o'tkirroq, qiziqarliroq, qaynoqroq bo'lardi, deyilsa, hech mubolag'a bo'lmaydi. Tanqid qilsalar, haq ekanliklarini isbotlab, hech kimni ayab o'tirmas edilar.

Hammamiz u kishiga o'rtoqdek hazillashardik, lekin imtihonlarda fanni bilmagan talabalarni yoqtirmas: "Do'stim, o'qish kerak! Sizlarni o'qishdan boshqa ishinglar yo'q-ku, vaqt ni boy bersanglar keyin nima bo'ladi?" — deb qayg'urar edilar. Ozod aka g'arb, turkiyzabon, rus adabiyotini yaxshi bilardilar, darslarda ularni asarlarini o'zbek adabiyotidagi asarlarga taqqoslab, tahlil qilar edilar. Ularni asosiy g'oyasini shunday miyamizga quyib qo'ygandek ochib berar edilar.

O'sha talabalik davrlariga ham mana qirq yildan oshibdi...

Ozod aka, Laziz akalar har doim paxta terimi vaqtida talabalar bilan birga bo'lishardi. Birinchi kursda "rezervist" edim, agar paxtani ko'p termasam, talaba bo'lishim mumkin emas edi. Paxta terimida no'noqroq edim. O'sha yil paxta plani bajarilmay, 7-noyabr bayramidan keyin ham xo'jalikda qolib ketgan edik. Paxta tamom bo'lib, ko'sak terib, kechasi allamahalgacha uni chuvirdik. Barak o'rtasidan bo'linib, yarmida yigitlar, yarmida qizlar yashardik.

Bir kuni ertalab uyg'onsak, hammayoq oppoq qor, sovuq. Ko'rak terish muammo...

Ozod akam keldilar, egnilarida telogreykaga o'xshagan kalta palto, sovqotib ketganlar.

— O'rtoqlar, peshingacha, qor eriguncha bo'shsizlar, utrennik, qor bayrami qilamiz, — dedilar. Hammamiz "Ura" deb yubordik. Kechqurungacha qor erimadi. Ozod aka hammamizni to'plab "ko'chma kinoga" olib bordilar. Yarmi ochiq yerda sovuqda sumalakka aylanib qolay, deb qandaydir o'rischa tarixiy filmni ko'rdik. Qaytayotganda Ozod aka salbiy, ijobiy qahramon, ularning asardagi rolini gapirib kelayotgan edilar, kimdir:

— Domla, bu kinoda sotsialistik realizm bormi? — deb so'radi.

— Sotsialistik realizm o'zi nima, — deb yana biri qo'shib qo'ydi.

Ozod aka aytib berishga yo hafsalalari kelmadni, yoki aytgilari kelmay, "qolganini ertaga aytaman", dedilar. Shushu haligacha, men sotsialistik realizmni kim o'ylab topgan, qaysi yozuvchi o'sha realizmda yozishga uringan, o'zi nimaligini bilmay "savodsiz" o'tayapman.

Ertasi kun qor eridi-yu, ko'sak terish juda qiyin bo'ldi. Planim to'ljadi, ko'p qizlarniki ham shunday bo'ldi. Shunda Ozod akamdag'i ritsartlik tug'yon ko'tardi shekilli, yo qizlarga rahnilari keldimi, yigitlarimizga:

— Iya, qizlarga yordam bermaysizlarmi yoki o'zim yeng shimarib, ko'sak terishga tushaymi? — dedilar. Keyin bilsak, kursdoshlarimiz hissamizni terib, bizlarga yozib qo'yishibdi.

Universitetni tugatish arafasida biz jurnalistlarni gazeta yoki radioga praktika o'tkazishga yuborishgan edi.

"Qizil O'zbekiston" (hozirgi "O'zbekiston ovozi") gazetasida edim, topshiriqqa ko'ra biror korxonadan reportaj yoki lavha yozib kelishim kerak edi.

— Qayerga boray, — deb Karim aka Abduazimov (menga praktika rahbari edilar) oldilariga kirsam:

— Ertaga men Qo'yliqqa boraman, xohlasangiz o'sha yerda beton quyadigan korxona bor, o'shangacha borishingiz mumkin, — dedilar.

Men rozi bo'ldim. Birga bordik, Karim aka o'tkir iqtidori jurnalist, yozganlari rezonans bermay qolmasdi. Meni korxonaga qo'yib, o'zlarini rayondagilardan intervyu olishga ketdilar. Men korxonaga kirsam, chiroqli, o'ziga qaragan o'rta yoshli ayol rahbar ekan.

— Zubayda Sharafiddinova, — deb o'zlarini tanishtirdilar.

Men so'rashdim, filologiya fakultetida o'qib, praktikant ekanimni eshitib, Ozod akamni onalari ekanliklarini aytdilar. Korxonada chitga gul bosish, bichish-tikish, shirintiliklar chiqarishdan tortib uy qurish uchun beton konstruksiyalar ham chiqarilar ekan. Men u kishini farg'onacha shevada gapirganlari uchun, "ayacha" deb murojaat qildim.

Ozod akamni maqtab, u kishining tabiatlari nozikligini, hozirjavobliklarini, g'arb, rus adabiyoti bilimdonliklarni, o'zimni u kishiga bo'lgan hayratimni gapiraveribman, shunda "ayacha":

— Qizim, siz menga Ozodni maqtagani kelganmidingiz?
— dedilar. Shunda men hech xijolat tortmay:

— Yo'q, ayacha, o'g'lingizni, bizning domlamizni qanday qilib tarbiyalaganingizni bilib qo'ying, sizga havasim kelganini aytgim keldi-da, — dedim.

Biror kundan keyin "Qizil O'zbekiston" gazetasida "Mehr bulog'i" degan, ayachamning qilayotgan ishlari, birga ishlayotgan xodimlariga bo'lgan mehr-saxovatlari bayon qilingan lavham chiqib, meni tahririyatdagilar maqtashgan edi.

Ozod Sharafiddinov qancha-qancha yosh avlodni milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylaunga o'rgatgan katta harfli inson.

Ota-bobolarimiz orzusi bo'lgan mustaqil O'zbekistonimda barkamol yoshlarni ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalashda katta hissa qo'shgan olimu ulamo ustoz, deb bilaman.

Ozod aka nafaqat ustoz, u kishi shogirdlikni ham o'rniqa qo'yganlariga necha marta guvoh bo'lganman. Kibriyo opa Abdulla aka vafotidan keyin, ularning shogirdlari Ozod akaga suyanib qolgan edilar. Ozod aka o'z ustozni xotirasi va uning oilasiga juda sodiq edilar. Uy-muzey tashkil qilinishiyu biror kitobni qayta nashr qilish ishlari Ozod akasiz bitmasdi.

Ozod Sharafiddinovni hozirgi zamon adabiy muhitida bilmagan odam yo'q. U kishi yozgan risolalar ko'p jildlik

adabiy-tanqidiy maqolalari haqida, davlatga xizmatlari, noshirliliklarini adabiyot bilimdonlari hali ko'p yozadilar. Men u kishiga bo'lgan o'z munosabatimni aytdim, xolos.

O'SHA MUNGLI DAMLARDA...

O'sha mudhish fojia yuz bergenini eshitishgan zahoti ayam bilan dadam Bekobod tomon yo'l olishipti. Yo'l-yo'lakay ayam xudodan iltijo qilar emishlarki, meni tirik ko'rayin deb, yomon niyat qilmay deb, ko'zlaridan yosh chiqarishga, qo'rkar emishlar. Dadam so'z qotmasalar javob bermashishlar. Quloqlariga gap kirmas, xayollari faqat men bilan band emish. Ana o'sha kuniyoq dadam qattiq asabiyashish natijasida qand kasaliga duchor bo'lib qolgan ekanlaru mening dardim bilan bo'lib buni bilmagan ham ekanlar.

Havo sovuq, 1962-yil, 7-yanvar kuni edi. Kasalxonaga kechga yaqin kirib kelishganda qon bosimim yigirma daraja, shok, tanamning 61 foizi, uchinchi, to'rtinchi daraja kuygan holda yotar ekanman.

Na ular kelishganini, na o'zim bu dunyoda borligimni bilar edim...

Na tanam, na qo'lim, na oyog'im bor, men bir baliq-manu umurtqam bor, o'sha qattiq og'riydi.

Miyamga qandaydir elektron apparatlarning g'irillashi, mudhish g'ing'illash qamalib qolgandek. Shu zaylda bir hafta Bekobod kasalxonasida behush, beharakat, bejon, faqat yuragim astagina urib yotganman...

Endi ko'z o'ngingizga ota-onamning ahvolini keltiring. Joningizdan ortiqroq aziz qizingizni to'y-tomosha qilib, turmushga berdingiz. Ular bir-biri bilan baxtiyorligini ko'rib, quvonchingiz ichingizga sig'may yurganida to'satdan ellik to'rt kun ichida shunday falokat yuz bersa, shoir odam qanday ahvolga tushadi?! O'sha mudhish lahzalarda ham dadamlar o'z izardorlarini yutib, darrov Toshkentdan shifokorlarmi chaqirtiribdilar. Bir kechaning o'zida menga besh-olti litr qon quyishibdi, qon venadan ketmagach, arteriyani ochishib, qonni to'g'ridan-to'g'ri arteriyaga quyishibdi.

Toshkentdan mashhur professor V. Vohidov, akam, Bahri ammamning o'g'llari Darvin G'ulomov kelishgan.

Kuyib qolganimdan to'qqiz kun o'tgach, klinik o'limdan qutqarib qolishdi. Lekin quyulib qolayotgan qonni yangilab turish kerak. Buning uchun qon va yana qon kerak. O'sha kunlar Bekobod kasalxonasiagi hamshiralar, doktorlar, qarindosh-urug'lar menga qon berib turishgan. Bu yaxshiliklarini bir umr unutib bo'lmaydi.

Xudoga ming shukrlar bo'l sinki, dadam, ayam, qarindosh-urug'lar, dadamning ko'pgina o'rtoq-yaqinlarining duolari borib yetganmi yoki yosh jonimga xudoning rahmi kelganmi, hushim o'zimga keldi.

Dadamni, ayamni so'radim, ikkovlariyam xotirjam javob berishdi. O'zimga kelganimdan hamma xursand edi. Lekin ko'zim yumuq, yuzim dokalarga dorilar qo'yilib bog'langan edi. Shu sabab, ular meni ko'zim omonmi, yo'qmi, bilishmas, menden so'rashga yuraklari betlamas ekan.

Kechqurun professor Vohidov yuzimdan dokalarni olib dori qo'ydilar.

Bir mahal Vosit aka ko'zimni pinset bilan yirib ochib, bir narsani ko'rsatdilar. Men o'zimga o'xshagan qo'g'irchoq — menikidaqa po'stinchasi, qalpoqchasi ham bo'lgan qo'g'irchoqni (Qudrat akam bilan Bekobod magazinidan olmoqchi bo'lganimizda magazin yopiq bo'lgan edi) ko'rishim bilan:

— Mendaqa qo'g'irchoq, — deb yuboripman. Shunda atrofim qiy-chuv, sevinch-quvonchga to'lib ketdi. Hamma xursand: ko'zimning shikastlanmagani hammani quvontirib yubordi.

Belimni silab o'tirgan ayamlarning yumshoq qo'llaring titrashini sezdim.

— Bolam, joni:n qizim, bu yog'iga tuzalib ketasan, — deganlarida ovozlari ham titrardi.

Men ayamni yupatmoqchi bo'lib qo'limni qimirlatgan edim, og'riqdan chinqirib yuboripman va yana hushimdan ketib qolipman. O'zimga kelganimdan keyin butun tanamda og'riq yuz chandon kuchayib ketdi.

Har ingrashim dadamni hayajonga solar, dardimni olol-maganlaridan yuraklari yonar, muzdek-muzdek suv ichardilar.

Onaginam xudoni qahrini keltirmay deb yig'lashdan ham qo'rqib, meni qaytib berganiga xudoga shukr qila olar

ekanlar, xolos. Shu zaylda 14 kun Bekobod kasalxonasida yotganimdan so'ng, Vosit aka, Darvin aka, bosh shifokor maxsus samolyotda Toshkentga olib ketishdi. Toshkent aeroportida maxsus mashinada statsionarga yetib keldik. Butun kasalxona xodimlari meni tezroq tuzalishim yo'lida xizmat qilishdi, hammasiga mingdan-ming rahmat. Shu olti oy ichida 20 litr qon quyishdi. Jarohatlarimni tezroq tuzatish, boshlangan sepsisni oldini olish, tropik yaraga aylanib ketmasligi uchun teri ko'chirib o'tkazish kerak ekan. Buning uchun zamonaviy dastgoxlar kerak, ular o'sha 1962-yili birgina Moskvadagi Vishnevskiy instituti shifoxonasida mavjud edi.

Ayam, dadam, akam, Qudrat aka, hamshira bilan birgalikda Moskvaga uchdik.

Vishnevskiy institutining shifoxonasiga joylashdik. Meni joylab akam, dadam, Qudrat aka mehmonxonaga, ertasi Toshkentga jo'nab ketishdi. Ayam men bilan qoldilar. Shu zaylda noyabrgacha mazkur kasalxonada davolandim.

Ayam O'zbekiston vakolatxonasi mehmonxonsida tunar, har kuni ertalab sakkiz ham bo'lmay, menga ovqat pishirib, bozorga borib sut-qaymoqlar olib oldimga kelardilar. Kasalxona ma'muriyati ayam, palatamizdagи kasallarga ham qarab o'tirishlari evaziga oldimda bo'lislari ruksat berishgan edi.

Kasalxonadagi qiyin hayot, o'z og'riqlaring, azoblarining yetmaganidek, og'riqlarga to'la atrofdagilarning iztirobiniko'rib turish, ularning dardiga darmon berolmaslik yana ezardi.

O'sha mungli, xafaqon, noumid kunlarda onaginam yonimda bo'lib dardimga darmon bo'lmasalar, mening tushkun fikrlarimni yoritmasalar, men bu azoblarga chiday olmas edim.

Yana o'sha mungli damlarda meni quvontiradigan, hayotga umidvor qiladigan otam, u kishining har gal Moskvaga kelishlari edi. Dadam kelganlarida og'riqlarim bitgandek bo'lardi. Menga aytgan har bir so'zлari malham, mehrigiyodek, xuddi jarohatlarim tuzalayotgandek bo'lardi.

Toshkentdalik vaqtlarida esa xayollari har dam biz bilan ekanini bilar edim. Har kungi ertalabki samolyotda sovg'a kelardi. Dadam bu posilkalarga bozordagi bor narsalar bilan birga mehrlarini qo'shib solar edilar. Bular ichida o'sma, rayhondan tortib yangi chiqqan handalakkacha bo'lar edi.

Hamma-hammasidan dadamni yozadigan xatlari ajoyib edi. Ularni qayta-qayta o'qigan bilan kishi to'ymas edi. Xuddi dadam bilan gaplashgandek bo'lardim.

Ular mening dardimga darmon, tezroq tuzalib ketishimning garovi edi.

Agar o'sha xatlar bo'lmasa, hayotga umid bog'lashim amrimahol edi.

O'sha xatlar ajoyib ertakdek haligacha umrimning chirog'ini yoqib turipti...

* * *

Ayam men bilan birga alamlarimga sherik bo'lib o'ltirar, mening injiqliklarimga chidab, charchasalar-da, bildirmas edilar. Kechki navbatchilar kelgach, ayam mehmonxonaga ketar edilar.

Ko'pincha ayam yolg'iz bo'lmas, ukalarim, kelinoyim, ammam va boshqa qarindoshlardan biror kishi yonlarida hamroh bo'lar edi.

Navbatchi hamshira qizlar, yigitlar men tengi bo'lish-gani sabab hammasi bilan til topishib olgan edim. So'ng shifoxonada tungi hayot boshlanardi...

Men og'riqlarga chidardimu narkotik ukollar qildirmas edim. Hamshiralarning tungi ishlarini tugatishini, kasallarning uxslashini kutar edim.

Keyin hammalari yig'ilib ovqatlanishar, choy ichishar, "bazm" qilishar edi. Bu o'tirishlariga meni ham katakgaga solib olib borishardi. Kimda nima noz-ne'mat bo'lsa, o'rtaga qo'yishardi. Toshkentdan dadam, Qudrat akam yuborgan go'shtu qazi, meva, uzum, qovun, tarvuzlarni ilinib saqlardim.

Akam menga zerikib qolmasin deb, o'sha vaqtida chiq-qan, kassetasi katta magnitofon olib bergen edilar. Magnitofon o'sha vaqtida noyob narsa hisoblanardi, o'zbekcha yozuvli tasmasi bo'limgani sababli, Bulat Okujavaning o'sha vaqtida rusum bo'lgan ashulalarini eshitib yotardim. Hamshiraning ham bu ashulalar joni edi.

Bulat Okujavaning qo'shiqlari, xasta, shikasta ovozi esa eng noumid, hayotdan butunlay bezgan vaqtlarimda meni yupatgan.

Miyam ishlar, ko'zim ko'rар, fikrlay olar, so'zlay olardim, xolos. Shunday do'zaxdan tirik chiqqanimga shukr qilardim.

Hozir ham biror narsaga xafa bo'lsam, o'zim bilan o'zim kelisholmay qolsam, o'sha og'riqlar yuragimga tushadiyu tushlarimda qaytadan yonaman, qaytadan do'xtirlar qo'lida tanam burdalaniadi. Uyg'onib, tush ekanini bilib, yengil tortaman.

Men shiftga qarab, karkas ichida tulum kabi yotganimda kelgusi hayot haqida o'ylagim kelmas edi.

Axir ota-onam bor, sevgan yorim bor, hali tuzalib ketaman, hamma qilgan orzularim amalga oshadi, degan ishonchni xudoning o'zi ko'nglimga jo qildi, shekilli...

O'sha kezlar hammadan ko'proq Qudrat akam meni yaxshi ko'rmay qolishlaridan qo'rqrar edim.

Agar tuzalib ketsam, hamma ishni qiladigan g'ayratim bor edi.

Faqat bu g'ayrat Qudrat akamning meni jon-dillaridan yaxshi ko'rishlariga bog'liq edi. Men u kishini butun borlig'im yo'g'lig'im bir bo'lib sevar edim. Avval Qudrat akamni ko'rgunimgacha bunday tuyg'u menda bo'limgan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, meni sevmay qo'ysalar qanday yashayman, yashay olamanmi, degan o'y turmush qurgunimizgacha ham meni qiynagan edi.

Qudrat akam menga bir qarab qo'ysalar, butun hujayralarimda chiroqlar yonib ketardi, bir shirin so'z aytsalar, o'sha kuygan qo'limni silab qo'ysalar bo'ldi edi. Shu ozgina mehr uchun yana qayta kuyishga, jizg'anak bo'lishga, o'lib qayta tilishga ham rozi edim. U kishining bo'lsa ishlari ko'p. Men xohlaganimdek oldimga tez-tez uchib kela olmas edilar...

Dadam uchun Moskvaga uchish To'ytepaga borib kelgandek bo'lib qolgan edi. Har hafta ayamdan, mendan xabar olgani kelib-ketaverat edilar.

Dadam palataga kirishlari bilan ranglari o'chib ketardi. Yordam berolmaganlari sabab, iztirob chekardilar, men bilan uzoq so'zlashib o'tira olmasdilar.

Tasalli berib, "bo'ldi, men ketdim", deb ketib qolarilar.

Dadam nazarimda juda ozib ketgan, kichkina bo'lib qolganga o'xshardilar.

Dadamning ahvollarini ko'rib, ayamga, dadam bilan Toshkentga keting, deb qistardim. Dadam qarovsiz qolayotgandek rahmim kelardi.

Ayam "xo'p" derdilaru, baribir, ketmas edilar.

Dadam kelganlarida palata gullar, sovg'alarga to'lib ketardi.

Umuman, dadam bilan ayam o'sha kezlarda butunlay o'zlarini unutishgan, faqat meni o'yashardi.

Mening betobligim butun oilamiz, qarindosh-urug'larimizni besaranjom qilgan edi. Dadam Toshkentga ketganlardan keyin hayot zerikarli, hech yaxshilik va'da qilmayotgandek o'tardi. Dadam ketganlardan keyin ozib-to'zib, qorayib ketganlarini o'ylasam, yana yuragim siqilardi.

Dadam yangi libos, chiroyli kiyim, yangi tuflilarni, umuman, kiyinishni, o'g'il-qizlar, ayamlarning ham bashang kiyinib yurishlarini yoqtirar edilar-da.

Ayam avvallari "dadang kuniga to'rt kostyum, sakkiz ko'ylik yechadilar, oliftalar", deb nolib qo'yar edilar.

Ba'zan dadam ko'chaga kiyib chiqqan yangi kostyumshim, tuqli bilan divanda yonboshlashlari mumkin edi. Bir kuni yana shuñday bo'lganida men:

— Dada, tuflingiz loy ekan, gilam loy bo'ldi, kostyumingizni, tuflingizni yechib, birpas dam olaqolsangiz-chi,— dedim.

— Seni nega tug'dirib qo'yanman, tozalaysan-da, char-chadim. Innaykeyin ("Shum bola" dagi boyning ovoziga taqlid qilib) tuqli ham, gilam ham, uy ham o'zimniki, — derdilar.

Men hazillariga maza qilib kulardim.

Hozir o'ylasam, kiyinib-yechinib toliqsalar kerak-da, yana biror erga boradigan zarur ishlari bo'lsa, bir oz dam olar ekanlar-da, deyman. O'sha voqealarni o'ylab, dadamni sog'i-nib yig'lab olaman.

Ayam hech qachon dadamdan uzoqda yashamagan, hatto o'sha Moskva yoki boshqa respublikalarda bo'ladigan majlislar, adabiyot kunlariga ham birga boradigan ayam, shu kulbai g'amxonada hamma hayot lazzatlaridan kechib o'sha vaqtda dadam bilan g'animat (ekanini bilmaganlar) yillarning hamma shodliklaridan voz kechib, mening dardimni olmoq

uchungina injiqliklarimga (kasal odamda qanday qilib sog‘lom aql bo‘lsin), xudbinliklarimga chidab o‘tirar edilar.

Farzand, uning sog‘ayib odamlar qatoridan haqli o‘rin olishiga intilish ona uchun eng oliv maqsad edi...

Ko‘pincha mening ishtaham bo‘lmasdi. Gungursdek (ayamning iboralari) do‘mboqqina qiz 27 kilo bo‘lib qolgan edim.

Moskvadagi do‘xtirlar meni avvalo ishtahaga kirgizish, so‘ng boshqa muolajalar qilish kerak, deyishgan. Shu sabab garmon terapiya boshlashgan.

Lekin u garmon dorining bir yomon xususiyati bor ekanki, ichilgach, tanadan butunlay yuvilib ketmas, o‘zining ta’sirini yillarcha ko‘rsatar ekan. Shu dorini icha boshlaganimdan keyin yaralar tuzalib o‘zim ham et qo‘ydim.

O‘sha vaqtida ayam menga yoshlari katta bo‘lib tuyulsada, 44–45 yoshlarda edilar. Bolalar o‘sib qolgan, ayni dadam bilan o‘ynab-kulib yuradigan vaqtida begona shaharda (o‘ris tilini ham yaxshi bilmas edilar) erta turib bozor qilib, pishirib-kuydirib kasalxonaga olib kelar edilar.

Qarasam, ayamni chiroyli oyoqlarida sportsmenlar kiyadigan yupqa shnurli charm shippak, egnilarida oddiy shtampel ko‘ylak, charchab uxlab qolgan edilar.

Qush uyqusidek cho‘chib uyg‘ondilar, men ko‘zimni kitobga tikdim. Bir oz vaqt o‘tgach:

— Ayajon, dadamdan xavotirdaman, ozib ketganlar, hozir ahvolim ancha yaxshi. Toshkentga borib, dadamga qarasangiz-chi, — deyman, hech unamaydilar.

— Jonim bolam, ezilib ketding-ku bu og‘riqlarni kasofatida, tushunaman-ku, qani edi shu og‘riqlaringni, dardlariningni o‘zimga ololsam, — deb meni ayardilar.

Men gaplariga yig‘lavormay deb, ichimda xudo saqlasim deyman-da, gapni chalg‘itaman.

Keyin nihoyat birinchi marta hovliga chiqdim. Hovli katta ekan, gavjum, havo issiq bo‘lgani uchun ko‘pchilik bemorlar “havo olib” o‘tirishardi.

Menga o‘xshagan aravachada chiqqanlar ham ko‘p.

Men nogironlar aravachasida oyog‘imni osiltirib o‘tirganim sabab, oyog‘im qonab ketdi. Tezgina qayta palataga olib kirib yotqizishdi.

Endi sayr muddatini kuniga bir necha minutdan uzaytirishga maslahat qildik. Uzoq olib yurilsa, yana qonab ketishi mumkin ekan.

Shu kundan e'tiboran har kuni ertalab meni shifokorlar-ning buyrug'i bilan amaliyot o'tayotgan bir aspirant kelib ayam bilan birga hovliga olib chiqadigan bo'ldi. U bilan kitoblar, gazetalarda chiqayotgan hikoya, romanlar haqida gapirishamiz.

O'zi qilayotgan tajribalarini gapirib beradi. Bo'sh qoldi deguncha bizni palataga kiradi, gapirishib o'tiramiz. Do'stla-shib qoldik.

U meni tajriba o'tkazadigan laboratoriysiga ham arava-chada olib boradi. Kuyib qolgan quyonlar, kalamushlarni har xil dorilar bilan davolab, keyin sinovlar yaxshi chiqsa, o'sha dorilarni odamlarda ham sinash mumkinligini aytadi.

Umuman, men uning qilayotgan xayrli ishiga qiziqib qoldim.

Kalamush doridan tuzalayaptimi, yo'qmi yoki o'lib qoldimi kelib aytadi-da, aravachani g'ildiratib laboratoriya-siga olib boradi.

Shunday qilib, men ham tuzala boshladim. Qudrat akam ayamga, mehmonxonaga telefon qilardilar. Yoki telegramma yozar edilar. Endi menga telefon qiladilar.

Bir kuni xabar ham qilmay Qudrat akam palataga kirib keldilar.

Men quvonganidandan so'z aytolmay qoldim. Toshkent mevalaridan olib keliptilar, butun bo'limdagi bemorlarning og'zi tegdi. Yolg'iz edim, ayam Danilovskiy bozoriga ketgan edilar.

Qudrat akam meni nogironlar aravachasiga o'tkazib hovliga olib chiqdilar. Toshkentdag'i voqealarni aytib berdilar. Kech kirdi. Meni mehmonxonaga olib ketmoqchi bo'ldilar.

Lekin navbatchi do'xtir ruxsat bermadi.

Bir-birimizdan ayrila olmas edik. Nihoyat, tunda xayrla-shib ketdilar.

Menga alam qilganidan rosa yig'ladim, palatadagilar navbatchi do'xtirni aytib kelishdi. U bilan mening do'stim aspirant ham keldi. Ular menga tinchlantiradigan ukollar qilishdi. Foydasi bo'lindi.

Aspirant meni yupatmoqchi bo'ldi, shekilli:

— Nima bo'ldi? — deb so'radi.

Palatadagilar:

— Eri kelgan edi, — deyishdi.

Shunda aspirant:

— Almazik, men seni yaxshi ko'raman, bilasanmi? Ering nima dedi: "Seni sevmayman dedimi? Avvalgidek chiroyli emassan dedimi?" — deb so'radi qizarib, qalin oynali ko'zoy-nagi sepkil bosgan burnidan sirg'alib tushib ketay derdi. Asabdan titrab: — Yig'lama, men seni yaxshi ko'raman, senga uylanaman. Seni o'zim tuzatib olaman, o'z yurtinga olib ketaman, — dedi meni yupatib.

Uning so'zlariga avval parvo qilmagan bo'lsam ham, keyin quloq solsam, boshqacha, hayrat va ajablanishdan yig'im to'xtab, uning so'zlariga anqayib qolgan edim. Nima deyayotganini anglagunimcha, butun palatadagilarning uyqusi qochib bizga tikilib qolishgan edi. Men nima deyishni bilmasdim, vaziyatni qo'limga olib:

— Erim meni sevadi, men ham uni yaxshi ko'raman, meni mehmonxonaga olib ketmoqchi edi, navbatchi do'xtir ruxsat bermadi, shunga xo'rligim kelib yig'ladim, — dedim.

— Seni yaxshi ko'raman, — derdi u hamon.

Men uni xafa qilmaslik uchun:

— Menga ham siz yoqasiz, akademik, — dedim.

U mening ko'nglimni olmoqchi, ovutmoqchi shekilli desam, "masala jiddiy"ga o'xshardi. Men o'zimni bosib, uning gaplariga chek qo'ygan ovozda:

— Qolganini ertaga gapirishamiz, hozir uxlaylik, — dedim.

U bo'lsa hamon o'z his-tuyg'ulari haqida gapirardi. Shunda navbatchi do'xtir uni imo-ishoralar qilib palatadan olib chiqib ketdi.

Kasalxonada ham xabar radiodagidek tez targalar ekan. Uyqudan tursam, kechqurungi bo'lib o'tgan voqeadan hamma xabardor bo'libdi. Yuraoladigan kasallar meni bir ko'ray, "holi"dan bir xabar olay deb, ochiq turgan palatamizga mo'ralab ketishardi. Ularning menga bo'lgan "e'tibor"lari tu-fayli men bechora shu kunning qahramoniga aylandim. Hatto menga qaraydigan do'xtirim Lyudmila Georgiyevna ham kelib:

— Nima gap? O'rtalaringda muhabbat bormish, — dedi.

Men bo'lib o'tgan voqeani aytib berdim. Aspirantning menga rahmi kelib, gaplarimga ishonib, tezroq tuzalib ketsin degan bo'lsa kerak, dedim. Lekin do'xtirim menga ikkilangan-dek ishonmay qarab turardi.

Nima qilay, qanday o'ylasa uning xohishi deb indamadim, nima uchun o'zimni oqlashim kerak?

Ayam keldilar, bir dunyo oziq-ovqatlar ko'tarib kelidilar. Farrosh xotin voqeani o'zi bilgancha aytib beripti.

— Ha, yana nima gap? — dedilar ayam.

Men voqeani aytib bersam, tashvishlanib:

— Bolam-ey, yotaverib, eringni sog'inib ketib, alamingni yig'idan olibsan-a? Unday qilma, axir endi tuzalib kelayapsan, yaralar qayta ochilib ketsa, nima qilamiz, — dedilar.

— Nima qilar edik, mana menga o'zi tuzatib oladigan "oshiq" yigit topildi, shunga erga bering-da, Toshkentga ketavering, — dedim qiziqchilik qilib. Ayam ikkalamiz mazza qilib kuldik, kulgimiz ma'nosiga tushunmay butun palatadagilar qo'shilip kulishardi.

Shunda... yaxshi kayfiyat ustiga Qudrat akam keldilar. Bo'lib o'tgan voqeani qayta aytib berdim. Ayam allanarsani bahona qilib bizni yolg'iz tashlab chiqib ketdilar.

Qudrat akam o'z zukkoliklari bilan hamma gapga darrov tushundilar. Mening vazifam hech narsani o'yamasdan faqat sog'ayish ekanini aytdilar.

Shu vaqt aspirant kelib qoldi. U Qudrat akam bilan uyalinqirab, qizarib-bo'zarib ko'rishdi. So'ng ular men ovqatlanib olgunimcha hovlida aylanib, gaplashib kelishdi. Ikkalalarining chehrasi ochiq, samimiyl edi. Qudrat akam menga:

— Yaxshi tarbiyali, insofli bola ekan. Men Toshkentdalik vaqtimda Sizga yordam berib, hovlilarga olib chiqib ayamga qarashib turishga va'da berdi, — dedilar.

Qudrat akamlarni aeroportga boradigan vaqtлari bo'lib qolgan edi. Xayrlashar ekanmiz, Qudrat akam:

— Xonim, bu yigitni ham boshini aylantirib o'zingizga "oshiq" qilib qo'yibsiz-ku, biz bechora esingizdan chiqib ketmaylik-a, — dedilar. Ikkovimiz bu hazildan kulishdik.

Hech qanday vaziyat ikkalamiz o'rtamizdag'i men aytib berolmaydigan muhabbatga raxna sololmasligini bilardik.

U Qudrat akamning ketar chog'larida aytgan gaplarini ikki qilmay ayamning men bilan bog'liq ishlariga yordamchi bo'lib qoldi.

U palata eshigida ko'rinishi bilan kasallar:

— “Jenix idyot”, — deyishardi. Mening “jenixim” qal'in ko'zoynakli, uzoqni yaxshi ko'raolmasdi shekilli, yuzlari, qo'llari sepkil, sochlari somondek sap-sariq, bo'ychan, oriq yigit edi.

Ko'p kitob o'qiganidan shoirlaru yozuvchilaru olim-larning asarlarini bilar, har savolga javob topib berardi. Umuman, undan yaxshi olim chiqadiganga o'xshar edi.

U mendan hech yordamini ayamadi, ko'ngli toza yigit meni o'zimga ishonishimga yordam berdi. Menga boshqa sevgi haqida gapirmadi, uning mehribonchiliginu unutib bo'lmaydi. Men sog'ayib uya, Toshkentga ketayotganimda adresini berayotib:

— Menga hayoting haqida xat yozib turgin, mening yordamim kerak bo'lsa... Yo'q, mening yordamim kerak bo'lmaydi, seni ering shunday yaxshi ko'radi, — dedi-da, — baxtli bo'l, — deb qo'shib qo'ydi.

Men Toshkentga qaytib, ancha vaqt o'tgach, unga xat yozib, menga qilgan butun mehribonchiliklariga rahmat aytay deb, yozib bergen adresini qidirib topa olmadim.

Yana Moskvaga do'xtirlarimni ziyorat qilgani, konsultatsiya uchun borganimda, uni so'radim. U nomzodlik dissertatsiyasini vaqtidan ilgari bajarib yurtiga, Ukrainaga jo'nab ketgan ekan. Adresini hech kimga bermagan, surishtirib topib berisha olmadi.

Lekin biror odam birovga chin ko'ngildan, hech narsaga ilinj bog'lamay yaxshilik qilsa, yaxshi ko'rsa, minnatdorchilik bildirib, rahmat aytishning kechi yo'q. Mening bu xotirlarim o'sha mungli kunlarimda yonimda bo'lganlarga tashakkurimdir.

Ular ham doim mening yodimda.

OTA HUQUQI BILAN

Ertalab sochimni yuvib fenda quritib o'tirsam, to'rt yashar nabiram Shohruh yotog'imga kirib qoldi.

Salomlashdik, sochimni avval siladi, ushlab ko'rdi (oynadan ko'rib turibman) so'ng uchidan boshimgacha o'pib chiqdi.

Mening yuragim allanechuk uvishib ketdi... Yig'lab yubormay deb, o'zimni zo'rg'a tutib undan so'radim:

- Sochim yoqadimi?
- Ha.
- Isi (u hidlarga o'zimga o'xshab sezgir) yaxshimi?
- Juda, — dedi cho'zib.
- Sen sochni yaxshi ko'rasanmi?
- U "ha" ishorasini qildi.
- Unda seni sochi uzun qizga uylantiramiz.
- Men o'ynalganman-ku.
- A... u kim?
- Zumyat...
- Zumrat opang-ku.
- Bo'lmasa Suyayyo.
- Surayyo ham opang, amakingni qizi.

Shohruh o'ynab yurish bilan uylanishni farqiga ham bormas edi.

— Yo'q, sen katta dadangdek bo'lasan, o'shanda ayangdek chiroyli, sochi uzun kelin olib beraman deyapman, xo'pmi, — desam, gapni tagi tugiga ham yetmay "ha" ishorasini qilib, yuguriб xonadan chiqib ketdi...

Ayollar sochini dadam yaxshi ko'rар edilar, umr yo'ldoshim ham nabiramdek silab qo'yar edilar, o'g'il-qizlarim ham sochimni yaxshi ko'rishardi.

Nasl suribmi, chehrasi dadamga o'xshab ketadigan nabiram Shohruh ham sochni yaxshi ko'rар ekan...

Taajjub qilaman.

Bu bo'lib o'tgan voqea yoshligim, bolaligimni eslatdi... Bolaligimdan meni sochim muammo bo'lar edi. Uni yuvish, o'rish ayam uchun qiyin bo'lgan, ko'pligidan taroq o'tmas edi.

Ayam zo'rg'a uni piliklar solib, jamalak qilib, o'rimga kirgizganlar. So'ng ost-ust, 40 kokil bo'lsin deb, janjal

qilardim. Mayda o'rilgan sochimni yechilib ketmasin deb, uchini qora ipak bilan chatib yoki pilik solib qo'yari edilar.

Uyimizda o'g'il bolalar ichida o'sganim uchunmi to'polonchi edim, yugurib o'ynaganlarimda sochim yechilib, yuzim bilan bitta bo'lib ketardi. Akalarim "opala-opala" deb masxara qilishardi.

Sochim to'zib ketganida dadam, "yomon otga yol bitar", deb kular edilar.

Sochimni hech eplay olmas edim. Sochimni yuvishni o'zi har gal bir mushkul ish bo'lar edi. Hali kichkina qiz bo'lqanimda soch yuvishimda dadam ham ishtirok etar edilar.

Meni kichkina kursiga turg'izishar, dadam bosimdan suv quyib turar, ayam sovun, qatiq, o'smalar bilan yuvar edilar. Menga qolsa ayamlar meni sochimni yulish uchun boshimni yuvsalar kerak, deb o'ylardim-da, "og'ridi" deb yig'-lardim, shunda dadam asabiyashib:

— Muhamramxon, sal sekinroq tarang, og'riyapsiz, sochi yulinyapti, — derdilar.

Menga jon kirib, battar o'jarlik qilar edim, so'ng ayam asabiyashib:

— O'zingiz qarang, chigallagini, sochiga tugun tushadiya, bitta teshikdan o'nta soch chiqqanmi, taroq o'tmayaptiku, — derdilar sochimni battar tortib tarab...

Men uvillab yig'layman, dadam asabiyashib, chapishtirilgan suv qolib, adashib bosimdan issig'ini quyib yuboradilar, ayam sochimni yilib-yilib taraydilar, ana undan so'ng yig'lashni ko'ring, ular bir amallab bosimni yuvib olishadi.

U soch katta sochiqlarga, choyshablarga o'rabi kun quritilar edi.

Ayam bilan dadam o'sha kuni charchab, ancha vaqt dam olishar edi.

Shu sabab bosim bir haftada bir marta dam olish kuni yuvilar edi. Undan ko'piga ayam-dadam larning asablari chidamas, meni esa majbur qilib bo'lmasdi.

Xayriyat, ancha katta qiz bo'lib, sochimni ayam ikkalamiz yuvadigan bo'ldik. Ayam:

— Katta qiz bo'lib qolding, endi sochingni yuvayotganda "dada" deb yig'lama, uyat bo'ladi, — dedilar...

Dadam qayerga borsalar, sochimga xil-xil lentalar olib kelar edilar. Ayam sochimni chiroyli qilib o'rib, o'sha lentalar ni ikkita loladek qilib chakkamga bog'lab qo'yar edilar.

Hamma o'rtoqlarimning sochimni o'rilganiga havaslari kelar, lekin uni yuvish, o'rish azoblarini bilishmasdi.

Universitetda o'qiy boshlaganimda ko'pgina dugonalarim sochlarini yangicha rusumda chiroyli qilib turmaklaydigan bo'lishdi.

Mening ularga havasim kelib, "modniy" bo'lgin kelardi, chunki uzun sochimni turmaklab ham bo'lmasdi-da,

Sochimni yuvib quritishga ko'p vaqt ketishini, ba'zan yuvGANIMDA boshim og'rib qolishini, qiynalishimni vaj qilib, dadamlarga:

— Dada, men ham sochimni qirqay,— desam.

— Mosh, endi katta bo'lding, studentsan, meni "Momoi gisu naburida" maqolamni o'qigin va o'zing xulosa chiqarib, bu haqda boshqa gapirma, — dedilar.

Universitetni bitirish arafasida 1 may bayrami kuni edi. Kursdoshlarimiz bilan "toqqa, lola sayliga" G'ishtko'prik atrofiga bir avtobus bo'lib borib, dam oladigan bo'ldik.

Kechqurun sochimni yuvgan edim, kechasi bilan quridi, ertalab vannaxonadagi oynaga qarab uni tarasam, peshonadagi mayda sochlar ko'payib, o'rimga kirmay, har tomonga shox bo'lib chiqib ketaverdi. Ko'zgu tagida qaychini ko'rib, tekislay dedim-da, qirqa boshladim. Qirqib-qirqib "chyolka" qilib qo'yibman, jingalak qilib tarasam, yarashgandek bo'ldi. Meni kursdoshlarim kutishayotgan edi, kechikayotgan edim. Ketayotganimni ayamga aytdimu dadam paraddan qaytmagan edilar, kelishlarini kutmay ketaverdim.

Ayam, Oliya opa (enaga) bayram dasturxoni bilan band, meni sochimga qarashga vaqtłari ham bo'lmasdi.

Sayilga bordik, kechgacha qizlar bilan rosa o'ynadik, bir-birimiz bilan "muhabbat" haqida maza qilib yonboshlashib gapirishdik. Kursimizdagи yigitlar kabob, osh qilib, bizga o'z "san'at"larini ko'rsatishdi. Soat to'rtlarda uyga qaytdik.

Eshikdan kirsam, dadam gilos tagidagi so'ri yoniga qo'yilgan stol atrofida kresloda choy ichib gazetalarni varaqlar edilar.

Men salom berdim, bayram bilan tabriklab, orgalaridan achiomlab, yuzlaridan o'pmoqchi edim, qo'llari bilan to'sdilar.

Hech bunday qilmas, har doim mendan oldin qayerlaridan o'pishim kerakligini ko'rsatkich barmoqlari bilan ko'rsatadigan dadam shunday qilganlariga hayron edim.

Nima "gunoh" qildim ekan, bilmayman, dadamning keliishlarini kutmay ketganimgamikin deyman, oqshom ruxsat so'ragan edim-ku, ayamga aytgan bo'lsam, deyman.

Dadamni u yoqlaridan-bu yoqlaridan o'taman, hech gapirmaydilar.

Oxiri yuragim siqilib "uh" tortib yubordim.

— Choyingni ich, — dedilar.

Men gapirdilar dedimu, so'ramasalar ham bulbulgo'yo bo'lib, sayilda bo'lgan voqealarni harakatlar bilan aytib berdim.

Har doim kursimizda bo'lgan voqealarni qiziq-qiziq qilib aytganimda:

— U nima dedi, sen-chi, — deb qiziqib so'raydigan dadam indamay gazetaga qarab o'tirar edilar.

Men bilan gapirishgilar, meni ko'rgilari kelmayotganini sezib turar edim.

Shunday qilganlarida mendan choy o'tarmidi.

Eng yomon ko'rgan ishim birovning mendan arazlashi, mendan xafa bo'lishi edi. Men o'zim bir narsadan xafa bo'lsam, uzoq xafa bo'lib, ko'nglimga g'araz tugib yurolmasligimni dadam yaxshi bilar edilar.

Men nima qilarimni, nima deyarimni bilmayman, dadamni hech ranjitgim, xafa qilishni xohlamayman-ku, nima balo qildim ekan, deyman.

— Dadajon, gazetalarda she'ringiz chiqibdi, o'qib beraymi, — deyman, indamaydilar.

"Oyog'ingizni yuvib qo'yay (men oyoqlarini yuvishimni yaxshi ko'rardilar), tirnoqlaringizni tozalab qo'yay" deyman, indamaydilar.

Yuragim siqilib, yig'lab yuboray deganimni bildilarmi:

— Sochingni qirqdingmi? — dedilar hech gap bo'lma-gandek ovozda.

Men ham chyolkam (gajagim) dadamga yoqdi shekilli deb o'yladim-da:

— Ha, ozgina oldini, yarashibdimi? — dedim.

Dadam g'ijinib ketdilaru indamay o'zlarini bosib yon cho'ntaklaridan bir narsani oldilar. U oppoq xitoy qog'oz edi. Asta ocha boshladilar (men o'layman, obbo, yana menga kelgan bivor muhabbatnomamikin, bivor behayo she'rлarmikin), unga ertalab men qiymalab tashlagan va shoshilib yig'ib ketmagan sochlarim saranjomlab yig'ib, o'ralgan edi. Kayfim uchib ketdi, bilmayman, qay ahvolda edim, ko'zim to'rt burchak bo'lib jingalak qilgan chyolkam to'g'ni bo'lib osilib qolgandek bo'ldi. Jazoni kutardim...

— Senga soch kerakmasmi? Bu sochlaringni o'stirguncha, o'rimga kirgizgungacha onang ikkalamiz nimalar qilmadik? Qirqishdan ilgari shularni o'ylasang bo'lmasmidi? Chiroyligini qara...

Rostdan ham, oppoq xitoy qog'ozda kesilgan sochlarim qop-qora bo'lib, himralib uchqunlanib yotardi.

Qani endi shu sochlarimdan, shu topda bir arqon eshilib, o'zimni ossamu dadamni oldilaridagi xijolatdan qutulsam.

— Dadajon, sochim tez o'sadi, yaqinda qirqqanim bilinmay ketadi, xafa bo'lmanq, — deyman...

Dadam bo'lsalar, xitoy qog'ozdagи sochlarimni lablariga tekkizib, qayta o'rab, ko'krak cho'ntaklariga solib qo'ydilar.

Etim jimirlab, dadamni ayamlarga yozgan she'rлaridagi "soching yulug'idan tuzoq bog'labon", menga ataлgan "qizimning qaro sochlariga bo'lsin deb shona" degan ajoyib misralar bekorga yozilmagan ekan. Dadam sochlarimizni shunchalik yaxshi ko'rар ekanlar, degan fikr bir zum xayolimdan o'tdi.

Dadam bir oz sukutdan so'ng:

— "Momoi gisu naburida"ni o'qiganmisan? — dedilar.

Men yerdan ko'zimni uzmay "ha" ishorasini qildim.

— Illoyo hech ayollarning sochi hech o'shandaqa qirqilmasin, — dedilar.

Qani edi... qani edi, o'sha vaqt qaytib kelsa-yu, men dadamni hech-hech xafa qilmagan bo'lsam edi...

Sochimni yana bir marta dadam vafot qilganlarida yoyib motam tutganimda, ko'nglim kabi yozilmas chigal bo'lib ketganidan, yarmini qirqib tashlaganman...

ZIYOFAT

Vaqeiy hikoya

Bahor oxirlab, yoz boshlanay deb qolgan. Uyimizda gilosu o'riklar g'arq pishgan, hammayoq ko'm-ko'k. Gullar did bilan ekilgan, chaman bo'lib yotipti. Atirgullarning isi bog'imizni tutib ketgan.

1957—58-yillar bo'lsa kerak.

Dadam ayamga Zulfiya opam sharaflariga ziyofat ber-moqchi ekanlarini aytib, kimlarni taklif qilish, vaqtini ikkovlaringiz belgilanglar, deptilar.

Dadamning Zulfiya opamlarga bo'lgan munosabatlari akaning singilga bo'lgan munosabatidek latif edi.

Avvallari, Hamid aka hayot vaqtlarida do'stining umr yo'l doshiga bo'lgan hurmat-izzat, u kishidan so'ng dard ularni yana ham yaqinlashtirgan, aka-singil qilib qo'ygan edi.

Dadam ko'ngilchan, mehribon inson bo'lganlari uchun Zulfiya opamni ayar, farzandlariga otalarcha g'amxo'rlik qilib kelardilar. Agar safarlarga borsalar, bizga sovg'a olsalar, albatta, Hulkar bilan Omonga ham qo'shib olar edilar.

Zulfiya opamlar bilan safarlarga birga borishganida har doim akalik iltifoti bilan yordam berardilar. Zulfiya opam xuddi ammalarimdek yaqin kishim edilar...

Shunday qilib, uyimizga har galgidek mehmon keladigan bo'ldi.

Bu mehmonlar dadamniki emas, Zulfiya opamlarniki edi, shuning uchun boshqacha kutish kerak edi. Ular zamonomizning eng ilg'or, nozik didli ayollari edi.

Uyimizda bu mehmondorchilikka alohida tayyorgarlik ketar edi. Oppoq qo'y olib kelib so'yildi. Obistoylar (tatar kampirlar) chaqirtirilib Oliya opa (enagamiz) rahbarligida chak-chak, qush tili, balish pishirtirildi. Tamaraxonimning opalari Amaliya xonim kelib tort, pechenyelar pi-shirdilar. Ayollar yoqtiradigan shirinliklaru muzqaymoqlar buyurtirildi.

Kelinoyim — ismlari jismlariga monand Dildorxon bilan birgalikda dasturxonga zeb beramiz. Har bir qilayotgan

harakatimizni ayam kuzatib, hech kamchilik bo'lmasin, deydi.

Somsa, patir, lochira, norin, manti, xasip, oshni ayam hech kimga ishonmay buvum Hamroxonbegim bilan qilishardi.

Dadam hamma ishga bosh-qosh, hatto guldasta yasashdan tortib salatlarga solinadigan masallig'igacha ta'mini ko'rib berardilar. Dadamning mehmon kutishda didlari juda baland, pista-bodomlarning necha xilini Urgut, Samarqand bozoridan ko'plab xarid qilib, g'amlab qo'yar edilar. Dasturxonning bezagi — suhbat ularsiz qovushmaydi, derdilar.

Uyimizning ikkinchi qavatidagi mehmonxonada dasturxon taxt bo'ldi.

Dadamlarning ishxonalarida o'yin-kulgu uchun joy tashkil qildik. So'ng Zulfiya opam keldilar, tantanavor tayyor-garliklarni ko'rib quvonib ketdilar. Birin-ketin aytilgan mehmonlar kela boshlashdi.

Men ko'p yillardan beri bilganlarim: Halima Nosirova, Mukarramaxonim, Oydin opa, Muzayyana opa, Sora Eshonto'rayeva, qo'shnimiz Vasila Sodiqova, o'qituvchim — Zulfiya opamning dugonalari, olima Saida Narzullayeva va yana olima-fozila, biri-biridan go'zal ayollardan 15—16 nafari jam bo'lishdi.

Dadam har birlarini alohida izzat-ehtirom bilan kutib oldilar. Ayam shirin so'zlar, lutf bilan ularni dasturxon atrofiga taklif qildilar, biz xizmatda edik.

Dadam shunda Zulfiya opamga va mehmonlarga latofat bilan qo'l qovushtirib:

— Xush kelibsizlar, aziz singiljonlarim! Endi bahuzur o'tiringlar. Men darvoza oldida turib, nainki erkak zoti, balki erkak pashshani ham o'tkazmay o'zim qorovullik qilaman. Xizmatingizda bo'laman, — deb chiqib ketdilar.

Ayam mehmonnavozlikni latofat, ibo to'la so'zları bilan davom ettirdilar. Hamma so'z, sharaflar Zulfiya opam uchun ekanini aytib, davrani olib borardilar. Mehmondorchilikka tayyorlangan nozu ne'matlarni birin-ketin olib kirdik. Har bir mehmonga alohida e'tibor, istagan ichimligu taomidan ilinib iltifot ko'rsatish men va kelinoyimning vazifamiz edi.

Hamma erkin, bir-birini taniydigan, hamfikr ayollar dasturxonidan so'ng dam olish maqsadida o'yin-kulgu uchun ajratilgan xonaga kirishdi.

Zulfiya opam yangi yozgan she'rlaridan yod o'qib berdilar. Zulfiya opamning quvvai hofizalari keng: Fuzuliy, Lutfiy, Xo'jandiy g'azallarini ham yod bilar edilar. Shulardan o'qidilar. Hamma mehmonlar ofarin aytishdi.

Gal Halimaxonimga keldi. U kishining qo'ng'iroqday ovozlari butun Arpapoya ko'chamizni tutib ketdi.

Mukarramaxonim bu kuydan junbushga kelib o'rta ga chiqib raqsga tushib ketdilar. Hamma jo'r bo'lib qiyqirib chapak chalishadi. Halimaxonim opa tarelka chertadilar. Qo'shiq raqsga ularni, ayollar rosa ko'ngil yozishdi.

Sora opa "Guli monologi"ni aytib berdilar. Shu top Zulfiya opam:

- Akam o'zları ham ashula aytib bersinlar, — dedilar.
Dadamni aytib chiqdim.
 - Xo'p bo'ladi, qaysi qo'shiqnı aytay, — desalar, Zulfiya opam:
 - "Yo'l bo'lsin-ey, yo'l bo'lsin"ni, — dedilar.
- Dadam dutorni sozlab, baland-past pardalarni nolitib shirali, yoqimli o'zbekona mardona qilib aytayotgan ashula hammani o'ylantirib, sel qilib yuborgan edi.
- Qo'shiq tugagach, ashulaning mazmuni, ohangi mehnalarni xomush qilib qo'ygandek edi. Shunda dadam:
- Endi samarqandcha laparga Mukarramaxonim o'ynaydilar, — dedilar.

E, qand yesang kissamga-e,
 qandolatiga qarzim bor,
Aroqini ichvolib-a,
 amiringga arzim bor.
E, qand yesang kissamga-e,
 qandolatiga qarzim bor.
Aroqini ichvolib-o,
 jononchangga arzim bor-e.
Ha, tayla, tayla,
 tayla-yo,
Etagingni yerga tayla!

Mukarramaxonim samarqandcha qilib tizzalab hammaga muqom qilib Sora opani, ayamni, kelinoyimni o'rtaga tortdilar. Rosa chapak, qiyqiriq bo'ldi. Muzayyana opam dadamga:

— G'afur aka, shuncha qishloqlarda yurib biz eshitmagan xalq termalarini Sizdan yozib olarkanmiz-da, — dedilar.

— Singlim, bu erkaklar ichida aytiladigan lapar-da, — dedilar. — Siz eshitmagan bo'lishingiz mumkin.

O'yin-kulgu, mehmondorchilik fonarlar yoqilguncha da-vom etdi. Dadamning Zulfiya opa sharaflariga bergen ziyofatlari shunday o'tgan edi.

Shu ziyofatda qatnashganlarning ko'plari rahmatli bo'lib ketishdi.

Inson umri boqiy emas ekanu xotira boqiy ekan. Shuning uchun tiriklikda inson bir-birining qadriga yetib, avlodlar eslab yuradigan go'zal xislatlarga ega bo'lishi kerak ekan-da.

SAYOHAT

Qo'qon

Bo'yim o'sibmi, bilmadim, bahor-kuz vaqtłari oyoq-qo'lim kechalari og'rib chiqadigan bo'ldi. Og'riqni bosish uchun sochimdagи lentalarni bir-biriga ulab chambarchas qilib oyog'imga, qo'limga bog'lab qo'yib, kechasi dadam o'qima degan kitoblarni berkitib o'qiyan. Tomda chiroqni ko'rib: "Yarim kechada nega chiroq yoniq", deb chiqsalar, men kitob o'qib yotibman.

— Yana uxlamay kitob o'qiysanmi? — Qo'l-oyog'im chambarchas qilib bog'langanini ko'rib: — Nega unaqa qilib bog'lab tashlading, — deb so'radilar dadam.

— Og'riyapti, uxlay olmayapman, — dedim kitobni berkitib.

— Nega, shamollaganmisan?

— Yo'q, o'zi kechadan beri og'riyapti.

Dadam qo'llarimni qo'llariga olib diqqat bilan qaradilar, lentalarni yechib tashlab:

— Unday qilma, — dedilar, keyin: — Uxla, — deb chiroqni o'chirib, chiqib ketdilar.

Men yana chiroqni yoqib, kitobni qolgan joyidan o'qib, tugatdim-da, so'ng uxbab qoldim.

Soat o'nлarda dadam yana tomga, mening yotog'imga chiqib:

— Tur, bo'ldi, kiyin, Maqsudovga olib boraman, — dedilar.

— Nega, kasal emasman-ku, — dedim.

— Kechasi bilan qo'l-oyog'ing nega og'riydi? Hali bola bo'lsang...

Eskijo'vadagi Maqsudov do'xtirnikiga kirib bordik.

Maqsudovning dong'i ketgan, ixlosmandlari juda ko'p, eshididan odam arimasdi.

Maqsudov amaki qo'l-oyog'imni, bo'g'inlarimni ushlab ko'rib, dadamga:

— Hech qanaqa kasali yo'q, soppa-sog' o'sayapti, — dedilar. — Tomog'idan xavotirda bo'lsangiz, Chortoqqa olib boring.

— Qiz bola ona bo'lishi kerak, sog'lig'ini o'yayman, — dedilar dadam. Yana so'z o'yini bo'ldi shekilli, kulishdi.

So'ng uyga qaytdik.

1958-yili men dadam bilan mashinada, ayam Toshxon bilan samolyotda Qo'qonga, so'ng Andijon, Farg'ona, Namanganga boradigan bo'ldik.

Dadam juda saranjom odam edilar, mashinaning orqasi-ga hamma narsalarni — oziq-ovqat, kiyim-boshni (suv, tuzdan tortib hamma narsani) soldirdilar.

So'ng, qaydasan, Qo'qon, deb yo'lga chiqdik. Yangyo'lga kelgandayoq to'xtab, Abdulla Ortikovni ko'rmoqchi bo'ldilar. Hovuz bo'yiga joy qilishdi. Birpasdan so'ng Abdulla aka keldilar. Dadam Abdulla akani go'yo mezbondek kutib oldilar. Salom-alikdan so'ng, gurung boshlashdi. Men atrofni tomosha qila boshladim. Ular nimalarnidir gapirib kulishardi. Bir muddatdan so'ng Mustafo meni chaqirdi, yana yo'lga chiqayotgan ekanmiz. "G'afur aka, 45 minutda pishadigan osh qilib berar edim, nega shoshilayapsiz", dedi Abdulla aka.

— Bugun Qo'qonga yetib olishim kerak, kelinoyingni samolyoti shu bugunga edi, hali Rahim Jalilnikiga ham o'tishim kerak, xavotir oladi. Qaytib kelay, kelinoying, bolalarni olib kelib o'zim osh qilib beraman, — dedilar.

Hamma bilan xayrlashib, yana yo'lga chiqdik. Havo mu-saffo. Yo'llar ravon. Hammayoq ko'm-ko'k, salqinda O'ratega orqali Xo'jandga yetib olish kerak. Ertalab vaqtli turganim-gami yoki mashina bir tekis tebranib yurganigami, yo'lda uxbab qolibman. Bir mahal dadam uyg'otdilar.

— Bo'ldi, ko'p uxlama, boshing og'riydi. Hozir katta anhor keladi, to'xtaymiz. Yuz-ko'lingni yuvib olasan. So'ng bozorga kirib sovg'a olamiz, — dedilar.

Birpasdan keyin sharqirab oqib turgan ariqqa yetdik. To'xtadik. Ariq yaqinida chayla. Sochiqni olib, ariq tomon yurdim. Ariq shunaqa tiniq ediki, tubidagi har bir tosh ko'rindari.

Atrof yam-yashil dala, qing'ir-qiyshiqlangan tutlar. Azim teraklar osmon o'pib, rohatlanib chapak chalyapti. Anhoring toshdan-toshga urilib sharqirashidan boshqa ovoz yo'q.

Yana yo'lga chiqdik. Xo'jandning gavjum, usti yopiq ikki qavatli bozoriga yetib keldik.

— Yur, sovg'a tanlab berasan, — dedilar dadam.

Endi bilsam, sovg'a qilgan odam ko'proq xursand bo'lar ekan. Do'ppi, jiyak, taroq, bir-ikki kiyim Xo'jand atlasi, ipaklar, bolalarga hushtak, qizlarga uzuk, bilaguzuklar, meva-cheva xarid qildik. So'ng Qistako'z choyxonasiga kelib qo'ndik. Dadam: "Xo'sh omaded, birodaron Abduqahhor", deyishlari bilan baland bo'yli, keng yag'rinli, qo'sha belbog'lar bog'lagan, boshiga gul kokilli do'ppi kiygan, o'rta yoshli erkak chiqdi-da, dadam bilan quchoqlashib ko'rishdi.

Abduqahhor polvon darhol dasturxon yozib, patnisda non, qand-qurs olib kelib oldimizga qo'ya boshlagan edi, dadam:

— Jo'rajon, bizga ko'p ovora bo'l mang, bir ho'plam sho'rva ichib yo'lga tushamiz, — dedilar. U xo'p ma'nosini qilib, qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

Bir zum ham o'tmay chirolyi sho'rva, bir lagan go'sht olib keldi. Sho'rvadan ishtahani qo'zg'atib jambilning isi taralib turardi.

— Sho'rvani ich, — dedilar.

Shu tob anchagina yosh-yalanglar kelib uzoqdan dadam bilan salomlashishdi. So'ng yana boshiga ro'mol yopingan qiz-juvonlar kelib so'rilarga o'tirishdi. Men tushlikka kelishgan,

deb turgan edim. Yana bir guruh o'rtta yoshli zabardast, do'ppi kiygan erkaklar kelishib dadamga salom berishdi.

Dadam odamlar to'planib turgan joyga borib, har biri bilan so'rashib chiqdilar.

Keyin o'z-o'zidan uchrashuv tashkil bo'ldi. Hamma xursand, dadam tojikcha gapiryaptilar. Ular o'zbekchalashyapti. Men dadamning ko'pgina uchrashuvlarida qatnashgaman, lekin bunaqangi samimiyat bilan o'tgan suhbatni, gaplarini tashnalik bilan eshitishganini ko'rmagan edim. Yig'ilganlar, she'r o'qib bering, deyishdi. Dadam avval Rudakiy, Hofiz, Bedil, Tursunzoda she'rlaridan aytdilar. Hamma to'planganlar hayrat bilan eshitishdi. So'ng o'z she'rlaridan o'qidilar.

Jo'ra polvon to'planganlarga bir nima dedi shekilli, hamma rahmat aytib, o'rnidan qo'zg'aldi.

Bizni, mashinamiz ko'zdan g'oyib bo'lguncha, kuzatib qolishdi. So'lim bog'larni, Yakkaterak, Ko'kterak, Mingtut degan joylarni bosib Dang'araga, undan o'tib Qo'qon aeroportiga keldik. Dadam ichkariga kirib ketdilar. Birpasdan keyin samolyot qo'ndi. Toshxon, Xondamir, ayam trapda ko'rinishdi.

Hammamiz yana boshqatdan, ancha ko'rismagan odamlardek ko'rishdik. Dadam gullarni ayamga, Toshxonga berdilar. Toshxon, ayam, Xondamir, men mashinaning orqasiga, dadam Mustafoga amaki yoniga o'tirdilar, keyin ayachamlarnikiga, "Kommuna - 38"ga ketdik.

Borsak, Yoqubjon tog'a ko'chaga suv sepayotgan ekanlar. Ayacham oshxonada, xolam, bolalar uyda ekan. Bizni ko'rib, birpasda hamma xursand bo'lib ketdi.

Hammamiz ishkombi tagida o'tirib ovqatlandik. So'ng so'riga o'rın solish marosimi boshlandi.

Bolalar ko'rpa, yostiq tashishdi. Xondamir, Hayotxon, Rashatxon, Muhabbatxon, Ponchikxon, Dilzodaxon — hamma xursand, Toshxon, men yordam beryapmiz.

Qizlarga pashshaxona tutishdi. Dadam ayvonda yotaman, dedilar. Dadamga baland qilib to'shaklar ustidan yangi ko'rpalari, oq choyshablar to'shab, baland yumshoq parqu yostiqlar qo'yib berishdi.

Biz – bolalar so'rida. Ayam ayacham bilan birga boqqa chiqib ketishdi. Bizlar allamahalgacha qiziq gaplarni gapirishib, qiqir-qiqir kulardik.

Oxiri dadam:

– Endi uxlanylari, — dedilar sal jahllari chiqqan ovozda. Biz yana anchagacha Dilzodaxon bilan gaplashib, uxbab qolibmiz.

Ertalab quyosh yoyilib, ishkom isib ketgan ekan.

Dadam tongdayoq bozorga boriptilar. Qo'qonning kalla go'shtidan tortib, bor meva-chevasidan olib keliptilar.

Tongda Qo'qonni tomosha qilib, bor yangiliklarni bilib, tanish-bilishlardan xabar olib, Muqimiy mozorini ziyorat qilishga ham ulguribdilar.

Kunduzi Qo'qonda havo issiq, nafas olish qiyin bo'ladi. Ba'zan qayerdandir garmesel kelib qoladi-yu, hovli-bog'lar, xiyobonlarni chang, qum, barg-xaslarga to'ldirib ketadi.

Ana o'shanda, biz qizlar, tog'amning ichkari-tashqarilik hovli, darvoza oldini suv sepib, kim o'zarga supuramiz. Dadam hammani rag'batlantiradilar.

Oqshom Husanjon akamnikiga borsak, hammayoq saranjom, hovlilar salqin qilib suv sepilgan. So'riga joylar solingan.

Yarim kechagacha mehmon bo'ldik. Dadam, ayam, Husanjon aka, kelinoyim bilan allamahalgacha o'tgan-ketgandan gapirishib o'tirishdi.

Ertalab tursak, savatlarga shaftoli, uzum, olxo'ri, ko'katlar did bilan taxlab qo'yilibdi.

— Hali tushda Charxiy domlaning hujrasiga boramiz, — dedilar dadam. — Ertalab kirib o'tgan edim (Husanjon akamning eski uylari joylashgan ko'cha boshidagi masjidning bitta hujrasi Muqimiyniki edi. O'sha yerda domlai Charxiy shoir chirog'ini yoqib o'tirar edi).

Xondamir, Toshxon, Muyassar, Amir, Rustam birin-ketin uyg'onishdi.

Ertalabki choydan so'ng, dadam bir dasta gazetalarni olib, salqin xonaga kirib ketdilar. Dadam dam olganlarida tin-chlikni saqlash bizning odatimiz edi.

Soat o'n ikkilar bo'lib qolgan edi. Men, ayam, Nafisa-xon kelinoyim bilan so'ridagi joyni yig'ib oldik. Bolalar ko'chaga chiqib ketishgan edi.

- Ayasi, opasi, bolalarni chaqiring, kiyinishsin. Charxiy domla kutib qolmasinlar. Tezroq bo'linglar, — dedilar.
- Kim-kim boramiz? — deb so'radilar ayam.
- Hammamizni kutyapti. Husanjon oilasi bilan va biz oilamiz bilan boramiz.

Hammamiz otlana boshladik.

Ko'cha boshidagi masjidning yarmidan ko'pi atlas fabrikasiga berilgan ekan. U masjidda bir vaqtlar Muqimiyning hujrasi bo'lgan.

Bizni Charxiy domla (dadam "Mavlono Charxiy" deb chaqirardilar) kutib oldilar: boshlarida do'ppi, bellarida belbog', egnilarida oppoq yaktak.

Ayamning aytishlaricha, Charxiy domla ayam bilan dadamning to'ylarida ham ishtirok etgan va mashshoqlar olib kelgan ekanlar.

Dadam va Charxiy domlaning do'stliklari 30-yillardan boshlangan ekan.

O'sha-o'sha Charxiy domla va dadam bir-birlari bilan yaqin do'st, ijodiy hamkorlikda she'rlar ham yozishar edi.

Agar Charxiy amaki Toshkentga kelsalar, biznikida to'xtar, dadam agar Qo'qonga borsalar, domlani ko'rmasdan, ulfatlashmasdan ketmas edilar. O'sha hujrani saqlab qolishda ham dadamlarning hissalari katta bo'lganligini aytishadi.

Charxiy amaki xushfe'l, hazilkash, juda oljanob odam edilar. Bizni kichkina hovli orqali kiriladigan hujraga boshladi. U yer Muqimi davridagidek saqlangandi.

Hujra hovlisi top-toza, atirgul, shoyigul, rayhonlar ekilgan.

Hujra uncha katta emas, qo'qoncha tokchalarda eski kitoblar, taglik. Hujra etagida obrez, chap tomonda o'choq, u yerda qozon osilgan, xontaxtada dasturxon yozilgan.

Hujra hovlisi top-toza, atirgul, shoyigul, rayhonlar ekilgan.

Hujrada hech qanday dabdabali narsa yo'q, sodda, ko'hna obdastalar, choydishlar... Qoziqda Muqimiyning eski to'ni osig'liq.

Hujrada qandaydir bir ruh kezib yurgandek tuyulardi. U yerda o'tirib dam olyapmiz...

Dadam mavlono deb izzat ko'rsatsalar, Charxiy domla ustoz deydilar, bir-birlariga shunday hurmat bilan murojaat qilishardiki, kishining havasi kelardi.

... Dasturxonga sho'rva tortildi.

Dadam: "Mavlono "G'afur xo'plamadan" o'tkazib yubo-ribdilar, juda mazali bo'libdi", dedilar. Shunda Charxiy amaki, "Yo'g'e-yo'g'e, ustoz, bizni bilim hali ibtidoiy", deb bir hazil qildilar, rosa kulishdi.

Husanjon aka zerikkan ukalarimni fabrikani tomosha qildirgani otib chiqib ketdilar. Men ham ayam, dadamni Charxiy amaki bilan qoldirib chiqib ketdim.

Atlas fabrikasida ukalarim rosa mazza qilib o'ynashdi. Ularga mehmon deb hamma dastgohlarni ko'rsatishdi.

Qaytib kelganimizda Charxiy domla osh suzib kirdilar. Ketar vaqtimizda Charxiy domla bilan dadam yana hazil to'rtliklar aytishdi. Ayam, Husanjon aka, kelinoyim kuli-shardi.

Keyin dadam bir varaq qog'ozga allanarsalar yozdilar va menga: "Bor, anavi shoyigulni uzib kel", dedilar. Men bo'rib hujra hovlisidagi gullar ichidan shoyigulni uzib, dadamga olib kelib berdim.

Dadam quyida keltiradiganim esdalik nomani yozib, shoyigulning yaprog'ini ezib, suvini bosh barmoqlariga sur-kab qog'ozga bosdilar-da, o'qib berdilar, tagiga ayamga qo'l qo'ydirdilar...

"1958-yilning 26, 27, 28, 29-iyulida Qo'qonda edik. 29-iyul seshanba edi. Shunda Muqimiyl hujrasiga keldik.

"Jilovxona"da issiqdan qochib xiylagina choy ichdik. Mavlono Charxiy qo'qonvor iltifotlar bilan kutib oldilar. Ko'p xursand bo'ldik. Bu ziyoratda men bilan birga kamina-ning mahramalari Muharramxon, qizim Olmosxon, Tosh-xonbeka, o'g'illarim Husanjon, Mirzo Xondamir, kelinim Nafisa, nabiralarim Mirxon, Rustamjon ishtirok qildilar. Mazkur voqeа chin ekaniga hujra sahnidagi shoyigul yaprog'ini ezib, barmog'im bosdim.

*G'afur G'ulom,
29. VII—1958-yil.*

Rishton

Ertasi 30- iyul kuni dadam barvaqt turib choy ichib bozorga keti ptilar.

Ayam bizni uyg'otar ekanlar:

— Tezroq turib choylaringni ichib olinglar, hozir dadang kelib qoladilar, yana yo'lga chiqamiz, — dedilar.

Dadam bozor qilib kelganlarida men, Toshxon, Xondamir yo'lga chiqishga tayyor edik.

Husanjon aka, Nafisa kelinoyimlar, Muyassar, Amir, Rustam jiyanlarim bilan xayrashib mashinaga chiqdik. Endi Rishton orqali Farg'onaga o'tishimiz kerak edi.

Ertalabki musaffo havoda Qo'qondan Rishton tomon ketayapmiz, qora tuproqli sho'rxok yerlardan o'tayapmiz. Qo'qonning yer osti suvlari yaqin bo'lgani uchun shahar atrofida sho'r yuviladigan zovurlar juda serob.

G'o'za paykallari etagida, zovurlar labida sho'ri chiqib yotgan tog'-tog' balchiqlar uyub qo'yilgani ko'm-ko'k dalalar manzarasini buzib turardi. Ular atrofida yakkam-dukkam qamishlar o'sib yotibdi.

Bu manzara asta-sekin so'limlashdi. Daraxtlar, butalar, tokzorlar, o'rikzor, shaftolizorlar orasida qishloqning pastak-pastak paxsa uylari ko'zga tashlanadi. Mol-hol poda bo'lib atrof-yaqindagi o'tloqlarga ketarkan, ular ortidan ko'chaning changi osmon bo'yi ko'tarilar edi.

Bu manzaralarni to'ymay tomosha qilib ketayapman. Toshxon boshini mening tizzamga, Xondamir ayamning tizzalriga bosh qo'yib mudrashardi.

"Pobeda" mashinamiz hozirgi yangi chiqqan mashinalday tez yurmasdi yoki Mustafo amaki bizni avaylab sekin yurarmidi, Qo'qondan Rishtongacha ancha vaqtida yetib keldik.

Qishloq ko'chalari qing'ir-qiyshiq, ba'zi yo'llarga shag'al sepib qo'yilgan, ba'zilariga tosh yotqizilgan.

— Mustafo, to'g'ri Boqiy domlani uylariga boshla, — dedilar dadam.

— Domla uydamikinlar? — deb so'rasalar ayam, dadam:

— Uyda bo'imasalar ona, qizlar bordir...

Chorbog' devorlari oralab mashina bir darvoza oldida to'xtadi.
Mashinadan tushdik, darvoza zulflanmagan, ochiq edi.
Dadam zulfinni qoqdilar, jaranglab ketdi. Ichkari kirdilar.
Ichkarida qandaydir jonlanish, harakat, xursand ovozlar biz
tomon yaqinlashdi. Darvozani ikki tabaqasi ochilib ichkaridan
boshiga chorsi oq ro'mol yopgan qariroq juvon va yoshgina
qiz chiqishdi. Bizni uyg'a taklif qilishdi. Ko'rishdik, so'rabi-
stashgach, bular Boqiy domlaning rafiqalari hamda qizlari
ekanini angladim. Hovlida ajoyib saranjomlik hukm surardi.

Baland so'ridan tok ayvongacha chirmashib, uyning to-
migacha chiqib ketgan. Uzumlar xonim barmoq, husayni,
echkiemar, charoslar shunaqa mirishkorlik bilan taralganki,
xuddi har birini alohida-alohida yasab, osib qo'yganga
o'xshaydi. Ochiq ayvonning ustunlari o'ymakor, ayvon toqisi
ham gul solingan yog'ochlardan yasalgan. Ayvonning toqisiga
qandaydir uch tishli temir ilgichlar osilgan bo'lib, ularga
go'sht, qazi, to'shlar ilig'lik edi.

Go'shtlarni olish uchun albatta uzun narvon yoki
qo'qoncha shoti kerak bo'ladi.

Baland oynavand xona keng, o'ymakor ganchlangan, tok-
chalarda kitob, qog'ozlar dastalab qo'yilgan. Pastki tokchalar-
ga mis idishlar qatorlab terilgan, eroni pat gilam to'shalgan.
Xontaxta atrofiga atlas, adres, duro'ya (bunday matolar hozir
yo'q), beqasam ko'rpachalar to'shalgan, bolishlar tashlangan.
Boqiy domlaning boshlarida oq matodan mayda qaviq qilib
mashina yurgizilgan sayoz (Makkayu Madinadan keltirilgan)
do'ppi, yaktak, kulrang lozimda oyoqlarida amirkon qo'qoncha
kovush. Hammamiz bilan ko'rishib o'z xursandliklarini:

— Xo'p yaxshi bo'lipti-da, boshim osmonga yetdi, xo'p
kelibsizlar, — deb xursandliklarini izhor qildilar. Dadam,
ayam, men, Xondamir, Toshxon, Mustafo amaki xontaxta
atrofida o'tiri pmiz, Boqiy domla rafiqalariga tojikchalab
bir narsa dedilar.

Domlaning qizlari Nazofatxon hammaga choy quyib be-
rib, ayam bilan so'rashib o'tirdilar. Boqiy domla, dadamni
nogahoniy ko'rgani kelganlaridan xursand, dadamdan Tosh-
kentdag'i yaqin do'st-birodarlarining sog'lig'i haqida so'r
va o'zlaricha iljayib qo'yardilar.

Domlaning rafiqalari bir lagan quymoq olib kirdilar. Dasturxonga yangi qaymoq, sut tortishdi. Domlaning rafiqalari yonimga o'tirib "oling, oling" deb, hammaga mulozamat qilib, qo'llari bilan yelkalarimni-sochlarimni silab, «muncha chiroyli, siyoh-siyoha», dedilar. Men choyimni ichib, hovliga chiqdim. Ukalarim ham chiqishdi, ular bilan bog'aylanib yurdik.

Ajoyib chiroyli reja va did bilan ekilgan gullar, parvarishlangan uzum, olmalarining ertakisi pishib yetilibdi.

Nazofatxon opa orqamizdan yetib keldilar, bizga bog'-dagi gullarning ta'rifini: qaysinisi nimaga davo, qaysi uzum ertangi yo kechki ekanini aytib bera boshladilar.

Yana tashqari hovli ham bo'lib, u kattakon bog' ekan. U yerda tut daraxtlari ko'p, har birining bargi har xil edi.

Men nega unday desam, Nazofatxon opa:

— Ularning navi har xil, erta pishar, balx tuti, baliq tut, Yaponiyadan keltirilgan qizil tut, — deb tushuntirdilar.

— Shotutmi,— desam, Nazofat opa:

— Yo'q, shotut hov ana, qizil tut pishib ado bo'ldi, shotut endi pishadi, — dedilar.

Bog'da shaftoli ko'p ekan, ertapisharidan qorni tagidan topib uzib yeydiganigacha.

Biz rosa shaftolixo'rlik qildik. Ularning ta'mi bir-biriga o'xshamasdi. Lekin hammasi lazzatli.

Sharqirab oqib yotgan ariqlar labida anor gullab, behilar tugib yotipti. Olma, noklarni shoxiga tirgovichlar qo'yilgan, shoxlari sinay deyapti.

Nazofat opa savatga mehmonlarga deb turli shaftolilardan tera boshladilar. Men, ukalarim yordam berdik. Dadam bilan domla yolg'iz qolib ehtiros bilan suhbatlashib o'tirishgan ekan, xonaga kirganimizni sezishmadi ham.

Dadam hali yo'lida ayamlarga aytayotgan "domлага atab sotib olganları noyob kitob"ni bo'lsa kerak, qaysidir kitobga taqqoslab yozilgan sanasini aniqlashardi. Bog'ning etagidagi salqin, tagidan zilol ariq o'tadigan so'riga joy solingen, u yer xoli, kishi ko'ziga tashlanmaydigan joydaligi uchun birpas yonboshladik. Ayam domlani qizlari, rafiqalari bilan o'zaro suhbatlashib o'tirishdi, men bolishga yonboshlab ularni mayin

ovozlari, so'ri tagidan kelayotgan suvning shabadasidan rohatlanib ko'zim ilinipti.

Uyg'onib qarasam, ukalarim ham uxbab qolishgan ekan. Ayam Nazofatxon opa bilan bog' aylanib yurishardi.

Hovli o'rtasidagi baland so'riga joy solinib, xontaxtaga dasturxon yozilgan. Domlani rafiqalari hammani dasturxonga taklif qildilar.

Biz bolalar "ovqat yemaymiz, shaftoliga to'ydik", deganimizni Boqiy domla eshitib:

— Iya, shaftoli yumaloq suv-ku, u ovqat emas, ovqat yeyish kerak, bo'lmasa kishi ichiog'riq bo'lib qoladi, quruq shaftolini yeb bo'lmaydi, — dedilar.

— Domlani aytganlari to'g'ri, bir ho'plam bo'lsa ham sho'rva ichmasalaring bo'lmaydi, — dedilar ayam ham.

Noiloj ozgina ichgandek bo'ldik-da, yana boqqa chiqib ketdik. Kattalar o'zлari qolishdi. Anchadan keyin Nazofatxon opa dadami bizni istayotganlarini aytdilar.

— Tayyorlaninglar, Farg'onaga ketamiz, — dedilar dadam.

Boqiy domla:

— Abdulg'afur bugun shu yerda yotib qolinglar, ozgina dam olinglar...

— Domla, kuni bilan mehmon bo'ldik. Endi manzilimizga yetib olishimiz kerak, ertaga Farg'onada uchrashadigan ishlarim bor... yana kelamiz, — dedilar.

Boqiy domla:

— Uyimiz to'lib, dilimiz to'lib ketgan edi, yana huvillatib ketib qolasizlarmi? — dedilar.

Rafiqalari, qizlari bilan xayrlashib, mashinaga o'tirdik. Dadam Boqiy domla bilan bel olishib xayrlashdilar. Hammalariga rahmat aytib, yo'lga chiqdik...

Farg'ona

Boqiy domlani uylaridan 30-iyul 1958-yili kechki salqinda yo'lga chiqqan edik.

Shunday qilib Farg'onaga yo'l oldik.

Farg'ona yo'li salqin, kichik-kichik qishloqchalar, yo'lning ikki yonidagi ariq bo'yida kallaklangan qiyshiq-qing'ir

tutlarning yangi chiqqan novdalari mayin shamolda bizni olqishlayotgandek...

Qishloq hovlilaridagi azim o'rik, olma, shaftoli daraxtleri larzon mevasini ko'tarolmay paxsa devorlarga osilib olganga o'xshaydi...

Dadam obkom (o'sha vaqtlar hokimlikni shunday deyi-shardi) bog'idagi mehmonxonaga joy tayyorlatib qo'ygan ekanlar, shu yerda tunadik. Ertalab hali yuz-qo'limizni yuvib ulgurmagan edik, Adham aka (Adham Hamdam gazeta mu-harriri) kelib qoldilar. Ukalarim hali uqlab yotishar edi.

Adham akaning papiros chekkanlari uchun ovozları bo'g'iqliq-roq:

— E, G'afur aka, bu qanday bo'ldi. Sizni kelganingizni mehmonxona xo'jayinidan bilsam. Aka-ukalik qayerda qoldi. Nega bir og'iz aytmadingiz? Qani uyga ketamiz, — dedilar dadam bilan quchoqlashib ko'risharkanlar.

— Adham, hoy Adham, akang aylansin, opang, singil-laring, ukang bilan kelganman. Ular bilasan, yuvinish-taranishni yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun bu yerni ma'qul topishdi. Bugun meni mehmonim bo'l. O'zim ko'rsatma berdim, osh-tuz qilamiz, — dedilar. Adham aka bilan bel olishar ekanlar:

— Aka, Sizzan kutmagan edim, bu qanday bo'ldi, — deb Adham aka yana gina qildilar.

— Adham, yolg'iz kelganimda nima desang aytganiningni qilaman, uka, xafa bo'lma...

Kechasi kelganimizda charchabmi yoki qorong'ida e'tibor bermagan ekanmanmi, obkom bog'i shinam, katta-katta chinor, manzarali sambitlar, archalar, gullab turadigan daraxtlar soyasiga novdalardan to'qilgan stol-stullar qo'yilgan, hovuz atrofida qator favvoralar otlib yotibdi. Qishin-yozin ko'm-ko'k bo'lib o'sadigan manzarali butalar bir tekis reja bilan butalangan.

Choyni ochiq havoda tayyorlashgan ekan. Adham aka, dadam, ayam, ukalarim ham yuvinib choyga kelishdi. Shunda dadam bilan Adham aka rosa askiya boshlashdi. Ukam Xonda-mirga Adham aka Adham Hamdam deb o'zlarini tanish-tirganlari uchun:



Gulchehra Jo'rayeva, Oydin Hojiyeva va Olmos.



G'afur G'ulomning 80 yillik yubileyi tantanalarida. Muharram
G'ulomova (G'). G'ulomning rafiqasi), Olmos. Moskva.
Kolonna zali. 1983-yil.



G'afur G'ulom qizi Olmos bilan. 1961-yil.



Olmos Xitoy safarida. 1958-yil.



Ulug' G'ulomov va Olmos Yozuvchilar uyushmasining
bog'ida ijodkorlar bilan.



Olmos, Hamid G'ulom, Abdulla Oripov, Dildorxon G'ulomova
G'afur G'ulom uy-muzeyida.

— Adham aka, Siz yozuvchi Yusufjon Hamdam, dadamlarni sekretarini akasimisiz yoki ukasimisiz,— deb so'rab qoldi.

Adham aka bo'lsa:

— Yo'g'e, yo'g'e, jiyan, men shoir emasman, men jurnalistman. Men unga aka yoki uka bo'lishga uquvim yetishmaydi, — dedilar-da, yana askiya bo'ldi shekilli, dadam ikkalalari rosa kulishdi.

Ukam hayron qarab turgan edi men:

— Odnafamiles, — degan edim, ular yana avvalgidan ham qattiqroq kulishdi. Ayam bo'lsalar menga gapga aralashma degan ishora qildilar. Choy ichib bo'lgach, dadam Adham aka bilan redaksiyaga ketishdi.

Biz ayam, ukalarim bilan mehmonxonada qoldik. Tushki ovqat vaqtı bo'lib qolgan edi, dadam mashina yuborgan ekanlar. Shafyor bizni Adham akani uylariga olib bordi.

Kelinoyi dasturxon tuzab kutayotgan ekanlar. So'rashib bo'lgach, Ozodaxon opa (Adham akani rafiqalari):

— G'afur aka va Adham akani kutmas ekanmiz, ular kechroq kelishar ekan, ovqatlanaverar ekansizlar, qani dasturxonga marhamat, — dedilar.

Ozodaxon opa juda pazanda, xushgap ekanlar, ovqatlar mazali, ayniqsa yangi asal bilan limon bizga juda yoqdi.

Ayam farzandlarini so'ragan edilar, «ular kanikulda o'ynagani ketishgan», dedilar.

Ayam Adham akamning hazilkash afandi latifalarni aytib berish mahoratlariga hayratlarini aytdilar. Ozodaxon opa:

— Adham akamni qachon hazil, qachon rost gapirayotganlarini hanu gacha bilolmayman. Avval yangi kelinlik vaqtlarimda kulaverib ichagim uzilay, der edi. Endi hazillariga o'rgarib qolganman, — dedilar.

Ayam ikka.alari kulishdi.

Dadarı bilan Adham aka kech kelib, bizni yana bog'ga olib ketishdi. Adham aka dadamlar bilan bog' o'rtasidagi soyabonli ayvonda gapirishib o'tirishdi. Biz bolalar uxbab qoldik. Ertalab tursak, dadam ham, Adham aka ham yo'qlar.

— Dadam qayerdalar, — desam, ayam:

— Dadang ertalabgacha maqolani qoralamasini yozdilar. Yaqinda redaksiyaga diktovka qilgani ketdilar, — dedilar.

— Adham aka yotib qoldilarmi? — desam.

— Yo'q, allamahalda ketdilar, dadang kech yotib vaqtli turib, dam olishga kelgan odam kechasi bilan uxlamadilar-a, — dedilar tashvishlanib.

Mustafо amaki kelib bizni shahar aylantirdi.

Mehmonxonaga qaytganimizda, dadam bilan Adham aka kelib qolishdi. Dadam:

— Kiyininglar, sizlarni mehmonga olib boramiz, — dedilar.

Adham aka latifa ustiga latifa aytib berdilar. Shunda dadam:

— Bo'ldi, avtomat bo'lma, bugun aytib bergen latifalarimni teskarisini aytib, artist bo'layapsan, — dedilar.

— Ustoz, biz parodistmiz-da, qanday qilaylik, — dedilar Adham aka.

Dadamga Adham akamni butun aytayotgan latifalariyu quvnoqliklari juda-juda yoqishi bilinib turardi. Adham aka buni sezib tursalar kerak, dadamga hurmat-ehtiromni ikki hissa qilib qaytarardilar.

Nihoyat manzilga etib keldik, bog'da mehmonxona bo'lib, u yerda xodimlar kam, birorta ayol ko'rinnmaydi. Dasturxonni erkaklarga alohida, ayam, men, Xondamir, Toshxonga alohida solishdi. Dasturxonga sho'rva tortildi.

Xizmatni erkaklar qilishardi. Dadam bilan Adham aka o'tirgan dasturxon atrofidagi shu yerlik shoir, yozuvchi, jurnalistlar ovqat yeyishdan ko'ra ichaklari uzilgudek kulishardi. Xuddi kimo'zar o'ynayotgandek birlari aytib tugatmasdan boshqlari davom ettirishardi.

— Aya, men ham latifalarni eshitgim kelayapti, — desam, ayam:

— Qo'y, o'zlari yayrashayapti, qiz bolalar eshitadigan emas, yur, bog' aylanamiz, — dedilar.

Bog' juda katta, atrofi zinch qilib teraklar bilan o'ralgan, anor, anjir, shaftoli, olma, uzum degandek. O'rtada gulzor, atirgullar ochilib yotibdi.

Kech kirdi, mehmonxonada yotib qoladigan bo'ldik. Adham aka va mehmonlar uylariga ketdilar. Dadamlarga hovuz yonidagi so'riga pashshaxona tutib, joy solishdi. Biz mehmonxonaning bir bo'lmasida yotadigan bo'ldik. Ayamga o'rino rpa olib kirib berayotgan chol:

— Kelin, chiroq yoqmanglar, chivin ko'p, uxlatmaydi, — dedi.

Ertalab tong yorishmasdanoq turib ketdik. Yuvinib-tara-nib tursak Ozodaxon opa, singillari Yoqutxon, Adham aka kelishdi, bizni Shohimardonga olib borishar ekan.

— Ertalabki salqinda yetib olaylik, — dedilar Adham aka.

Dadam bog' aylanib yurgan ekanlar. Choy ichilgach, Mustafo amakini mashinasiga dadam, Adham aka, Xondamir, Toshxon chiqishdi. Biz ayamlar, Ozodaxon opa, Yoqutxon sin-gillari, men bir mashinaga chiqdik-da, Shohimardonga yo'l oldik.

Borishimizdan xabardor bo'lishsa kerak, dadamlarni oyoqlari ostiga qo'y so'yishdi. Mezbon mehmondorchilikni yaxshi tashkil qilibdi. Uy bekasi biz ayollarni Ko'li Qubbon, Oq suv, Ko'k suvlarni ziyorat qildirdi.

Surmasi oqib yotgan tog'larni tomosha qildik. Shohimardonning gavjum bozoridan jivanlarim uchun surmayu har xil hushtak, koptoklar sotib oldim. Kechqurun dadam kel-ganlaridan xabar topgan ziyoratchilar yig'ilib turishgan ekan. Katta eksprolet uchrashuv bo'ldi. Dadam she'rlar o'qidilar, Adham aka latifalar, shoirlarga parodiya qilib yozgan she'rlaridan o'qib berdilar.

Bu uchrashuvda Komiljon Otaniyozov ham ishtirot etdi. Komiljon aka ansamblari bilan kelgan ekan, ular ham xalq-ning katta olqishini oldilar.

Men bunday katta uchrashuv bayram sayliga aylanib ketishini kutmagan edim.

Ancha mahalgacha r'adamning muxlislari: chollardan tor-tib yosh qizchalargacha atroflarini o'rab, savol ustiga savol berib, avtograf olishardi.

Uchrashuvdan so'ng, biz to'xtagan xonadonda yarim ke-chagacha suhbat, askiya, Komiljon Otaniyozovning eng noyob ashulalari aytildi. U butun Shohimardon bo'ylab yangradi.

Andijon

1958-yili 3-avgust kuni ertalab dadam, ayam, men, Toshxon, Xondamirmi Adham aka, Ozodaxon opa, singillari Yoqutxon Shohimardondan Andijonga kuzatib qo'yishdi. Andijon shahrida dadamni do'stlari juda ko'p edi, ular kutib turishgan ekan.

Andijon istirohat bog'ida katta ijodiy kecha tashkil qilinib, shaharning kattalari ham dadamni gullar bilan kutib olishdi. Odam ko'p, uchrashuv dadam ijodlariga bag'ishlangan katta tantana bilan ochildi.

Kechada shahar hokimi, gazeta muharriri nutq so'zlashdi. Yig'ilgan shoirlar o'z she'rilarini o'qib berdilar, Majxuriy, Anisiy domlalar dadamlarning she'rilarini adabiyotshunos sifatida tahlil qilib berishdi. Dadam o'qigan she'rilar xalqning katta olqishini oldi. So'ng istirohat bog'ida katta sayil bo'ldi. Suhbatdan hammaning ko'ngli shod bo'lib, Qo'qon qishloq (Paxtaobod) tomon yo'lga chiqadigan bo'ldik.

Dadam Andijon bozoriga kirib, mashinaning yukxonasini to'ldirib sovg'a-salom oldilar. Paxtaobod dadamning ko'pgina do'stlari — Majxuriy Sayfiy, Anisiy domlalar yashagan joylar. Habibiy domla ham shu yerda tavallud topganlar. Dadam Andijonga kelganlarida Ulfat (Imomiddin Qosimov), Vosit Sa'dullalar bilan suhbalashmay keta olmaganlaridek, Paxtaobod (Qo'qon qishloq — bu yerlar avval cho'l bo'lgan va Qo'qon xoni bu yerlarni obod qilmoqchi bo'lib Qo'qondan bir guruh xalqni ko'chirib olib kelgan va ular shu yerlarni bog'-rog'larga aylantirishgan, shu sabab bu yerlar Qo'qon qishloq deyilar ekan)ga kelmay Mulla Mamajon akani, Ne'matshoyevni ko'rmay ketmas edilar.

Bu gal ham dadam Mulla Mamajon akaga o'z farzandlarini ko'rsatish, ayam bilan u kishining rafiqalarini tanishtirish maqsadida olib ketayotgan edilar.

Mulla Mamajon akani uylariga xabar bermay kirib borishimiz, qanday xursandchilikka sabab bo'lganini aytib bera olmayman. Domla bizni qayerga o'tkazish, nima deyishga gangib qolganlari (o'zlarini so'zlari)ni dadam bilan so'rashayotib necha bor aytdilar. Mulla Mamajon aka uylarida

to'y bo'layotgandek odamilar kela boshladi. Yaqin-yiroqdan adabiy muhitga mansublar yig'ildi. Suhbat o'z-o'zidan ulanib ketdi.

Mamajon aka rafiqalariyu Shahzodaxon qizlarining (Toshkent Moliya institutida o'qir edilar) qo'llari qo'llariga tegmaydi. Ayam, men, Toshxonga so'riga joy qilishdi. Ularda biror qo'shninikiga uzoqdan mehmon kelsa rusumga binoan darrov yo'qlab chiqishar ekan: biri chuchvara, biri manti, osh qilib chiqishayapti. Shahzodaxon opam bilan Toshkentda ko'p ko'rishardim. Juda xushro'y, xushchaqchaq qiz edilar. Uzoqroq chiqmay qolsalar o'zim talabalar yotoqxonasiga borib aytib kelardim. Birga kino-teatrлarga borar edik. Mehmonlarga birga dasturxon qilib, choy tashish o'rtasida gapimiz tamom bo'lmasdi. Xuftonga borib mehmonlar tarqalishdi. So'ng ayam, domlaning rafiqalari, Shahzodaxon o'zimiz gaplashib o'tirdik. Hovlilari keng, atrofiga uzum ekilib butun hovliga so'ri qilingan, salqin.

Dadam Mulla Mamajon aka bilan ancha ko'rishmagan ekanlarmi, gaplari tamom bo'lmasdi. Kech kirganda chiroq o'chib qoldi. Shunda Mulla Mamajon aka ichkaridan Xondamir bilan do'stlashib qolgan o'g'illariga:

— Dvijokni ishlatib yubor, — dedilar.

O'g'illari uni ishlatib yubordi. Hammayoq charog'on bo'lib ketdi. Uning nurida suhbatga suhbat ulanib ketdi. Hamma o'z tengini topib olgan edi.

Ayam domlaning rafiqalari bilan gapirishar, u kishi:

— Shahzodaxon hech sizlarni og'zidan qo'ymaydi. Hammalar eingizni ta'rifingizni qilardi. Men ham sizlarni ko'rarmikinman, derdim. Orzuyim ushaldi, — deydilar xursand bo'lib.

Ayam xushmulozamat bilan:

— Shahzodaxondan ko'p salomlar aytaman. Olmosxon qizingizni juda yaxshi ko'radi. Tez-tez xabar oldiraman. O'qishdan bo'sh vaqtlarida aytib chiq, deyman. Institut shundoq uyimiz orqasida, bir qadam...

Shu kecha Mulla Mamajon aka uylarida yotib qoldik.

Dadamlarni andijonlik do'stlari azondan ko'rgani kelisha boshlashdi. Garchand, maqsad bizni Chortoqda dam oldirish

bo'lsa-da, eng avvali biz bolalarni o'z do'stlari bilan tanishtirish, keljakda ularning farzandlari bilan shu yaqinlikni saqlab qolish ekan. Shu safarda Tursunoy Karimova opamlarnikiga o'tdik. Tursunoy opam o'sha vaqtlar (raykom kotibi) ishlari ko'p bo'lishiga qaramay, bizga katta e'tibor berdilar. Qizlari bilan dugona bo'lib qoldik.

Tursunoy opa Toshkentga majlislar, anjumanlarga kelganlarida biznikiga, Zulfiya opamlarnikiga borardilar. Ular bilan dugona edilar.

Tursunoy opa bizni Namangan chegarasigacha kuzatib qo'ydilar.

Namangan

5-avgustda Andijondan to'g'ri Namanganga yo'l oldik. Yo'l soya-salqin bog'-rog'lar, ekinzorlar oralab ketardi. Namanganga yetib kelganimizda vaqt peshindan oqqan edi. Dadamni "Namangan haqiqati" gazetasi redaksiyasida kutishayotgan ekan, o'sha yerda qoldilar. Mustafo amaki bizni Yunusali akaning kolxozi mehmonxonasisiga olib ketdi. U yerda Yunusali aka (Yo'ldoshev "Telman" jamoa xo'jaligi raisi) ochiq chehra bilan kutib oldilar. Ayam, ukalarim, men bilan quyuq so'rashdilar.

Mehmonxona shundaygina daryo bo'yida joylashgan, suvning shabadasi gulxonadagi rayhon, jambil, atirgul isini dimoqqa urib, issiq kunda rohat baxsh etadi. Biz yuvinib, taranib bir oz hordiq chiqargach, daryo labidagi so'riga yozilgan dasturxonga taklif qilishdi.

Kechga yaqin dadam bilan shu yerlik shoirlar va gazeta muhariri Sanjar Tilla kelishdi. Hammamiz bir dasturxon atrofida jamlashib ovqatlandik. Sanjar aka uyimizga avvallari ko'p kelganlari uchun akamizdek bizni gapga solib o'tirar edilar.

Sanjar akanı rafiqalari mashhur aktrisa Tamara Nazarova edilar. Shu yili Namangan teatrida "Ravshan va Zulkumor" musiqali spektakli qo'yilgandi. Bu spektaklning yetakchi partiyasini Tamara opa zo'r mahorat bilan ijro etayotganlarini ovozasi Toshkentga yetgan edi.

Ayam shu gapni Sanjar akaga aytgan edilar, Sanjar aka:

— Muharram opa, xohlasangiz, spektaklga olib boraman, — dedilar.

— Ha, albatta, boramiz... — deb ayam dadamga qaradilar, dadam:

— Ertaga, bugun meni rosa ishlatdinglar-ku, bir sahifa maqola yozib berdim, — dedilar.

— G'afur aka, sizning yozganiningizni xalq ko'ziga to'tiyo qiladi, gazetamizni obro'sini oshirib berasiz. Siz tilga olgan mehnatkashlarga bir mukofotday bo'ladi, — dedilar Sanjar aka.

Biz bolalar ayam boshliq dadam va mehmonlarni xoli qoldirib bog' aylandik, so'ng bizga ajratilgan yotoqxonaga kirib dam oldik. Dadamning ovozları, kulgi, gurung yarim kechagacha yangrab turdi. Ertasi kuni tush vaqtiga dadam bilan Namangan kutubxonasida uchrashuv tashkil qilingan ekan.

Dadam uchrashuvdalik vaqtlarida Mustafo amaki bizga shaharni ko'rsatdi. Shahar mo'jazgina, lekin juda salqin, xiyobonlar, shahar oromgohini tomosha qildik.

Tushlikni shu oromgohning choyxonasida tayyorlashgan ekan. Dadam uchrashuvdan to'g'ri shu yerga keldilar. Shahar hokimi, Sanjar aka bir guruh shoirlar bilan kelishdi. Dadam ayamga:

— Muharramxon, hamma gullar sizga, — deyishlari bilan, bir yigit bir quchoq gulni olib kelib ayamga uzatdi.

Ayam "rahmat" dedilar-da, stolni boshidan-oxirigacha ularni terib chiqdilar. Kulgi, askiya, she'rxonlik bu yerda ham davom qildi. Birmuncha vaqt o'tgach, dadam.

— Muharramxon, bolalar bilan bir oz dam olaylik, so'ng teatrga boramiz, — dedilar.

Mezbonlar bilan xayrashib, mehmonxonada kechgacha dam olib, kechqurun teatrga bordik. Spektakl musiqali bo'lib, Zulkumor rolini Tamara opa mohirona ijro etar edilar.

Tamara opani avval "Tohir va Zuhra" kinosida, so'ng Alisher Navoiy filmidan yaxshi ko'rib qolgan edim. Shu sabab ularni qandaydir o'zlariga xos shirali noyob ovozları, ijro etayotgan qo'shiqlari meni maftun qilib qo'ygan edi.

U kishi juda chiroyli edilar. Rollarini jozibali ijro etardilar. Spektakl tugadi, men o'sha sahnali holatdan chiqmagan edim. Tamara opa yevropacha tikelgan, qaddi-qomatlariga yarashib, yana ham go'zalliklarini oshirgandek tuyulgan chiroyli shifon ko'yakda oldimizga keldilar. Hammamiz bilan samimiy so'rashdilar-da, ayamlarga:

— Muharram opa, endi biznikiga boramiz, — dedilar. Ayam dadamga "nima deysiz" degandek qaradilar. Dadam:

— Mayli, Sanjar kechadan beri kutayapti, ertaga erta bilan Chortoqqa ketamiz... borsak boraylik, — dedilar.

Sanjar aka, Tamara opani uylariga yetib borganimizda 8–9 yashar qizcha va ikkita o'g'il bola kutib olishdi.

Tamara opa:

— Bu mening qizim, manavi yigitchalar meni ersaktersaklarim, tesha-boltalarim, — deb tanishtirdilar. Qizlari chiroyli, mayda o'rilgan sochlari orqasi bilan bitta. Oldidagi kokillari shunday o'ziga yarashganki, ko'z uzolmay qoldim. O'g'illari ostobda qoraygan, shirin-shakar bolachalar edi. Ular biz bilan "Assalomu alaykum", deb so'rashishdi. Xondamir bilan birpasda til topishib olishdi. Toshxon qizlari bilan gap topib gapirishardi.

Uylari shinam, did bilan bezalgan. Muhabbat bilan qurilgan hayot ekani Sanjar aka va Tamara opani bir-birlari bilan munosabatlardan sezilib turardi.

Farzandlarni erkalashlaridan ularni shu shirin turmushlarini suyukli mevasi ekani kishini havasini uyg'otar edi. Tamara opa nafaqat iqtidorli aktrisa, juda mehribon rafiqqa, mohir uy bekasi ham ekanlar.

Dadamni, ayamni qanday xush ko'rishlari dasturxonga tortilgan har bir tayyorlangan taomdan ko'rinish turardi. Hamma noz-ne'matlar hafsala, mehr bilan tayyorlangani, chiroyli bejab tortilganidan ko'rinish turardi.

Ayam:

— Tamaraxon, bu ovqatlarni qachon tayyorlab ulgurdingiz. Bu yoqda ish...

— Voy, Muharram opa, bizni uyimizga kelasizlaru men harakat qilmaymanmi, butun kun meni ixtiyorimda, rolim bo'lsa yod bo'lib ketgan. Meni yordamchilarim — tesha-

boltachalarim, qizim bor-ku... Mana ko'rayapsizmi, — dedilar stolga nozu ne'matlarni tashib kelayotgan o'g'illariga ishora qilib.

Sanjar akani uylaridan juda kech ketdik. Bu mehmonnavozlik hali esimdan chiqmaydi. Ertalab tursak, dadam Xondamir bilan Namangan bozoriga borib kelishga ulgurishibdi. Dadam Chortoqqa jo'nashdan oldin Xondamirni uuga — Toshkentga jo'natib yubormoqchi edilar.

Bozordan unga xirom etik, oq yaktak, banoras to'n, do'ppi, qo'sha-qo'sha qiyiqcha, chust pichog'i olib hammasini kiygiziptilar.

Xondamir (1947-yilda tug'ilgan) 11—12 yashar o'smir bu liboslarda juda chiroqli chapani yigitchaga aylangan edi. Endi nish urayotgan mo'ylabi, bo'yi-basti, chuchuk tili, do'rildoq ovoziga dadam mehrlarini qo'ygan edilar.

Bozordan buvimplarga, akam, kelinoyim, Mirza Abdul Qodir ukamga, jiyanimga, hatto enagamiz Oliya opagacha sovg'a-salom olib, meva-chevalarni chiroqli savatlarga to'lq'izib, xuddi katta yigit safardan qaytayotgandek qilib samolyotga kuzatib qo'ydik.

Dadam uni mustaqil qaror qabul qilish, mustaqil yurishga, qo'li ochiq, fe'li keng, yaqinlariga mehribon bo'lishga o'rgatar ekanlar... Xondamirga mehrlari har bir farzandlariga bo'lganidek juda baland edi. Uning kelajagiga katta umid bog'lar edilar.

Shunday qilib, Xondamirga "uyga borib meni yo'qligimni bildirmay yur, akalaringga, biving, jiyanlaringga qarash", deb jo'natdilar. Biz butun Farg'ona vodiysini aylanib dadamni xalqqa, xalqni dadamga bo'lgan mehrini ko'rdik.

Otamni ulug', xalq ko'nglidagini yozadigan hozirjavob, zamona bilan hamnafas shoir ekanliklarini yana bir guvohi bo'ldim. Bu ajoyib, tashkil qilinmagan, o'z-o'zidan bo'ladigan uchrashuvlar, xalqni sog'inib, uning diyedorini ko'rish, ko'nglidagini eshitish uchun bo'lgan uchrashuvlar na meni va na o'sha uchrashuv qatnashchilarini esidan chiqmaydi.

Chortoq

Shunday qilib, 1958-yilning 7-avgust kuni do'stlar diydoridan, suhbatlaridan mammun bo'lib, Chortoqda dam olish uchun yo'l oldik.

Chortoq sanatoriysi o'sha yillar endi tashkil qilina boshlagani uchun bitta bir qavatli bino bo'lib, do'xtirlar qabulxonasiyu 3–4 vannasi bor edi, xolos.

Biz yashagan kottej yonidan katta soy oqar, uning ustiga so'ri o'rnatilgan, atrofiga majnuntollar ekilgan bo'lib, salqin edi. Katta bog'da shaftoli, olma, olxo'ri va boshqa mevali daraxtlar ko'p edi.

Havoning issiqligidan kottej ham issiq, agar oynalarga choyshab to'silsa, sal nafas olish o'ng'ay bo'lardiyu dim bo'lib ketardi. Ayam bilan men sanatoriya borib vanna qabul qilib kelar edik. Suv juda quvvatli bo'lsa kerak, kottejga qaytib kelish bilan terga botib darmonsizlanib yotib qolar edik.

“Chortoqqa borib bir dam olay”, degan dadam bizni dam oldirib, o'zлari yaqin-yiroqdagi xo'jaliklardan ocherklar yozish uchun material yig'ar, tushlikkacha redaksiyada ishlar edilar.

Ayamning kuyunib:

— Siz ham biror kun dam olsangiz-chi, — deganlariga:

— Dam olish meni kasbim emas ekan, — deb kuldirardilar.

Dadamga yozning jazirama issig'i, mehnatkashlar bilan dalalardagi suhbatlar yoqar, shu sabab bir joyda dam olib yotishga g'ayratlari qo'ymas edi. Tushki va kechki ovqatlanish vaqtida dadamni shu yerda istiqomat qilayotganlaridan xabar topgan do'stlari ziyorat qilgani, suhbatlaridan bahramand bo'lgani kelishar edi.

Issiq shu darajada ediki (Namangan viloyati Toshkentdan issiq bo'lsa kerak), vanna qabul qilish va yana ovqat pishirish, mehmon kutish ayam bilan meni holsizlantirib, cho'ziltirib qo'ydi.

Ba'zan kechki ovqatga dadamni suhbatlariga mushtoq yozuvchi, shoirlar, shu yerlik shinavandalar so'riga ham sig'may qolar edilar. Masalliq ko'p, ularni pishirish,

dasturxonga tortish (sovutgich bo'Imagach, dala sharoitida) yig'ishtirib olish butun kuchimizni olib qo'yardi. O'sha kezlar uyimizda gazda ovqat tayyorlanib, o'tin yoqib ovqat qilishdan chiqib qolgan ekanmizmi, issiq kunda katta o'choq yonida turishni ko'zingiz oldiga keltiring. Ayam bilan ikkovimiz ovqat pishirardigu uni eyishga na ishtaha, na fursat topmas edik, shu bois yana ham holdan toyib qoldik. Atrofda har bittasi kosadek shaftolilar, olmayu olxo'rilar larzon bo'lib to'kilib yotardi, ularni yeydigan holimiz yo'q, yuvib-tarab mehmonlar dasturxoniga tortamiz. Ozgina vaqt bo'lsayu dam olsak, deymiz. Qani edi biz ham issiq kunda o'sha salqin, tagidan soy oqib turgan so'rida ozgina cho'zilsak. O'z ko'nglimizcha biz "dam" olayotgan edik.

Mehmon kutish, ularni ko'nglini olish ayamni joni-dillari bo'lsa-da, sharoit bo'lmasa, yordamchi bo'lmasa, o'z uying bo'lmasa ancha mushkul bo'lar ekan...

Bir kuni bizdan xabar olgani shahar hokimi Toirov, Sanjar aka, Tamara opa farzandlari bilan kelishdi. O'g'illari Dilshod va Eldosh Xondamir (uni Toshkentga ketganidan bexabar bo'lishsa kerak) bilan o'ynaymiz deb, qizlari Gulshahnoz Toshxon bilan o'ynagani kelishdi.

Yig'ilganlarga soy ustidagi so'rige joy qildik. Kech kirib havo ancha salqinlashgach, Sanjar aka she'rilar o'qidilar, askiyalar aytishdi. Tamara opa qo'shiq aytib berdilar. Toirov, Sobirjon aka, Yusufjon aka shahar, xo'jalik yangiliklarini dadamga aytib berishdi. So'ng tunda shaharga jo'nab ketishdi. Shunda ayam, men bir oz dam oldik. Chortoq ma'dan suvi kuchlilik qildimi, avval ayamlarni, so'ng meni yuragim bezovta qiladigan bo'ldi. Dadam bizni holimizdan xavotirlanib, Namangan shahridan do'xtir olib chiqdilar.

U: «Issiq kunda vanna qabul qilib, «dam olib» char-chashibdi», degan tashxis qo'ydi. Shundan keyin Yusufjon aka (rais) shu yerlik oshpazni yordamga chaqiriptilar. U kishi o'tin yorib, o't yoqib, ovqat qiladigan bo'ldi.

Sayohatga chiqqanimizga bir oycha bo'lib qolgani uchun ayam bilan men uyimizni sog'ingan edik. Dadam "Hazrati insonlardan biri" degan turkum ocherklar uchun hujjatlar to'plab bo'lganlaridan so'ng, uyga, Toshkentga ketadigan bo'ldik.

Ayam Toshxon bilan samolyotda (ular yo'lda yana ham charchab qolmasliklari uchun) men dadamlarga hamroh bo'lib mashinada ketadigan bo'ldik.

Chortoqdan Namangan aeroportiga borib ayam bilan Toshxonni samolyotga kuzatar ekanmiz, ayam:

— Olmos, dadangga ehtirot bo'l, e'tibor berib bor, g'ashlariga tegadigan gaplar, ishlar qilma, so'raganlarini o'rniqa qo'yib, meni yo'qligimni bildirma, — dedilar. Ayam dadamni kuzatib ketmayotganlaridan ko'ngillari to'l-mayotgan, lekin Toshxon uchun shunday qilgan edilar. U issiqda mashinada uzoq yurganda ko'ngli behuzur bo'lar edi. Ayamni hamma aytganlarini bajarishga so'z berdim. Dadam uyga telefon qilib ayamni qachon kutib olishni akam Ulug'bekka tayinladilar. Ayam, Toshxon uchib ketishdi. So'ng dadam Namangan bozoriga kirib yo'lda tamaddi qilish uchun yemishlar oldilar.

Namangandan Toshkentga eski yo'l bilan yetib borishga ancha vaqt ketardi, shu sabab bo'lsa kerak, Mustafo yo'lni qisqartirmoqchi bo'lib paxta paykallari orasidagi ilonizi yo'llardan yurib adashib qoldi. Ko'm-ko'k paxta dalalarida adashib-adashib bir katta tut tagiga kelib qoldik. Dadam:

— Mustafo, shu yerda to'xta, — dedilar.

To'xtasak, azim tut tagida so'ri, sal nariroqda eskirib qolgan bino, paxtazor etagidan kattagina ariq oqib o'tadigan yerda mo'jazgina shiypon bor ekan. Lekin shiyponga anchadan beri hech kim kelmaganga o'xshar edi.

— Mustafo, shu yerda bir oz dam olamiz, salqinlab suv-puv ichib, so'ng yo'lga chiqarmiz, — dedilar dadam.

Mustafo amaki mashina yukxonasidan gilamcha olib so'riga to'shadi. Ko'rpacha, mashina o'rindig'idagi yostiqni olib dadamga joy soldim.

Dasturxonchani solib, termosni, piyolalarni olib yemishlarni qo'ydim.

— Dada, achchiq-chuchuk qilaymi? — desam, "So'rab nima qilasan, qilaver", — dedilar.

Issiq kunda adashib qolganimiz, kimsasiz yerda majburiy dam olayotganimiz dadamni asabiylashtirgan edi.

— Bu yerda odam yashamaydi shekilli, — desam, dadam atrofga tikilib:

— Hamma chekankada ekan, qara, paxtazorda odam ko'p, — dedilar.

Men achchiq-chuchuk qilib bo'lgan edim, paykal ichidan boshiga og chorsi o'ragan o'rtal yoshli kishi chiqdi, ariqdan bet-qo'lini yuvib, boshidan chorsisini olib artindi-da, cho'ntagidan do'ppini olib, qoqib kiydi, chorsisini beliga belbog' qilib bog'lab, so'ii tomon kelib, salom berdi. Dadam bilan qo'l olishib bir-ikki og'iz gapirishib, shoshib kelgan tomoniga qaytib ketdi.

10–15 daqiqa o'tar-o'tmas erkak-ayollar biz tomon kela boshlashdi. Ularga haligi kishi dadamni tanib qolib biz to'xtagan so'rini ko'rsatib, o'zi xo'jalik idorasiga ketibdi.

Dadam ularga:

— Kelinglar, biz bilan choy ichinglar, — deb dasturxonga taklif qildilar. Ular narigi shiyponda ovqatlanishganini aytishdi.

Mustafo amaki adashganimizni yarim o'rischa, yarim tatarcha, yarim o'zbekcha qilib, yaqinroq yo'lni surishtirdi. Uning so'zlarini dehqonlar tushunmay hayron turishardi. Dadam kulib:

— Bu Mustafo Kamol poshsho meni haydovchim yo'lni qisqartiraman deb uzaytirib, bizni shu yerga olib keldi. Toshkentga — uyimizga ketayapmiz, qay yo'ldan ketsak, durust bo'ladi, demoqchi, — dedilar.

Bir qariya:

— Siz — G'afur G'ułomsiz, tanib turipmiz, bizni paxtazorga, bir xudo deb yurganlarni yarlaqatib kelib qolipsiz, bir-ikki kun mehmonimiz bo'ling, yo'lni so'ng ko'rsatib yuboramiz...

— Sizlar meni mehmonim bo'linglar, mana shu yerda borim sizniki. Dasturxonadagi noz-ne'matlar yetganicha birga yeb-ichaylik. Kelinglar, — deb yana dasturxonga taklif qildilar.

Besh-olti chog'lik erkak, xotin so'ri labiga o'tirishdi, men termosdan choy quydim. Uzoqdan yana kimlardir biz tomon shoshilib kelardi. O'tirgan yigit:

— Rais buva kelayaptilar, — dedi.

Ular kelgach, g'ala-g'ovur, so'rash-istash bo'lib ketdi. Men shu "ovloq" joyda shuncha odam yig'ilganiga hayron edim. O'z-o'zidan mo'jazgina uchrashuv sodir bo'ldi. Yig'ilganlar dadamni xuddi Xizrni ko'rgandek hayajonda olqardilar. Savol ustiga savol berishar, dadamning she'rlarini yoddan aytishardi. Rais deganlari o'rta bo'yli baquvvat odam dadamga: "Ustoz, bir she'ringizdan o'qib bering, bir umrga esimizda qoladi, iltimos", dedi. Dadam xuddi ular bilan avvaldan ko'rshib yurgan odamdek:

— Bir oyga yaqin vodiyya bo'ldim. Ko'pgina mehnatkashlar bilan uchrashdim, gazetalaringizga maqolalar yozdim. "Hazrati insonlardan biri" turkumidagi ocherklarning bir qismi yozildi, qolganini Toshkentga borganda yozaman. Sizlarga yangi she'rim "Namangandan"ni o'qib beraman. Hali u hech qayerda e'lon qilinmagan...

Shu ko'm-ko'k ko'kda tinchlik
kaptari bizning Namangandan,
Muhabbat ham vafoning
daftari bizning Namangandan.
Qayerda ilk ko'klanning
shamoli dilni shod etsa,
U, albatta, o'tibdir bir sari
bizning Namangandan.
Go'zal qizlar jamolida
quyoshning partavi bordir,
Qachonlar tong otibdir
ilgari bizning Namangandan.

Dadamning shirali ovozları shu she'rdagidek ko'klargacha, u yerdan ko'm-ko'k paxtazorlar uzra jaranglab ketdi.

Men bir chekkada tomoshabin bo'lib, hayratlanib turar edim. Suhbat ancha vaqt davom etdi.

Biz salqinlab olgan edik. Lekin yig'ilganlar dadam bilan xayrashgisi kelmas edi.

MUKAMMAL BO'L MAGAN OLAM

1957- yilning yozida Moskvada o'tadigan jahon yoshlari festivaliga universitetdan boradigan delegatlar qatorida bizning kursimizdan dugonam Muyassar va men bor edim. Birinchi marta ayam va dadamsiz uzoqqa ketayotgan edim. Uyda ayam bilan yo'lga shoshilinch tayyorgarlik ko'rardik.

Ayamning bisotlarida bargikaram rangli yaltiroq tovar ko'rgan edim, shundan poyezdda kiyish uchun xalat tikiirmoqchiligidagi aytdim. Juda qisqa vaqtida hech bir tikuvchi menga xalat tikib berishga rozi bo'lmasligini ayam aytdilar. Shu sabab matoni olib ayam bilan sobiq Karl Marks ko'chasida joylashgan Markaziy univermagga borib (ikkinchi qavatda bichiqchi bo'lar edi) xalat bichirdik, yo'l uchun kerak bo'ladigan mayda-chuydalar xarid qildik.

Bichilgan xalatni avval qo'lda igna bilan choklab, kiyib ko'rdim. Ayam u yer-bu yerini to'g'rilab berdilar. So'ng ayamning oyoq mashinalarida tikishga kirishdim.

Xalatni shu kunning o'zida tikib bitirishga jazm qilib, boshimni ko'tarmay ishga berilib ketdim. Kun yarimlab, kech kiray deb qolganida Zulfiya opam mehmon bo'lib kelib qoldilar. Ko'rishib, Hulkarni, Omonni, Komila ayamlarni so'radim, hammalari sog'-salomat ekanlar.

Ayam xursand bo'lib dasturxon tuzar edilar.

Zulfiya opa, meni traktorning ovoziga o'xshagan ovoz chiqarib ishlayotgan mashinam ustida berilib tikayotganimni kuzatib:

— Olmos, kiyim tikishni bilasanmi? — dedilar. Men ham ikkilanmay:

- Ha, — dedim, gapimizni eshitib turgan ayam:
- Ertalab bichiqchiga bichtirib keldik...
- Qolganini o'zi tikayaptimi? — so'radilar Zulfiya opa, men yana:
- Ha, — dedim. Zulfiya opam meni maqtashlarini xohlardim shekilli.

Ayam xijolat tortgan ovozda:

— Bichiqchi bichib hammasini ko'rsatib bergandan keyin tikish qiyin emas, — dedilar.

Lekin Zulfiya opamlar qiziqsinib yonimga kelib sinchkovlik bilan qilayotgan ishimni kuzatib turdilar.

Ko'zları shu matoning rangiga mos bargikaram rang zar yo'llari bor tugmaga tushdi. Zulfiya opam tugmalarni qo'llariga olib, ushlab ko'rdilar-da:

— Muncha chiroylisini tanlabsan-a, naq matoga mos tushibdi-ya, rasm solishdan xabaring bor-a, rang tanla-shingdan bilinib turipti, — dedilar, xuddi tugmalarni men yasagandek, xursand bo'lgan ovozda...

Shu topda ayam Zulfiya opamlarni dasturxonga boshladilar. Ichkariga kirib ketayotib Zulfiya opam menga:

— Olmos, xalating bitganida kiyib ko'rsatgin, — dedilar. Men "xo'p" ishorasini qildim.

Ularni zalda bir narsalarni kula-kula gapireshayotgani choynak-piyolaning jangur-junguri bilan aralash-quralash bo'lib eshitilib turardi. Kech kirib qolgan bo'lsa-da, men hovlida xalatni qo'lda tikiladigan yerlarini choklardim.

Ertaga poyezdga chiqishim kerak, shu sabab shoshilardim. Tugmalarga qator qilib petlya ochayotgan edim, dadam keldilar, meni ish ustida ko'rib quvonib ketdilar.

— Mosh, nima tikayapsan, — deb so'radilar.

— Poyezdda kiyishga xalat, — dedim.

— Matosini rangi juda chiroyli ekanu...

— O'zingiz ayamga olib kelgan ekansizu...

— Esimda yo'q... Qani kiyib ko'r-chi...

— Hozir, bitsin, Zulfiya opam kelganlar, ayam bilan choy ichishayapti...

Dadam gapim tamom bo'lmayoq shoshilib ichkariga kirib ketdilar. Dam o'tmay ichkarida kulgi qahqaha ko'tarildi. Ichkarida bo'layotgan xangamalarni eshitgim kelib tez tikaman deb barmog'imga igna sanchib oldim. Nihoyat xalat ham bitdi. Dazmollahga ham yuragim chidamay kiydim, yarashgandek bo'ldi. Tashqarida oyna yo'q, xalat ustimda qanday turganini ko'rolmas edim.

Ichkariga kirsam, dadam, ayam, Zulfiya opam gapdan to'xtab menga qarashdi. Dadam xursand bo'lib:

— Voy-bo'y, — deb yubordilar, — Moskvadan qaytishingga har xil matolar olib qo'yaman, menga ham modniy ko'ylak tikib berasan, — dedilar.

Zulfiya opam:

— Juda chiroqli chiqibdi, faqat katta qizlarga o'xshab qolding, — desalar, ayam:

— Hali bunday xalat kiyishingga bir oz vaqt bor ekan. Ha, mayli, yo'lida kiyib borib kelarsan, — dedilar.

Zulfiya opam dadam, ayamga o'girilib:

— Muhammarram opa (dadamni hurmatlarini saqlab ayamni opa der edilar) men hech bichish-tikishga uquvim yo'q-da, — dedilar afsuslangandek.

— O'rgilay sizdan, Zulfiyaxon, tikaman desangiz rosa yaxshilab tiksangiz kerak, sizdaqa did bilan kiyinadigan ayollar juda kam-ku. Lekin kuni bilan bitta xalat tikkuncha bitta yaxshi (cho'zib xuddi she'r eshitib rohatlangandek qilib aytdilar) she'r yozsangiz mingta xalatni o'rnini bosadi... abadga qoladi...

Dadamga ayamlarni so'zları yoqib tushdi shekilli:

— Hamma o'z bilgan ishini qoyillatib qilsa olam yana ham mukammal bo'lar edi-ya, — dedilar o'ychan...

Ayam:

— Olmos boshlab bitkazmay tashlab qo'ygan kiyimlar bir bo'g'cha bo'lib yetibdi. Bu xalatga ham o'shalarni kuni kelar deb o'ylagan edim, haytovur bitkazipti... — Ayam har doim meni dadammi yo buvimmi, biror kishi haddan ortiq maqtab yuborsa, birovni uyiga boradigan qiz erkalanib ketmasin, deb meni havolardan pastga tushirar edilar.

— Onasi, qizingizni tikishga ilhomni kelmay, iqtidori yetmay qolib ketgan kiyimlar bo'g'chaga tushar ekan-da a?

Hammalari bu gapga kulib yuborishdi.

Dadam meni xijolatdan qutqarganlaridan xursand bo'lib xonadan chiqayotib dahlizdag'i chiroqni yoqdilar. O'zimni katta tosh oynaga solsam, ne ko'z bilan ko'rayki, qo'sh-nimizning yangi tushgan keliniga o'xshab qolgan ekanman. Hamma aytilgan gaplar to'g'ri, avval hech shohi xalat kiymaganim uchun u menga yarashmagan, kengligidan halpirab turardi. Endi urinmasam ham bo'lar ekan: ayam aytgan bo'g'cha yana bir matoxga ko'payadigan bo'ldi. Menden chevar tikuvcchi chiqmasligi aniq edi.

JANNATDAN HAYDALISH

Singlim Toshxon tug'ilgan yili edi.

Bilmadim, dadam qizim jamoa hayotda yashashga o'rgansin debmi, yoki ammamning maslahatlari bilanmi, ishqilib ammamning farzandlari bilan lagerda dam olsin deb, olib borib qo'ydilar.

Lagerda kazo-kazolarning bolalari har yili necha oy lab dam olishar ekan. Menga u yer yoqmadı. Avvalo ayamni, dadamni, uyimizni sog'indim. Bahri ammam bolalarini va meni ko'rgani kelgan edilar, uyga olib keting, desam, yupatgandek "yana uch-to'rt kun dam ol, akam keladilar", dedilar.

Ammam aytganlaridek, dadam keldilar. Dadamga uyimizni, ayamni sog'inganimni, sochimni taray olmayotganimni, o'zim yuva olmasligimni (bilar edilar) vaj qildim. Har doim dadam mening ko'nglimga qarar, xohlagan ishim to'g'ri bo'lsa, bajarishga harakat qilar edilar...

— Mayli, otlaninglar, men lager boshlig'idan javob so'rayman, — dedilar. Shunday qilib birinchi va oxirgi lagerga borganim tarixi shunday bo'lgan.

Uyimizda Toshxon chaqaloq, hamma u bilan banddek. Ayamlarni ishlari yana ham ko'paygan.

Men katta qiz bo'lib qolgan edim. Buvimning aytishlaricha, "dastyorchilikka" yarab qolgan emishman. Uyimiz har doimgidek gavjum bo'lishiga qaramay, yozgi ta'tilda oyimlarnikiga borgim kelardi. Endi har kuni ertalab choyda, tushlikda, kechki ovqatda ham oyimlarnikiga boraman, deyaverdim. Dadam, shoferimizga ertaga Olmosni opamlarnikiga olib boramiz, dedilar. O'sha vaqtida bizni qo'ng'izga o'xshagan "Moskvich" mashinamiz bo'lardi. Har yilgidek Bahri ammam (dadamni kichik singillari)ni farzandlari Rustam, Farida, Rahbar ammam (dadamning o'rtancha singillari)ning farzandlaridan Po'lat (negadir Temur yo'q, katta bola bo'lib qolgani uchun kelmagan shekilli)ni oyimlarnikiga (Sabriniso — katta ammamlar, dadamni opalarini shunday deb buvim o'mida suyub chaqiramiz) olib kelib qo'yishgan ekan. Men ulami ko'rib suyunib ketdim. Oyim bag'rilariga olib, mehr bilan hamma oila a'zolarimizni so'rab-istab, sochlarni silab, olovdek kaftlari bilan yelkalarimni siypalab ko'rishdilar.

Oyimning so‘lim jannatmakon bog‘lari, keng bag‘rilariga Rahbar ammamning 7 farzandlari, Bahri ammamning 6 farzandlari, bizning uyimizdagi 6 bola, qayni, qaynag‘alarini bolalari sig‘ib ketaverar edi. Hammamizga alohida e‘tibor berilgani sabab, oyimning mehribon qo‘ynilariga shoshilar, u yerda yayrab yurar edik. Har qanday tartibli lagerlardan u yer biz uchun ming marta yaxshi edi.

Nima desak, ko‘nglimizga qarab, gapimizni ikki qilmay bajaradigan, sochlarmizni yuvib-taraydigan, ust-boshimizni ozodaligiga qarab turadigan Surayyo opam, Mavjuda opam, Nafisa kelinoyim bor edilar. Ularning ko‘z oldilarida erkin yayrab dam olardik.

O‘sha vaqtida Farida singlim hali murg‘ak oppoq, do‘ndiq, shirin erka qizcha (o‘sha vaqtida rusum bo‘lgan “Pariza toy” qo‘srig‘i unga atalib yozilgandek edi) bo‘lib, g‘oyat sho‘x va o‘jar edi. Hech kimning aytganini qilmas, sho‘xlikda “Tom Soyyerming” qiz bolasi edi, desa hech ham mubolag‘a bo‘lmasdi.

Agar biror kishi uning ko‘ngliga yoqmagan gap gapirsa (ko‘ngli juda nozik edi-da) yoki biror ish u kishimga yoqmasa, albatta tanbeh bermay yoki qasdini olmay qo‘ymasdi. Ko‘ngliga qaralmasa, arazlab kuydiradigan xilidan edi-da. Shu fe’llari pochchamga yoqmasligi sabab, ko‘pincha bir-birlari bilan chiqishmay qolishar edi.

Pochcham baquvvat, bo‘ychan, yelkador, siyosatdan xabardor, aqli, har xil nojo‘ya harakatlarga bir so‘z bilan chek qo‘yar edilar. Shu sabab hamma hayiqib turar edi. Pochcham tunu kun bog‘dan chiqmas, shu yashnab yotgan daraxtlar, chilvir sochdek mehr bilan taralgan ishkomlar, parvarishlangan har bir nihol u kishining mehnatlarining namoyishi edi.

Pochcham rahmatlik o‘zlari biror daqiqa bekor yur-maganlari uchun bolalarni ham hadeb bekor yugurib yuravermay, biror foydali ishga ham o‘rganishsin deb, ba’zan bizni bog‘ ishlariga o‘rgatmoqchi bo‘lar edilar. Afsus, u kishini bu urinishlari ko‘pincha besamar ketardi.

Men pochcham buyurgan ishlarini yaxshi, u kishiga yoqadigan qilib bajarishga harakat qillardim, chunki dadam mendan xabar olgani kelganlarida:

— Mirza Abdul G'afur Olmos malades, — deb maqtasalar, dadam xursand bo'ladilar (chunki pochchamning maqtovlarining obro'si bor), dadamni xursand bo'lishlari menga juda yogar edi... Dadamni har doim xursand qilgim kelardi...

Katta molxonada oxurlarga tushib baland-baland qilib uyib qo'yilgan bedapoyalar, qanorlardagi yemlarni orqasiga o'tib bekinmachoq o'ynab yurgan edik, pochcham:

— Mollarga makkajo'xorining poyasini maydalab beringlar, opalaring bozorga ketishgan edi, — dedilar. Men xo'p, dedim.

Endi poyalarni jodu (qirqqich)da maydalamoqchi edim, Farida ularni butunligicha oxurga soldi.

— Farida, pochcham maydalanglar dedilar-ku, — desam:

— Sigirlar och bo'lsa shunday ham yeb tashlaydi, — dedi.

Uyimizda mollar bo'limgani uchun men ham shundaydir deb qo'yaqoldim.

Bir mahal pochcham bir aylanib yana molxonaga kirsalar, mollar jo'xori poyalarning bargini yeb, poyasini yemaganini ko'rib bizga:

— Kim shunday qildi, — deb so'radilar.

— Men, — dedi Farida.

— Men poyalarni maydalab beringlar, degan edim-ku, buyurgan ishni qilginglar kelmasa boshqa odam qilar edi, mollarni qorni och qoldi, poyalarni nishxo'rdi bo'ldi, endi bu poyalarni mol emaydi, boshqasini o'rib kelish kerak, ertaga sutdan tortiladi, — dedilar-da, — Mavjuda, — deb chaqirdilar.

— Ha,— degan ovoz eshitildiyu opamning o'zlarini ko'rindilar, ish bilan band bo'lsalar kerak yoki hali bozordan qaytmaganlar. Pochcham yana:

— Mavjuda, — deb balandroq ovozda chaqirgan edilar oyim, Nafisa kelinoyim, Surayyo opam, Mavjuda opam birdaniga chiqib:

— Ha, — deyishdi.

Pochcham:

— Men Mayjudani chaqirdim, — dedilar va Mavjuda opamga qarab:— Bolalarga qarab yursang bo'lmaydimi, bular aytganni qilmaydi, mollarga maydalanmagan poyalarni solishipti, mollar eyaolmapti, bor, o'zing qara, — dedilar.

Oyim, ayniqsa, Faridani fe'lini bilganlari sabab, xafa bo'lmasin deb bo'lsa kerak, darrov bizni tomonimizni olib:

— Men joduga tegmanglar, yana u yer-bu yeringizni qirqib ketmasin, o'tkir, degan edim, — dedilar.

Pochchamni g'ashlari kelgani shundoqqina yuzlaridan bilinib turardi. Ular boshqa hech narsa demay, boqqa chiqib ketdilar. Yana hech gap bo'limgandek, hamma o'z ishi bilan band bo'ldi.

Biz yana qiy-chuv quvlashmachoq o'ynardik. Lekin bu voqeal ko'ngli nozik Faridaga yetarli edi. U arazlab qolgan edi. Shu kuni kechki ovqatga chaqirishganida boshim og'riyapti, deb yemadi.

Ertasi esidan chiqqandek choy ichdi-yu, keyin o'yinlarimizga qo'shilmay, kitob o'qib o'tirdimi, bilmadim, yo'q bo'lib ketdi. Bir mahal yana allaqanday baqir-chaqirlar, pochchamni qattiq-qattiq gaplari, oyimning yupatmoqchi bo'lgan ovozlari bog' tomonidan kelardiyu nima deyishayotganini anglab bo'lmasdi.

Men yana nima bo'ldi ekan, deb o'rtta hovlidan o'tib bog'ga chiqsam, oyim xunob bo'lib bir narsalar deyaptilar. Meni ko'rib pochcham indamay qoldilar. Surayyo opam, Mayjuda opam, Nafisa kelinoyim aybdor odamlardek qator bo'lib pochchamni dashnomrlariga quloq solib turishardi. O'rtada esa bir zambil aravada ko'm-ko'k husayni, toyipi, echkiemar — pochcham ayab gullaganda ishkomni to'sib, gulini to'kmasisin deb avaylab saqlaydigan uzumlari oftobda so'lib yarmi sarg'ayib uyulib yotar edi. Ustidan sovuq suv quygandek bo'ldi. Vaziyatni tushungan edim. Bularni kim yulib tashlaganini fahmlagan edim.

Pochchamning shuncha jizz'anak bo'layotganlari, Faridaning ertalabdan yo'q bo'lib ketgani bekorga emas ekan. Bunaqangi ishga faqat isyonkor, o'ziga nisbatan "tazyiq" larga chidab turolmaydigan Farida qodir edi. Bultur ham pochcham sabzini o'toq qilinglar, deganlarida, nedirki, menga ish buyurding degandek, "begona o't qaysi, sabzi qaysi bilmadim", deb necha ariq niholni yulib tashlagan edi. Lekin oyim Faridaning fe'lini bilganlari uchun izzat-nafsiga tegadigan gap gapirmas edilar.

Kattalar boplab gap eshitishgan shekilli, hammaning kayfiyati buzilgan. Pochcham jazavalari tutganu meni ko'rib biror nojo'ya gapni mehmon qizni oldida gapirmay dedilar shekilli:

— Bor, hammang ishingni qil, — dedilar-da qo'llarini silkib ishkomlar ichiga kirib ketdilar. Oyim menga qarab:

— Olmos, bu noinsoflikni kim qildi? — dedilar.

Men bilsam ham:

— Bilmadim, — dedim.

Biz tashqari hovlidagi so'rida Rustam, Po'lat, Bahodir qog'ozga yozib shahar aytish o'yinini o'ynayotganimizni hamma ko'rgan edi. Shu sabab bo'lib o'tgan voqeadan bexabar qolgan edik. Oyim boshqa gap so'ramadilaru:

— Bu yil hosil yaxshi edi. Shuncha uzum nobud bo'ldi, sara bo'lib pishsa sotib qishlik ro'zg'or qilamiz, deb umid qilgan edik-a... Na pochchang, na men ishlamasak, opalaring o'qishsa, bitta Vohidni topgani nima bo'ladi, — dedilar o'zlariga gapirgandek.

Men oyimning ezilib gapirganlariga achinib:

— Oyijon, xafa bo'l mang, dadamga aytaman, yordam beradilar, — desam battar xunob bo'lib:

— Dadangga aytgin deyayotganim yo'q, u ham jo'jabirdek jon, menga qiladimi, singillariga, Xolidaga qiladimi yordamni, — dedilar.

Men zambildagi uzumdan bittasini uzib yeb ko'rsam, achchiq, shuncha g'o'rani endi nima qilinadi, pishsa bir arava bo'lsa kerak edi, deb o'ylayman. Pochchamning bir yilgi mehnatlariya, xafa bo'l ganlaricha bor, deyman o'zimga o'zim.

Nima qilarimni, nima deyarimni bilmay yuragim siqilib uyga ketgim kelib qolgan edi. Bu noxush voqeaga men ham aybdordek edim. Qani edi oyimni, pochchamni xafa bo'lishganini ko'rmasam edi, deb ko'chaga chiqib, loyqalanib oqayotgan ariq labiga o'tirib suvni jimir-jimiriga qarab boshim aylanib, ko'zim tinib ketdi.

Dala ko'cha bo'm-bo'sh, hech kim yo'q, havo issiq, uzoqlardan uy hayvonlarining eringan cho'ziq ovozi, itlarning bezovtalanib hurishi, ahyon-ahyonda qo'shni bolalarmi qiyqirib

ariqda cho'milib o'ynayotgan ovozlari eshitilardi, xolos. Choshgoh bo'lib qolgan edi.

Mavjuda opam hovlilarga suv sepib, ko'chaga ham ariqdan suv olib sepayotib:

— Olmos, nega bu yerda o'tiripsan, ariqqa yiqlilib tushma, tez oqadi, ancha chuqur, — dedilar.

Men: "Oqib ketsam-a, cho'karmikinman, suzishni bilmaymanu, ayam yig'lardilar-da, dadam nima qiladilar, kimni "mosh" deb chaqiradilar, kim oyoqlarini yuvadi", deb o'ytab ayam, dadamga rahmim kelib ko'zimga yosh keldi, hech kim ko'rmasin deb etagim bilan ko'zimni artdim, uyga ketgim kelardi.

Nima qilsam ekan-a, Farida qani? Hozir opalarimga uyga olib boring desam, oyim nima derkinlar?

Mavjuda opam suvni ko'loblatib sepayaptilar, issiq havoda yerdan chiqayotgan tuproq isi ham yoqimli, bir oz ko'nglim yorishgandek bo'ldi.

— Yur, uyga, ovqat yegin, qorning ochgandir?

— Uncha emas.

— Xafa bo'lma, dadam seni urishmadilar-ku.

— Sizlarni, oyimni urishdilar-ku!

— Yo'g'-a, biz o'rganib qolganmiz, gaplari to'g'ri-ku, shuncha uzumni mol ham yemaydi, axlatga tashlash uvol, ha, mayli bo'lar ish bo'lgan... Yur...

Mavjuda opam uzun sochlarni chambarak qilib olganlar, terlagen chakkalaridagi o'rimga kirmagan mayda sochlari ho'l bo'lib jingalak bo'lib ketgan, biram chiroylilar, havasim keladi.

Ovqatni bog'dagi buloqdan oqib keladigan muzdek tiniq ariqcha yonidagi loy supaga joy solib suzib qo'yishgan ekan. Negadir hali hech kim ovqatga kelmapti. Bolalar Rustam, Bahodir, Po'lat bog'ni ichidan pomidor, bodring terib chiqishdi. Kelinoyim o'choqboshidan qatiq, achchiq-chuchuk olib kelib dasturxonga qo'ydilar. Kichkinalar ovqat yeb uplashgan bo'lsa kerak, ko'rinishmasdi, shu sabab samovarni ham so'ri yoniga olib keldilar. Tashqari hovlidan oyim, Surayyo opam kelishdi. Mavjuda opam hovli burchagidagi umivalnikda yuvindilar-da, dasturxonga keldilar. Pochcham yo'q edilar.

Oyim bolalarga:

— Tez-tez ovqatlaringni ichib, kirib birpas dam olinglar,— deb bismilloni aytib, ovqat ichishni boshlab berdilar. O'g'il bolalar uzala tushib, apil-tapil moshxo'rdani xo'rillatib, aralash-quralash, olma, pomidor, bodringu choyni qo'shib ichib turib ketishdi.

Hammayoqni moshxo'rdaga chakilgan rayhon hidi tutib ketgan edi.

— Farida qani, nega ovqatga kelmad? — dedilar oyimlar. Mavjudha opam:

— Yemas emish, — dedilar.

Meni ham yegim kelmay, zo'rg'a bir-ikki qoshiq ichgandek bo'ldim. Qip-qizil go'shtli pomidorni non bilan eya boshladim. Kelinoyim:

— Choy iching, — dedilar turib ketayotganimni ko'rib.

— Yo'q, — ishorasini qilib, ichimda fotiha o'qib, Faridani qidirishga tushdim.

Ertalab ko'rganimcha, qayerlarda izg'ib yuripti ekan?

Hammayoqni qaradim, hech qayerda yo'q. Tashqari hovlidagi ayvonga narvon qo'yib chiqsam, Farida taxmondag'i ko'rpalarini ag'darib o'rtasida uqlab yotipti. Uni uyg'otmay men ham bitta ko'rpachani solib yotdim. Ayvонни bir yog'i bog'ga, bir yog'i tashqari hovliga, bir yog'i ichkari hovliga qaragan edi. Tepadan bog'dagi supada ovqatlanayotganlar, bog'ning yarmi, qulupnayzor, o'rikzor, ishkommlarni bir qismigacha ko'rinar edi. Farida qilar ishni qilib, shu yerda biqinib olgan bo'lsa, pochchamni hamma gaplarini eshitgan, shuning uchun qo'rqqanidan pastga tushmaganga o'xshaydi.

Farida bu ishni pochchamning kechagi molxonadagi gaplariga achchiqlanib qilgan bo'lsa kerak. Bo'lib o'tgan noxush voqeani o'ylab yotib, uqlab qolibman. Uyg'onsam, Faridayonimda biqinib o'tiripti, bo'yi cho'zilganidan ko'ylagi kichkina kelib qolgan. Uning ahvolini tushunardim, faqat unga hech narsa deya olmasdim, rahmim kelardi, xolos.

— Olmos, uyimizga ketavlik...

— Meni ham ketgim kelayati, ayamni, dadamni sog'in-dim...

— Sen bilmaysan... pochcha bu ishni kim qilgan bo'lsa bu yerda yurmasin dedi, ketaylik...

- Fari, nega unday qilding?
- Pochcha mollarini, uzumlarini yaxshi ko'rib parvarishlashini ko'rganmisan. Ishkomlar ichida o'ynashimizni ham yoqtirmaydi, bizdan ko'ra ularni yaxshi ko'radi. Shuning uchun jahlim chiqib, uzumlarini uzib tashladim. Ketaylik... kechroq bo'lsin, meni hech kim ko'rmasin...

— Xo'p, ketamiz... lekin uzumlarda nima gunoh?

Undan boshqa gap so'ramadim. Kech kirib, g'ira-shira bo'ldi. Farida ikkalamiz sekingina ayvondan tushdik, ko'chalik toza kiyimlarimizni ham kiya olmaymiz, maqsadimizni sezib qolishlari mumkin. Sekin ko'chaga chiqdik. Na o'rta hovlida, na tashqari hovlida hech kim yo'q, hamma o'z ishi bilan band. Oyimni bog'laridan 10-tramvay yo'ligacha aravalar yuraverib upaga o'xshab ketgan issiq tuproqqa sandalimiz to'lgan, ahyon-ahyonda xira chiroq o'chib yonib turadi. Izg'ib yurgan itlardan qo'rqb, turtinib-surtinib tramvay bekatiga yetib kelganimizda yuragimiz og'zimizga tiqilib qolgandek hansirardik. Bekat gavjum, odamlar bor, chiroq ham yonib turipti. Bir ozdan so'ng tramvay keldi, biz chiqdik. Pulimiz yo'g'ini konduktorga aystsam, mayli, degandek, qo'l silkib qo'ydi-yu, qayerga borishimiz bilan qiziqmadi ham. Oxirgi bekat skver ekan, u yerdan tramvay aylanib yana kelgan yeriga qaytib ketar ekan. Endi qaysi tramvayga chiqishni bilmay, u yoq-bu yoqqa qaraymiz. Farida to'rtinchi tramvay deydi, men esa birinchi tramvay deyman. Bir kishi to'rtinchi tramvay bu yerdan yurmaydi dedi.

Men hech ayam, dadamsiz tramvaylarga tushib yurgan emasman, adashib qolmay deb qo'rquyapman. Farida o'ris maktabida o'qigani uchun mendan ancha dadil, notanish odamlardan tortinmaydi. Bitta o'ris xotindan borib so'rasa, hozir tramvay ketdi, kutinglar, yana kelib qoladi, depti. Yig'lab yubormay deb bir-birimizga biqinib turgan edik, bitta kishi kelib:

— Ha, qizlar, qayerga ketayapsizlar, — desa, Farida negadir o'rischalab:

— Domoy, — dedi. U kishi:

— Uylaringiz qayerda, — desa Farida:

— Opamniki Beshyog'ochda, meniki Gulistonda, — dedi.

O'sha kishi:

— Men ham o'sha yoqqa boraman, sizlarni birga olib ketaman, shu yerda turinglar, — dedi.

Notanish kishi bizni kuzatib turganmi yoki ahvolimizga achindimi, bilmadim, unga ishonsa bo'ladigandek edi.

U bizni gapga soldi, tashqaridan ko'rinishimiz ayanchli bo'lsa kerak, ko'yaklarimiz kir, kalta, tizzamizga yetmaydi, qo'rqib, titrab turi pmiz. Haligi kishi Faridaga qarab:

- Kimni qizisan? — dedi.
- Menmi, dadamni, — dedi Farida.
- Dadangni otlari nima?
- Sodiq Yo'ldoshev.
- Qayerda yashaysizlar?
- Guliston ko'cha, Rozoviy tupikda.
- Ha, yaxshi, mакtabda o'qiysanmi?
- Ha, ikkinchi klassni tugatdim.
- Sen-chi, — deb mendan so'ragan edi Farida bidillab:
- Olmos tog'amni qizlari, siz bilasizmi G'afur G'ulomni?
- U kishini hamma biladi.
- O'sha meni tog'am, Olmosni dadasi...
- Voy puchug'-ey, ja biyronsanku-a, opangni o'zi gapirishni bilmaydими, shu yarim kechada nima qilib yuripsizlar?

- Oyimlarnikidan uyimizga ketayapmiz.
- Nega sizlarni yolg'iz yuborishdi?
- O'zimiz ketgimiz keldi, uyimizni sog'indik.
- Ha, mayli, unday bo'lsa, men uylaringga olib borib qo'yaman, — dedi.

Shu vaqt tramvay keldi. O'sha notanish kishi avval bizni vagonga chiqardi-da, so'ng o'zi chiqdi. Vagonga chiqqach, ikkalamiz bir-birimizga yopishib o'tirib oldik.

Tramvayni g'iyqillab shoshilmay yurishi allalagandek, uqlab qolay-uxlab qolay, deb turganimizda Beshyog'ochning tramvay aylanadigan (Eski Beshyog'och bozori o'rtasida apteka, tramvay aylanasi bor edi, esingizda bo'lsa) yeriga keldi. Haligi kishi ikkalamizni oldiga solib yangi qurilayotgan imoratlar, yangi ko'pri, teatr binosi yonidan o'tib uyimizga olib keldi.

Men bilan Faridani begona odam boshlab kelganini ko'rib, ayam va dadam hayron bo'lib qolishdi. Haligi kishi

bizni skverda ko'rib qolganini, keyin boshlab kelganini aytdi.

Ayam uni choyga taklif qildilar, unamadi. Olmazorlik ekanini, ismi-familiyasini, dadamni yaxshi tanishini aytdi, dadam, ayam unga rahmat aytib, eshikkacha kuzatib qo'yishdi. Farida uyimga, ketaman, deb g'ingshiyotgan edi, dadam qat'iy:

— Ertaga borasan, — dedilar.

Dadamni gaplarini hech kim ikki qilmasligini Farida bilardi, shuning uchun nochor qolishga majbur bo'ldi.

Bo'lib o'tgan voqeani negadir so'rashmadi, o'zimiz yurak yutib aytmadik. O'zboshimchalik qilganimiz dadamni xursand qiladigan yoki maqtaydigan ish emasligini bilar edik. Dadam sezgir odam, bizni biror sabab bilan shunday qorong'ida uuga kelganimizni sezdilarmi, yo'qmi bilmadim.

— Hamma gapni ertaga aytasizlar, hozir yuviniib, ovqat yeb, marsh uqlashga, rosa charchaganga o'xshaysizlar, — dedilar.

So'roq, javob bo'limganiga quvonib, chala-pulcha yuviniib, ovqatni yeyar-yemay Farida o'tirgan joyida uqlab goldi.

Dadam astagina ko'tarib, pashshaxona ichiga solingan o'ringa yotqizdilar, men ham Faridani yoniga borib uqlab qolay deyapmanu u alahlagandek uyqusida cho'chib allanarsalar, deb gapirayapti. Bo'lib o'tgan voqealarnimi yoki qo'rqnichli tush ko'rayotganmikin?

Men o'z uyim, ayam, dadam, savat aravachada uqlab yotgan chaqaloq singlim, ukalarim, buvim oldilariga kelganimgatinchib uqlab qolipman. Bir vaqt g'ovur-g'ovurdan (hali ham tong otmagan edi shekilli) uyg'onib ketib pashshaxonadan boshimni chiqarib qarasam, gilos tagidagi so'rida dadam, oyim, Bahri ammam, ayam choy ichib o'tirishi pti.

Gaplariga qulq solsam na oyimlarnikidagilar, na Bahri ammamnikidagilar kechasi bilan bog' ko'chalarni, tramvay yo'llardan bizni qidirib har xil xayollarga borib uqlashmapti.

Farida ikkalamiz oyimlar bizni qidirib xavotir bo'lishlarini o'ylamapmiz ham. Dadam hamma bo'lgan ishlardan xabardor bo'lganlar shekilli, oyimdan nimalarnidir so'rar edilar. Farida

g'ujanak bo'lib alahlaganga o'xshab titrab, cho'chib-cho'chib uxbab yotardi.

Dadam aytganlaridek, u hali murg'ak-da, uyg'a yetib kelgunimizgacha men qancha qo'rqedimu... Sho'xligidan yiqilib-surilganida qirilib yara-chaqa bo'lib ketgan tizzalarini choyshab bilan yopib qo'ydim. Dadam nega kechasi yolg'iz, hech kimga aytmay uyg'a qaytdinglar, deb so'ramadilar.

Baribir oyimlarnikida yayrab mehmon bo'lib yursam-da, meni butun borlig'imni tushunadigan, voyaga yetishim, odamlar ichida teng huquqli inson bo'lib yetishishimda otanonamdan o'zga mehribonim yo'qligini o'sha vaqtdayoq sezganimni bilishgan.

Shu sabab, mendan biror gapni qayta tasdiqlab so'rashmagan. Lekin shu voqeadan so'ng dadam ham, ayam ham meni hech kimnikida yotib qolishimga ruxsat berishmadni. O'zim ham na xolamnikida, na oyimlarnikida yotib qolay, demadim.

Agar oyimni sog'indim desam, ayam, dadam vaqt topib olib borib, oyimlarni ko'rsatib, bog'larda yayratib, o'sha kuniyoq qaytib uyg'a olib kelishadigan bo'lishgan.

DANDON SOPLI PICOQ

Dadam — G'afur G'ulomning ijodlariga sharq, g'arb va dunyo xalqlarining qiziqishi juda katta edi.

Dadamga butun dunyodagi she'riyat ixlosmandlaridan xatlar kelardi. Ularning ko'pchiligi hozirgi kungacha saglanib qolgan. Dadam xatlarga qunt bilan javob yozar edilar. Ba'zi xatlarni konvertiga "javob yozildi" deb sanasini ham yozib qo'yar edilar. Ba'zi xatlarning chet tillarga tarjima qilingan nusxalari saqlangan.

Dadamlarga xatlar ko'p kelgani tufayli yozgan javoblari bir nusxada bo'lgani sabab, saqlangan bo'lsa, faqat javob xat olgan odamda bo'lishi mumkin. Shuning uchun dadamga kelgan xat bor, dadam yozgan javob xatni o'qishga muyassar emasmiz.

Yoqutiston shoiri Semyon Danilov dadam ijodlarining muxlislaridan bo'lgani uchun bir qancha she'rlarini ruschadan yoqut tiliga tarjima qilgandi.

60-yillarda O'zbekistonning dong'i olamga taralgan tarixiy shaharlarini ziyorat qilish, shoiru fuzalolari bilan ko'rishish maqsadida Toshkentga keladi.

Yozuvchilar uyushmasi bilan bog'langan, unga Shunqor degan shoirni hamroh qilib qo'yadilar. Shunda u dadamlar bilan ko'rishish orzusi borligini aytadi.

Yozuvchilar uyushmasida dadam Semyon Danilov bilan uchrashib, uyimizga mehmon qilib chaqiradilar.

Dadamning keng fe'lliklari, mehmondo'stliklari, odamoxunliklari yoqut shoirini sehrlab qo'yadi, shekilli, u uyimizga kun ora kelib turadigan bo'ldi.

Dadam unga Toshkent atrofini, Farg'onani tomosha qildiradilar. Oilamiz bilan dasturxon atrosida gapirishib o'tirganimizda:

— Semyon, yoqut tili turk guruhi tiliga kiradi, shu sababli tillarimizu dillarimiz, hatto urf-odatlarimiz ham o'xshash,— dedilar dadam.

Dadam tarixni yaxshi bilganlari uchun ba'zi tarixiy voqealarning taqagini, afsonalar, ertaklarning mushtarakligi haqida mushohada bildirdilar.

Biz bolalar yoqut tiliga qiziqib qolib, Semyon Danilovdan ba'zi so'zlarni so'rardik. U bajonidil aytib berardi.

Semyon Danilov bizning yoqut tiliga qiziqib qolganimizdan sevinib, gap orasida:

— Men uyimga boray, sizlarga ruscha-yoqutcha lug'at berib yuboraman,— dedi. U dadamning she'rlarini yoqut tiliga qilgan tarjimasini o'qib berdi. Bizga yoddi.

Gapdan-gap chiqib Danilov ona yurtining iqlimi, buyuk muzlash davrigacha Yoqutiston issiq mamlakat bo'lgani, u yerlarda issiq joylardagidek o'simliklar, hayvonot dunyosi bo'lgani haqida gapirib berdi.

— Ba'zi muzliklar eriganda u yerdan tropik o'simlik qoldiqlari, hayvonlarning suyagi, jasadi topiladi,— dedi u gapida davom etib.— Mamont suyagi va kit suyaklaridan yoqut hunarmandlari noyob san'at asarlari, zebu ziynatlar yashashi.

Semyon Danilovning safari tugagach, yurtiga qaytayotganda dadam uning rafiqasi va o'g'liga o'zbek milliy kiyimlari: to'n, do'ppi, atlas, so'zana sovg'a qildilar.

Uning dadamga yozgan xatlari anchagina. Bulardan birida u kitobini Shunqor orqali nashriyotga berdirganini, uning taqdirini bilish uchun Shunqorga necha bor xat yozib, javob ololmagani haqida yozadi.

Dadam Danilovning kitobi haqida surishtirib, javob yozgan bo'lsalar kerak, keyingi xatida rahmat aytadi.

Xatlaridan birida dadamlarga atab "G'afurni do'ppisi" sarlavhali she'r yozgani va u Yoqutiston gazetasida chiqqanini yozadi. Shu xatida dadamlarga rus-yoqut lug'atining 2 tomini, ayamlarga yoqut ayollari kiyadigan bug'u terisidan tikilib, qo'njilariga marjondan milliy naqsh tikilgan etik yuborganini yozadi. O'sha etik juda chirolyi edi. Hammamiz necha bor kiyib ko'rgandik.

Yana bir xatida dadamlarga mamont xartumining bir bo'lagini yuborganini yozadi. Mamont xartumini dadam pochtadan olib kelganlari esimda bor.

Qancha yo'llarni bosib kelgan, necha astlar nari Yoqutistonda yashagan mamont xartumi antiqa muzey eksponatidek ancha vaqtgacha olib chiqib ko'rsatilib yurildi.

So'ng dadam uning bir bo'lagini arralatib Andijonga jo'nadilar. Andijonning Xo'jaobod hududida yashaydigan do'stlari Jo'ra polvonnikiga borganda mamont xartumini ko'rsatdilar. Undan pichoqqa sop yasattirmoqchiliklarini aytadilar.

Jo'ra polvon Qorasuv qishlog'ida do'sti Asqar pichoqchi borligini aytadi-da, dadam bilan shu qishloqqa borishadi. Qishloq aholisi dadam bilan uchrashuv o'tkazadi.

Asqar pichoqchi "shogird ustozdan o'tipti", degan maqol to'g'ri ekan deydi-da, "Siz qanday pichoq yasatti-rishni xohlasshingizni o'g'limga aiting, yasab beradi – dedi. – U pichoq yasashda mendan o'zib ketgan".

Shunda dadam pichoqni katta-kichikligi, enini, qanday naqshlar chizilishini (rasmini o'zları chizib beribdilar) va o'rtasiga "G'afur G'ulomdan sovg'a deb yozinglar, o'ziyam keskir, oliy nav po'latdan bo'lsin, sopini mamont xartumidan yo'ninglar, G'afur G'ulom sovg'asiga arzigudek bo'lsin", deptilar-da, mamont xartumini berib, o'zları jo'nab ketip-tilar.

Bir necha kundan so'ng pichoqlar tayyor bo'lipti. Pichoqlardan Jo'ra polvon va uning o'g'illariga sovg'a qilip-tilar. So'ng ancha vaqtgacha uyg'a kelgan mehmonlardan o'zlariga yoqib qolganlariga, do'stlariga sovg'a qilib yurganlari esimda. Mamont xartumidan dandon sopli, oliv nav po'latdan, "G'afur G'ulom sovg'asi" deb yozilgan pichoqdan haliyam ayamlarni bisotlarida bor.

Mamont xartumini bir bo'lagi ham dadamni ishxonalaridagi kitob javonida haligacha saqlanmoqda.

Semyon Danilov xatlaridan birida go'zal O'zbekistonni, do'stlarini sog'inganini, hayotbaxsh asal mevalarini to'yib yegisi kelayotganini yozadi.

"Sizlarda so'lim bahor, mevalar pishayapti, bizda esa qahraton qish. Xotinim bilan O'zbekistonga borib dam olmoqchi edim, do'xtirlar ruxsat bermayapti. Bizda sovuq, sizlarda esa issiq, bu tafovut sog'ligimga to'g'ri kelmas emish. Lekin sizlarni, Toshkentning bog'larini tushlarimda ko'raman", depti xatida.

Dadam bu dil so'zlariga javob yozib, shifo bo'lsin deb mevalardan sovg'a yuborganlar.

Dandon sopli eng sifatli po'latdan yasalgan keskir Andijon pichoqchilarining ishi pichoq — "G'afur G'ulom sovg'asi"ning tarixi mana shundan iborat.

ESHAK YEMI

Baxtga qarshi sirg'alib ketib (fasonlik qursin, baland poshnali tuflining kasri) yiqilib, kaftim bilan bilagim o'rta sidagi suyak sinib qoldi.

Gips solishdi.

Sal yosh o'tgach, chiqqan-singanning bitishi qiyin bo'lar ekan. Salkam ikki oy deganda, gipsni oladigan bo'lishdi.

Jarrohga borsam, o'ylab turib bir qator massaj, fiz-kultura, lazer, elektroforez degan muolajalarini yozdi.

Yozganlarining hammasini bajaradigan bo'lsam, yana uch oy do'xtirxonaga qatnashim kerak. Shu muolajalar qog'ozini o'qib tursam, bir tanish do'xtirni ko'rib qoldim.

So'rashganimizdan so'ng:

— Tinchlikmi? — dedi. Bo'lib o'tgan voqeani aytdim.

U ham jarroh ekan. Qo'limdagi muolaja qog'ozlarini ko'rib, boshini u yoq-bu yoqqa burdi-da, xonasiga taklif qildi.

Qo'limdagi rentgen qog'ozni ko'rди-da:

— O'-ho', bu jarohat hali-beri bitmaydi, umuman, bitib ketishi amrimahol, — dedi.

Mening kayfim uchib ketdi, "uh" tortib, yonimdagি stulga holsizlanib o'tirib qoldim.

— Tezroq tuzalib ketishim uchun nima qilishim kerak?

— Sizniki "osobiy sluchay", qo'lingiz klassicheskiy joyidan singan, — dedi-da, — bilmadim, — deb yelkasini uchirib qo'ydi va, — balki Izroildan keltirilgan kremlardan surtib ko'rish kerakmikin, — dedi gapini davom ettirib. — Ularning tarkibida "mertvoye moreni" tuzlari bor, shularni sursangiz tuzala-siz-ov.

Men nima qilishni bilmasdan o'zimni tahqirlangan, nogiron odamdek sezardim, noiloj:

— Ular qayerda sotiladi, — dedim.

U dardimga davo beradigandek sirli imo qilib, "topamiz" ishorasini qildi.

Men suyunib:

— Sotiladimi? — dedim.

U bo'lsa og'zini yelidek:

— Hah, arzon, 35 dollar, — dedi.

— A, mening shuncha pulim yo'q-ku, yana dollar?

— Unday bo'lsa, bilmadim, — dedi, shu ham pulmi, degandek bepisand qarab.

Odamiar sog'ayib ketish uchun nimalar qilishmaydi, deb ko'nglimdan o'tkazib:

— Xo'p, bir amallab topib kelarman, — dedim.

Topib kelib, o'sha maqtovli kremni sura boshladim. Ikki-uch marta surgach, singan yerimgina emas, butun bilagim g'adir-budur bo'lib shishib, parcha-parcha qizarib chiqdi.

Yana o'sha tanish jarrohga chopdim.

U bilagimni ko'rib, meni allergologga olib bordi.

Allergolog:

— Voy-bo'y, nima dori ichgan edingiz? — dedi.

Tanish jarroh meni gapirtirmay, “kasallik tarixim”ni aytib berdi.

Allergolog:

— Siz tavsiya qilgan kremga qo’shimcha, — deb jarrohga qarab olib, menga: — Terining butun qatlamlari, suyakning singan-chiqqan, darz ketgan jarohatlarini va allergiyaga qarshi superkrem bor, xohlasangiz, toptirib beraman, — dedi.

Mening “xo’p” deyishdan boshqa ilojim yo‘q edi.

Superkrem 45 dollar ekan.

Bir amallab doollar topib, superkremni ham oldim.

Ertasidan superkremni sura boshladim.

Bilagimdagagi qizillik butun badanimga tarqaldi.

Kechasi bilan uyqu yo‘q, qichinaman, kremlarni surmay desam, shuncha pulga olganman, “puli kuygan qalampir chaynar”, degan maqol to‘g‘ri ekan.

Kremlar singan qo‘limga “massaj” o‘rniga o‘tdimi, haytovur issiqsovuuqqa chidaydigan, kir-chir yuvsam ham suyagi og‘rimaydigan bo‘lib, o‘zimga-o‘zim yarab qoldim. Faqat allergiya qurg‘ur o‘tmayapti.

Bir kuni ko‘rgani dugonam keldi.

— Do‘xtirlarga borishga bezillab qolgan bo‘lsang, mening tanish tai pim (tabib) bor, olib boray, — dedi dugonam.

Uning maslahati yoqib tushib, tabibga birga bordik.

Tabibga voqeani boshidan aytib berdim.

Tabib menga:

— Singlim, sizga eshak yemi toshipti, o‘sha superkrem-larni surishni bas qiling, oir-ikki kun isiriq qaynatib cho‘miling, isiriq soling do‘xtirlaringizning ko‘zi bor ekan. So‘ng eshakka yem boring, — dedi.

Men hayron bo‘lib:

— Qanday qilib? — dedim.

Tabib menga:

— U shunday bo‘ladi: orqa etagingizga yem solasiz. So‘ng eshakka yedirasiz, vassalom, tuzalasiz, — dedi.

Tabib aytganini berib, chiqayotib o‘layman. Eshakni qayerdan topaman, u qizil kitobdagagi jonivor shekilli. Keyin eshakning kuchi halol, o‘zi harom deyishgudek edi. So‘ng u tepib yuborsa-chi...

Tabib aytgan "muolaja"larni ko'z o'ngimga keltirdim. Yana bir maqol "tabib aytganini..." Yo'g'-e, hammasini emas, yarmigacha qilib ko'ray-chi. Yana eshak tepib, "kasallik tarixi" boshidan boshlanib yurmasin tag'in...

— Siz nima deysiz?

HARIR DURRA

Hikoya

Tashqarida bolaning chinqirib yig'lagani eshitildi. Bolalarimga biror kori hol bo'ldimi deb hovliqib, sirg'alib yiqildim.

Og'riqning zo'ridan tishimni-tishimga qo'yib, zo'rg'a yugurib chiqsam, bolalarim ko'rinxaydi. Uyimizga mehmon kelgan ekan.

Qizcha yotsirab, otasiga erkalanib yig'layotgan ekan. Bir ahvolda so'rashdim. Dasturxon tuzolmaganiimga uzr so'radim.

Juda besaranjomlandim. To'lg'oq boshlangandek bo'ldi. Bola tug'ilish muddatiga hali bir oydan ziyodroq vaqt bor edi.

Bolalarimning dadasiga qo'ng'iroq qildim, do'xtirlar bilan oldinma-ketin kirib keldilar.

Singan-chiqqanga qaraydigan do'xtirlarning biri ko'rib:

— Ikkita qovurg'angiz ichkaridan singan, gips solib bo'lmaydi, qovurg'alar pardani ichida bo'ladi, o'zi vaqt bilan tuzalib ketadi. Lekin qaltis harakatlar qilmang, qattiq og'riq beradi, homilangiz bor ekan, og'riq qoldiradigan dori berib bo'lmaydi, bolaga ta'sir qilishi mumkin, chidaysiz, — dedi.

Ginekolog ko'rib:

— Homila tonus (tushib ketish holati)da, zudlik bilan tug'uruqxonaga olib ketish kerak, bola nobud bo'lmagining oldini olish zarur, — dedi.

Ko'chada ikki o'g'lim ko'zlarida yosh bilan qolishdi...

Bir oydan ko'proq tug'uruqxonada bolani saqlab qoladigan muolajalar qilindi. Siniq qovurg'a bilan homilani ko'tarib yurib yomon azob chekdir.

Na yotib bo'ladi, na o'tirib, kechayu kunduz yurib kunim o'tdi. O'g'illarim dadasi bilan ko'rgani kelganda:

— Aya, chaqaloq tug'ildimi? Qachon tug'iladi? — deb so'rashadi.

Ularga har kuni:

— Ertaga, — deyman.

Xudoyim yo'l berib, eson-omon ko'zim yoridi.

Necha yillar orzulaganimiz — qizchamiz sog'-salomat dunyoga keldi.

Tug'uruqxonada men uzoq yotib do'stlashib ketganimdanmi, hamshira qizlar shirin qizchamni yaxshi ko'rishib, bиринчи emизishга olib kelishgандayoq соchiga qizil lentadan bantik taqib qo'yishibdi.

— Voy, nega unday qildinglar? — dedim.

— Juda shirin, hamima yangi tug'ilganlarning baridan boshqacha, bo'lalik, — deb yeri ko'kka ishonmay qo'g'irchoq o'ynagandek ko'tarib kelishadi.

Shunday qilib, do'xtirlar qovurg'alarim tuzalganini, yangi mehmon — qizcham eson-omonligini aytib, uyimga ketishga ruxsat berishdi.

Uyga dadasi, chaqaloq bilan kirganimizda onam, qaynonam sochuv sochishib, ko'zları quvonchdan yoshlanib, o'z uying o'zingga buyursin, deyishgani, o'g'lliarimning qiy-chuvlariyu quvonganini ko'rib, tortgan barcha azoblarim bir zumda esimdan chiqib ketdi.

Yotoqxonamizga kirdik. Men va qizcham uchun tayyorlangan yangi o'rın-ko'rpayu sochiqlar, chaqaloqqa taxlab qo'yilgan yo'rgaklarni ko'rib, umr yo'ldoshim, ikki onamdan shunday minnatdor bo'ldimki! Chunki hech narsa tayyorlamay, nogahon tug'uruqxonaga ketgan edim-da. Umr yo'ldoshim bizni sabrsizlik bilan kutganlari hamma narsadan sezilib turardi.

Qizchamizni karavotchaga yotqizmoqchi bo'lib yostiqchani surdim. Tagida qizil narsa ko'rindi, olib qarasam, harir durram.

Dadasi:

— Ayasi, tug'uruqxonaga shoshilib ketayotib, uyda o'raydigan durrangiz boshingizdan tushib qolgan ekan. Qayerga qo'ysam ham ko'zimga tashlanaverdi. Oxiri, bag'rimga olib, isingizni iskab yotdim. Bugun chaqaloqning yostig'i tagiga

qo'yib ketgan edim, o'rab oling, yarashadi. Farzandlarimizni birga o'stiraylik. Sizsiz juda qiyaldik, — dedilar.

Bir qo'llarida qizchamiz kulimsib, ota-onasining diydor quvonchlaridan bexabar uxbab yotardi. Ikki yo'l o'rtasida paytimdagi barcha xavotirlar chiqib ketgandek tinchlandimda, erimning keng ko'kragiga boshimni qo'ydim. Ikki o'g'lim yotoqxona ostonasida bizni kuzatib baxtiyor qarab turishardi.

Men imo qildim, ular ham yonimga kelib bizni achenlab olishdi. Ayvondan quda-qudag'aylarning jonon piyolaning jangur-janguridek shodon suhbatlari eshitilib turardi.

SAVODI CHIQDI

Hajviya

Ichkaridan biri-biridan xushro'y, zamonaviy kiyingan ikki qiz bir gapirib, o'n kulib chiqishdi. Kutishdan bo'larim bo'lib turganda, bu kayfichog'lik menga ozgina malol keldi. Qabulxona bekasi — kotiba qiz nihoyat menga ichkariga kirishga ruxsat berdi.

Eshikni ochib:

— Mumkinmi? — deb so'radim. Stolning to'riga qo'yilgan katta kresloga yastangan, bevaqt semirib ketgan yigit menga o'qrayib qaradiyu indamadi. Kirish-kirmasligimni bilmay, noilojina iymanib kirdim. Avvaliga ikkilandim va yana bu eshikni ochish menga oson emasligini bilganim uchun bitta qadam tashladim. Yigit gapirgisi kelmay:

— Hi, — dedi. Battar o'ng'aysizlandim, salom berdim, javob yo'q. Ismim, otamning ismini, ishlaydigan joyimni aytdim, javobimdan qoniqmadi shekilli, yana:

— Hi, — dedi.

Xona salqingina, qo'sh konditsioner ishlab turardi. Stol ustidagi sochiq yopilgan choynakdan piyolaga choy quydi, xohlamay menga qarab ho'pladi:

— Hi, — dedi yana.

Men uning dim, chang, o'rindig'i ham yo'q qabulxonasida tik turaverib charchagandim, oyog'imdag'i baland poshna tuflim (oliftalik qursin) og'ritardi.

— Men ko'p marta qabulingizga keldim, hech kira olmadim, ishxonamizga ba'zi jihozlar kerak edi. Shu ishni siz hal qilarkansiz.

— Hi, — dedi u yana. Ishim tushib kelmaganda-ku, "Onangiz "hi"lab tuqqanmi?" deyishim tayin edi. Ammo hozir eshitmay qo'ymasin degandek shoshilib:

— Yordam bersangiz, xatda yozilgan jihozlarni olsak, tezroq korxonamizni ochar edik, — dedim murosaga chaqirgan muloyim ovozda.

— Hi, menda hech qanday jihoz yo'q. Hamma narsa limit bilan hal qilinadi, — dedi u nihoyat "hi"dan hatlab.

— Limitimiz bor, faqat imzongiz kerak emish... — dedim ovozim yanayam muloyim tortib.

— Kim aytди? — dedi do'q qilib. Jahl bilan bug'i chiqib turgan qaynoq choyni ho'plab yubordi shekilli, yo'taldi.

— Bazadagilar aytishdi...

— Kim deyapman? — endi u tergovchiga, men, xudo asrasin, "allakim"ga o'xshab ketdim.

— Boshqarmangizdagilar aytishdi, — dedim gunohkor odamdek past va noumid ovozda.

— Nima kerak o'zi? — dedi yana ham jazavasi tutib.

— Arzimagan narsalar, xatda yozilgan...

— Xat qani?

— Xat sizda bo'lishi kerak, bir necha marta yuborgan edik... platyojka (to'lov qog'oz), xatning nusxasi ham bor, beraymi? — dedim.

Men qancha muloyim bo'lsam, "xo'jayin"ning shuncha jazavasi tutardi.

— Qayerdan kelgansiz o'zi?

Endi menikiyam tutdi.

Kimligim, qayerdan kelganim, unga bir necha bor xat yozilgani, bir haftadan beri qabulni kutganimni shartta-shartta aytdim.

— Hi, emas, men ayolman, yoshim sizdan kattaroq. Oldingizga shaxsiy ish bilan emas, davlat ishi bilan keldim. Agar muomala qilishni bilmasangiz, bilib oling.

Butun dunyo etikasi bo'yicha ayol kishi ish bilan eshikdan murojaat qilib kirganida erkak kim bo'lishidan qat'i

nazar, o'midan turib so'rashadi. So'ng o'tirishga joy ko'rsatib iltimosini tinglaydi. Bajarish imkonibor, yo'qligini aytadi. So'ng yana o'midan turib kuzatib qo'yadi, bildingizmi? Dimog'ingiz juda baland, ishlaringiz o'ta yaxshi ketayotganga o'xshaydi. Sizdan shaxsan menga hech narsa kerak emas. Korxonaga ajratilgan jihozlar uchun pul to'langan, marhamat qilib o'z vazifangizni bajaring. Sizning qo'ssliklariningizni eshitishga ortiq toqatim yo'q, — deb gapimga nuqta qo'ydim. Va o'zimning gaplarimdan o'zim hay-ratlandim.

Unga hech kim jur'at qilib bunday gapirmagan shekilli, haytovur, o'rnidan turdi-da:

— Uzr, xizmat? — dedi.

— Bo'ldi, xizmatingiz kerak emas. Xatda yozilgan, puli to'langan jihozlarni boshqa korxonadan olamiz-qo'yamiz, bir oz ovoragarchiligi bor, mayli, qog'ozlarni qayta yozamiz. Faqat dilozorlik bo'lmasa bas. Bu ahvolingiz bo'lsa, yaqinda mijozingiz qolmay, korxonangiz qarsillab sinsa kerak, — dedim-da, chiqib ketdim.

“Xo'jayin” anqayganicha qotib qoldi.

Ochiq havoga chiqqanimda hali ruhimdag'i isyon tugamagini uchunmi, dag'-dag' titrardim.

Yaxshiyamki, taqdirimiz shunday “odamlar” qo'lida emas. Yaxshiyamki, bular ko'p narsani hal qilishmaydi. Faqat o'zimni tuta olmaganimdan xijolatda edim. Chunki jaholatni jahl bilan emas, aql bilan yengadilar.

ZILZILA

1966-yil 26-aprelga o'tar kechasi kichik o'g'lim juda notinch bo'lib, uxlamadi. Dadasini, akasini uyg'otib yubormasin deb, boshqa xonaga olib chiqib, qo'limda ko'tarib, bag'rimga bosib, u yoqdan-bu yoqqa yuraman.

Tongga yaqin negadir atrof hovlilarda itlar hura boshladi.

Derazadan tong yorishdimikan deb, tashqariga qaradim, shu mahal atrof bir zumgina yorishib ketgandek bo'ldi-yu, gumburlagandek ovoz birinchi qavatdan (biz ikkinchi qavatda yashardik) kelgandek bo'ldi. Javonlar u yoqdan-bu yoqqa yurayotgandek, xuddi poyezdda ketayotgandek bo'lib qoldim.

Nima bo'layotganini tushunmasdim. Qo'rqqanimdan yotoqxonaga krib, o'mimga yotib oldim. Dadasini uyg'otmoqchi edim, uyg'oq ekanlar. Mening ahvolimni bildilarmi:

— Tinchlaning, yotavering, yer qimirlayapti, yurib bo'lmaydi, — dedilar.

— Voy, bolalarmi ko'chaga olib chiqaylik, yana uy bosib qolmasin, — deb o'rnimdan turmoqchi edim, u kishi yana joyimga yotqizib qo'ydilar. Yer qimirlayotganini endi tushunib yetdim, qo'rquv, vahima bosdi.

Jo'rabe yig'idan to'xtab, atrofga javdirab qarardi.

— Voy, dadasi, nima bo'lsak biz bo'laylik, bolalar... — deyayotib, yaqindagina Jo'rabe yotgan aravacha xonaning u boshidan-bu boshiga borib, kelayotganini ko'rib, kayfim uchib ketdi.

Shu zayl qo'rquvda qancha vaqt o'tganini bilmayman. Uyimizning hovlisidan odamlarning xavotirli qiy-chuvi eshitilardi.

Vahima bosib, bolani karavotga yotqizdim, u yig'ladi, qayta bag'rimga bosib, o'rnimdan turib, chiroqni yoqmoqchi edim, yonmadi, tok yo'q edi.

Zaldagi, oshxonadagi idishlar jaranglab sinardi.

Beshyog'ochdag'i ayam, dadamga telefon qilay, deb trubkani ko'tarsam, u ham ishlamaydi. Yer shunday shiddat bilan u yoq-bu yoqqa borib kelyaptiki...

Qudrat aka ham o'rinalidan turib, kiyimlarini apil-tapil kiyib, menga:

— Bolalarmi issiqroq kiyintiring, o'zingiz ham kiyining, bolalarga kerakli narsalarni oling, hovliga — ochiq joyga tushamiz, — dedilar.

Men apil-tapil qo'limga nima ilinsa, oldim. Jo'rabe yig'laydi. Durbekni uyg'otib, kiyintirdim. Men Durbekni yetakladim, dadasi Jo'rabe kni, sumka to'la narsalarni oldilar. Ko'chaga tushyapmiz, zinalar xuddi bir-birining ustiga chiqib ketayotgandek qimirlardi. Hovliga tushdik. Hovli to'la odam. Bola-baqlalarning biri yig'laydi, birlari qiyqiradi, ba'zilari injiqlik qiladi.

Qudrat aka bolani qo'limga berib, sumkani yerga qo'ydilar-da, yana qaytib kvartiramizga chiqib ketdilar. Orqalaridan:

- Qudrat aka, qayerga, bormang, — desam:
- Hozir, Jo‘rabekning aravachasini olib chiqay, — deb uyga kirib ketdilar.

Hovlida turibmizu oyoq ostimizda yer to‘lg‘anib borib-kelayotgani bilinib turipti. Qudrat akam hadeganda chiqavermadilar. Allaqancha vaqt o‘tgandek bo‘lib ketdi, so‘ng aravachani ichi to‘la narsalar bilan ko‘tarib chiqdilar.

- Xayriyat, muncha qolib ketdingiz, xavotir bo‘lib o‘lib bo‘ldim, — dedim.

— Yer qimirlash to‘xtaguncha bolalarga kerak bo‘ladi deb, xolodilnikdag‘i yemishlardan olib chiqdim. Men ishga boray, sizga mashina yuboraman. Arpapoyaga borasiz, u yer bexavotir, hali nima gap, o‘sha yerda bo‘lib turing, — dedilar.

Bolalarni o‘pib-quchoqlab, men bilan ham xuddi urushgami yoki uzoq safargami ketayotgandek xayrlashdilar. Men yig‘lab yuborgudek edim.

Hali erta edi. Ishga yayov ketdilar.

Yo‘ldosh Muqimov, Habib No‘mon (biz bir uyda yashar edik) kelib mendan ko‘ngil so‘rashdi. Habib akaning rafiqalari:

- Birpas yonimda o‘tiring, rangingiz o‘chib ketibdi. Bir piyola choy iching, — deb termosdan choy quyib berdilar.

Men “rahmat”, deb ichib oldim. Qudrat aka sumkada olib chiqqan yeguliklardan “yenglar” desam, kelinoyim:

- Ishtaha bormi, kishi qo‘rquvdan nima bo‘lganini bilmay qolarkan, — dedilar.

Qizlari yonimga kelib:

- Olmos opa, bolangiz qiy nab yubordi-ya, bering, bir hovlini aylantirib kelay, ozroq dam oling, — dedi.

Jo‘rabek notinch g‘ingshirdi. Qizcha bolani qo‘limdan olib, ko‘tarib, aylantirib yurdi. Bola tinchib, ovundi.

Hovlidagi qo‘snilar birlari o‘rindiqda, birlari yerga joy solib o‘tirib olishgan. Ishga boradiganlar ketyapti. Yer bo‘lsa vajohat bilan qimirlab turipti. Durbekning qormi ochdimi, xarxasha qila boshladi. Eski paltomni kiygan ekanman, cho‘ntagidan ozroq pul chiqdi. Yonimizdag‘i bozorga (hozir Askiya bozor deyishadi) boraymikin, biror narsa olib berib tinchitay, deb turgan edim, shu vaqt Mustafo amakining

mashinasi ko'rindi, mashina to'xtar-to'xtamas, ichidan dadam tushdilar. Uzoq ko'rishmagan odamlardek ko'rishdik.

Dadamning ko'zları boshqacha edi, avval hech ko'rma-ganman, aytib berolmayman, qo'rquvmi, hayajonmi, vahimami, aytolmayman.

— Olmos, sendan juda xavotirda edik, sog' ekansizlar, qo'rqqandirsan?

- Juda, hovlimizdagilar dalda berishdi.
- Ha, dalda, degin, — dedilar. — Qudrat qani?
- Ishga ketdilar, telefon qilmadilarmi?
- Telefon ishlamayapti, chiroq ham yo'q... Bo'l, mashinaga chiq, hovliga ketdik.

— Bolalarning kiyimini olib chiqay...

— Yo'q, yo'q, chiqma, hovlida kiyim topilar. Bo'laqol, onang xavotirda, hali yayov kelmoqchi edim. Mustafo kelib qoldi.

Dadam Habib aka, Yo'Idosh aka va boshqa qo'shnilar bilan ko'rishdilar, hol so'radilar, uyg'a taklif qildilar. Meni olib ketishga kelganlarini aytib, xayrlashib, mashinaga chiqdilar.

Mustafo amaki Jo'rabeckning aravachasini, sumkani mashinaning yukxonasiga qo'ydi.

Men qo'shnilarغا ketayotganimni aytib, mashinaga chiqdim. Yo'lda dadam:

- Uylaringga shikast yetmadimi? — deb so'radilar.
- Bilmadim, xonalarning devori yorilib ketdi, idishlar sinib ketdi. Lekin hech kim shikastlar madi, deyishyapti. Yuragi kasallarga tez yordam keldi, hamma qo'rquv, vahimada. Dadajon, ayam, ukalarim, akam, kelinoyim, bolalar yaxshimi? Uyimizga zara: etmadimi?
- Hamma sog'-salomat, qolganini uyg'a borib ko'rasan, — dedilar gapirgilarli ham kelmay. Yuraklari siqilib, ko'ngillariga hech narsa sig'mayotgani bilinib tur'i ptি.

Durbek opoqdadasining tizzalarida o'tirib olib, o'ynagani ketyapmiz deb o'ylab (men bolalarim bilan qiynalib turganlarimda dadam kelib, Durbekni o'ynatib, bozorlarga olib borib, xarajat qilib berar edilar), savollarga tutar, uning so'roqlariga bitta qo'y may javob bergan dadam, "ha", "yo'q" deb qo'ya qolyaptilar. Qo'limda Jo'rabeck injqliq qilib g'ingshiydi. Dadamning yuraklari battar siqilib:

- Emizsang-chi, bolangni, — dedilar.
 - Hozir emizganman, emmayapti, o'zi negadir tuni bilan bezovta bo'ldi. Hali yer qimirlamasidan uyg'onib olgandi, emizsam emmadi, shamolladimi desam isitmasi yo'q. Hech bunday injiq bo'lmas edi. Tishi chiqayotganmikin desam hali erta shekilli...
 - It, mushuk, hayvonlar yerga yaqin bo'lganidan yer qimirlashini avvaldan sezib, bezovta bo'lib hurib, ma'rab, miyovlaydi deyishadi, emizikli bolalar ham intiutivna deydimi, sezarmikin? — dedilar meni tinchitmoqchi bo'lgan ohangda.
 - Qaydam, — dedim Jo'rabeckning boshlarini silab yupatmoqchi bo'lib.
- Uya yetib kelganimizda darvoza eshik ochiq edi. Hammalari salqin bo'lishiga qaramay, hovli o'rtasidagi so'rida o'tirishardi. Ustilariga issiq qishki kiyimlar kiyib olishgan, ayam kelib ko'rishib, qo'limidan Jo'rabeckni, kelinoyim Dildoraxon opam kiyimlar solingan sumkani oldilar.
- Hamma bilan ko'p yillardan beri ko'rishmagandek salomlashdik.
- Durbek xursand, o'ynagani keldim, deb jiyanim Anvar bilan allaqachon o'z tillarida bir narsalarni bir-birlariga tushuntirishardi.
- Mirza Abdulqodir va Xondamir uya chopib kirib, ko'rpauchalar olib chiqib, hovlidagi so'rilarغا solishdi.
- Oliya opa samovarga o't solgan ekan, qaynadi, havoning salqinligidanmi, hayajondanmi, hammaning choy ichgisi kelardi.
- Dadamga choy beringlar, kayfiyatları yaxshi emas, — desam, ayam:
 - Tish-sh, sekin, dadang qo'rqib ketdilar, hech balo-qazo, urush-qirg'inlardan qo'rwmagan edilar, sizlarni, bolalarni o'ylab qo'rqdilar, — dedilar dadamga eshittirmaslikka urinib.
 - Dadam chala-chulpa choy ichgandek bo'ldilar, ishtahalari yo'q edi.
 - Muharramxon, men borib Xolidaning bola-chaqasidan xabar olay... — dedilar. Ayam:
 - Ha, albatta, bollari bilan uya olib kela qoling, — dedilar.

Mashinaga o'tirishlari bilan mashina darvozadan ko'chaga chiqib ketdi. Eshikdan qo'ni-qo'shnilar xabar olgani kirishdi. Ular vahimali xabarlar aytishardi.

- Qashqar mahalla atrofi butunlay buzilib ketipti...
- Odamlar eski paxsa uylar tagida qolib ketganmish...
- Tez yordam, o't o'chinivchi mashinalar yetishmayotganmish...
- Uysiz qolganlar ko'pmish, radioni qo'yinglar, xabar berayotgan emish.

Bu vahimali mishmishlardan kishining eti junjikib ketdi. Asabi chatoq odamlarning bo'ladigani bo'ldi, deyavering. Shu zaylda hali qarindoshlar, hali yor-birodarlar kelib, xabar olib ketishyapti. Tushlikka yaqin dadam keldilar. Ayam hovlidagi o'choqda mastava pishirgan edilar, so'rida ichdik. Men zimdan dadamlarga qarab o'tirar edim. Ayam:

- Xolida, bolalari, uyi tinchmi?
- Ha, bolalar sog', uylarning devori yorilgan, idishlari sinipti, Shokir (kuyov) ishga ketipti.
- Nega bolalarni olib kelmadingiz?
- Hovlidagi bir qavatli oldi ochiq ayvonda o'tirishi pti, bexavotir. Mayda-chuyda olib borib berdim, xonalarga kirmanglar, dedim. Mirza Abdulla aka, G'ulom aka, Salomlardan (Qorasaroydag'i qo'shnilarimiz) xabar oldim. To'lagan aka, Obid (yoshliklaridagi do'stlari)nikiga ham kirdim, hammalari sog', uylari shikastlangan, xolos. Hozir Oybeknikidan xabar olib kelaman, — dedilar.

- Men ham boray, — dedim. Dadam:
- Bolalaring-chi? — dedilar.
- Jo'rabe uxladi. Durbekka ayam qaraydilar, o'ynab yuripti-ku, — dedim
- Mayli, — dedilar.

Ayam dadan ko'chadaliklarida kimlar kelganini aytdilar.

- Qo'shnilar tinch ekan, shukr, — dedilar dadam.

Dadam bilan mashinada ketyapmiz, men:

- Dada, Qudrat akaning jiyanlaridan xabar olaylik, ular musofir, — desam, dadam:
- Mustafo, Stekolniya hayda, — dedilar.
- Stekolniy ko'chasi Qashqar mahallaga yaqin bo'lgani uchun xavotir bo'ldim-da.

U yerlarda, esingizda bo'lsa, pastak, xom g'ishtdan qilingan uylar bo'lardi. Yo'llarda eski uylar qulab tushgan, buvamning zamonidan qolgan ba'zi bostirmalarning tomi bosib qolgan, odamlar g'isht, tuproqni hovlilaridan tashib, bir chekkaga uayapti.

Stekolniydag'i men kelin bo'lib tushgan eski uylarning ko'pi qulab tushgan. U yerda yashovchi aholi eski qamish, to'siqlar, g'isht, tuproqlarni uy ichidan hovliga tushiryapti.

Otajon, Boltavoy (Qudrat akaning jiyanlari) zambilda xonalardagi qulab tushgan devor qoldiqlarini tashishayotgan ekan.

Dadam bilan ulardan hol-ahvol so'radik. Dadam "biror narsa kerakmi, pullaring bormi" desalar, uyalibgina "rahmat" deyishdi. Dadam:

— Yigitlar, sog' bo'lsangiz bo'ldi, bu yog'ini tuzatib olasizlar, — deb xayrashdilar.

Oybek domlanikiga borsak, domla hovlining o'rtasiga kreslo qo'yib ko'chaga qarab o'tirgan ekanlar. Dadam ikkalalari quchoqlashib ko'rishishdi, ko'zları yoshli, nimalarni o'ylashdi bilmayman. Ular so'zlashishmasa ham, bir-birlarini yaxshi tushunishar edi.

Zarifa opa bor ekanlar. Hol-ahvol so'rashdik. Zarifa opa oshxonaga kirmoqchi edilar, dadam:

— Yo'q, hech narsaga ovora bo'lmang, yer qimirlash to'xtagach, uyda o'tiramiz, — dedilar.

Oybek amaki yuzlari yorishgandek:

— G'afur yaxshi, yaxshi, — deb yubordilar.

Hulkarni so'rasam, Zulfiya opamnikiga, Izvestiyaga ketdi, dedilar. O'g'illar, kelinlar ishda ekan. Gulrangdan (Oybek akaning qizlari) xabar kelipti, tinch ekan.

Dadam:

— Oybek, biror narsa kerak emasmi? — degan edilar, Zarifa opa:

— Yo'q, rahmat G'afur aka, sog' bo'ling, — dedilar.

Oybek domla o'milaridan turib, ikki qo'llarini ikki yoqqa kerib:

— Yaxshi, yaxshi, — dedilar.

Ular bilan xayrashib, markaz tomon keldik. Eski "Molodaya gvardiya" kinoteatrining yonidagi ko'chadan Karl Marks ko'chasiga o'tib ketmoqchi edik (o'sha yerda bolalar

kasalxonasi bo'lar edi), ko'cha berkitilganligini, kasalxona tomi bosib qolgani sabab bolalar qaysidir oromgohga ko'chirilayotganini aytishdi. Bolalar ichida yer qimirlashdan shikastlanganlar ham bor ekan. Oyoq-qo'li, boshlari bog'-langan bolalarni zambilda olib chiqishardi.

Shu mahal yana qattiq yer qimirlab, mo'rt bo'lib qolgan binoning devorlari kishining ko'z o'ngida uvalanib qulay boshladidi. Miliitsiya bizning mashinani "xavfli, o'tish mumkin emas", deb o'tkazmay, boshqa yo'l ko'rsatdi.

Bu hodisani o'z ko'zlar bilan ko'rgan dadamning avzoylari buzilgan edi. Uyga kelsak, Jo'rabekey uydadan turib injiqlik qilayotgan ekan. Muxtor, Yu'duz, Anvar (Ulug'bek akamning farzandlari), Toshxon (singlim), Durbek so'rida o'ynab o'tishi shipti. Men yuz-qo'limni yuvib, bolamni emizmoqchi edim, ayam:

— Avval o'zing ovqat yegin, keyin emizasan. Oliya, Jo'rabeke ni ol, aylantirib kel, — dedilar.

Yana shiddat bilan yer qimirlayotganigami, Jo'rabekey injiqlik qilar, ovutganga hech ko'nmas edi.

Dadamlar tinchgina ovqatlanib olsinlar deb, hovlining chetidagi eski oshxona yonidagi sandalga o'tirdim. Jo'rabeke ni emizmoqchi bo'lardim, u emmay bo'g'ilib yig'lardi.

Endi bilsam, qattiqroq yer qimirlashi oldidan injiqlik qilarkan. Ko'zlarini u yoq-bu yoqqa tikib javdiradi, men uni yupatib:

— Uxla, alla qil, hech narsa bo'lgani yo'q, — desam, uxlاب ketadi-yu, yana yer qimirlasa, uyg'onib injiqlik qiladi.

Qo'limda tinchlanib uxlاب qolgan Jo'rabeke ni astagina aravachasiga yotqizdim.

Uyimizning ikkinchi qavatidagi dadamning ijodxonalarini (hozir muzey binosi) devori yarmigacha qulab, oldi ochiq avyonning tomiga tushgan ekan, ko'rib qo'rqib ketdim. U yer oldin ochiq avyon edi, dadam 50-yillarda devor urdirib, ijodxona qilgan edilar. Yaqindagina remontdan chiqqan edi.

Kech kira boshladidi, hamon yer qimirlardi. Ayam bilan dadam qarindoshlarni ko'rib kelishga ketishgan. Akam ishdan keldilar, ikkita chodir (palatka) olib keliptilar.

Ukalarim horib-charchab, hammayoqlari chang-chung, universitet topshirig'i bilan xarobaga aylangan uylarning

qurilishga yaroqli g'ishtlarini yig'ishihti. Akam, ukalarim bilan hovlining o'rtasiga ikkita chodir o'matishdi. Bittasi men, bolalarim, Qudrat aka uchun, ikkinchisi ukalarim uchun.

Akam, kelinoyimlar so'rida pashshaxona tutib uxlaydigan bo'lishdi. Dadamlarga gulzorning o'rtasiga har doim yozda yotadigan sim karavotlarini qo'ydik, o'rin-ko'rpalari to'shadik, karavotlarining yoniga kichik stol qo'ydik. O'zlariga kerak narsalar: sigaret, gugurt, kuldon, choynak, piyola, ro'molcha, ko'zoynak, o'qiydigan kitob, yangi gazetalar, qo'l fonari, hammasi jam bo'ldi.

Dadam, ayam ammalarimnikidan kelishdi. Hamma sog'-salomat, uy-ro'zg'orlar birmuncha shikastlanganini aytmasa, yer qimirlayotgani hammaga kelgan "to'y" deyishipti. Chiroq bo'Imagani uchun o'rta ga sham qo'yib, ovqat yeyledi.

Ayam Toshxon bilan mashinaning o'rindiqlarini ochib, o'sha yerga o'rin solib yotadigan bo'lishdi. Bexavotir, issiqliqqa. Lekin Muxtor, Yulduz, Durbek ham u yerga kirib olib, ancha mahalgacha shu yerda uxlaymiz, deb janjal qilishdi. Dadam:

— Qudrat har kuni shunaqa kech keladimi? — deb mendan so'radilar. Toshxon singlim:

— Hali siz Olmos opam bilan ketganlaringda shoshilib kelib, Durbek, Jo'rabeckni ko'rib, hammangizni so'rab ketgan edilar. Shunda kech kelaman, aytib qo'y, degan edilar.

Yer hamon qattiq-sekin qimirlab turar edi. Yuraklar xuddi yer qimirlagandek bezovta urardi.

Qudrat aka juda kech keldilar. "Hech kimni bezovta qilmang, tumanda edim, ovqat eganman. — Men bolalar yotgan chodiriga boshlab kirdim. Shamning yorug'ida echinib menga: — Chodir qayerdan topildi, biz tomonda to'ylarda kelin-kuyovlarga o'tov qurilardi, o'shangan o'xshar ekan, mazza-yu, faqat rezina hidi kelar ekan-a?" — dedilar.

Kechasi bilan bir yoqda zilzilaning vahimasi, bir yoqda Jo'rabeckning injiqligi, bir yoqda sovuq, joy o'zgargani sababli uxlay olmadim. Bir amallab tong otdi, sovuq jizzillatadi.

Chodirdan chiqsam, dadam allaqachon uyqudan turib do'stlaridan xabar olgani ketgan ekanlar. Bozor qilib, issiq non, qaymoq, suzma olib kelib qoldilar. Saldan keyin Mustafo amaki ham keldi.

Katta stol so‘rining yoniga, sariq gilos tagiga qo‘yildi. Atrofiga hamma oila a‘zolarimiz sig‘adigan joy qilindi. Samovarda choy, o‘choqda shirguruch pishirilib olib kelindi. Ertalabki choy ustida uzoq o‘tirilmadi. Akam bilan Qudrat aka ishga, dadam bilan ayam qarindoshlarni ko‘rishga, ukalarim Xondamir bilan Mirzo Abdulqodir (uyda Mirza deymiz) davlat topshirig‘i bilan buzilgan uylarning g‘ishtini yig‘ishga borishadigan bo‘lishdi. Kelinoyim akademiyaga boraman dedilar (aspirant edilar).

Hammaning vazifasini dadam aniqlab berdilar: Men singlim Toshxon boshchiligidagi bolalarga qaraydigan bo‘ldik. Oliya opa ovqat qiladi.

Dadam, ayam tushlikka yaqin kelishdi. Qarindoshlardan xabar olishipti. Ayam, Navoiy teatri oldidagi fontan yoniga yaqin-yiroqdagi uyi buzilganlar chodir o‘rnatib yashayotganini aytidilar. Dadam odamlarning ahvolini ko‘rib, juda xafa bo‘lib, yuraklariga olayotganlarini aytib qayg‘urdilar. Teatr yonidan o‘tib ketishayotganda o‘scha chodirlarda yashayotganlarning primusda ovqat qilayotganini, bir bola g‘ishtdan stul qilib, taburetkada dars qilayotganini ko‘rib qolgan dadamning ko‘zlariga yosh kelgan mish. Ayam shularni xo‘rsinib gapirib berdilar.

Zilzila bo‘lib turgan kunlar shu zaylda qandaydir ko‘ngilsiz o‘tardi. 9-may kuni xuddi 26-apreldagidek qattiq yer qimirladi. Omonat bo‘lib qolgan imoratlar xuddi hovonchada tuyilgandek uvalanib-uvalanib tushdi.

Yer qimirlashi ancha sekinlashyapti. 10-may kuni dadamning tug‘ilgan kunlari edi, 63 – payg‘ambar yoshiga kirgan edilar. Yer qimirlamay turgan bo‘lsa, bultur va‘da qilganlari “yurtga osh bermoqchi” edilar, yer qimirlash tashvishi bilan bo‘lib, u gap xayollariga ham kelmadi, ko‘ngillariga ham sig‘madi. Ertalab tug‘ilgan kunlari bilan tabriklab, o‘zlarini yaxshi ko‘radigan do‘ppidan olib qo‘ygan edim, kiygizsam, dadam asabiy:

— Shov-shuv qilma, tug‘ilgan kun bo‘lmaydi. Hozir tug‘ilgan kun qiladigan vaqt emas, — dedilar.

Ayamlarga ham harakat qilmang, deptilar. Yuraklariga hech narsa sig‘masdi. Lekin ayamlar kechga oila a‘zolarimiz uchun dasturxon tuzadilar. Muzaffar akam keldilar. Birgalashib

allamahalgacha gapirishib o'tirdik. Muzaffar aka yaqinda, yer qimirlash boshlanmasdan avval, o'g'il ko'rgan edilar. Ot qo'yish esa (guvohnoma olish) yer qimirlab turgan kunlariga to'g'ri kelgan edi. Dadamga "o'g'limning otini Muhitdin qo'y-moqchiman" deb maslahat qilsalar, dadam:

— Muzaffar, o'g'lingning otini "Zilzilabek to'xtasin" qo'ysang bo'larkan, balki zilzila to'xtarmidi, — deganlarini aytib kuldirdilar.

Shundan keyin dadamning sal chehralari ochilib, yoshliklari haqida, o'sha vaqtlardagi yer qimirlash tarixlari haqida gapirib berdilar. Keyinchalik bu aytib bergenlarini "Vatandoshlarimga tasallii" maqolalarida keltirgan edilar.

Har soat yer qimirlash haqidagi ma'lumotni eshitamiz. Seysmologiya institutining obro'si oshib ketgan. Dadamning aytishlaricha:

— Ular ham xudo emas, nima bo'layotgani faqat Ollohga ayon, — deb qo'yadilar.

Shunday vahimali kunlarda ilmiy tomondan hamma bo'layotgan voqealarni tushunib tursang ham, baribir xudodan boshqaga ishonish qiyin. Tanho o'ziga ishonamiz.

Zilzila boshlanganiga bir oylar bo'lay deb qoldi, dadamning sog'liqlari yomonlashdi. Hammaga birdan yordam bera olmaganliklari u kishini ezar edi.

Dadamni statsionarga yotqizishdi. Ayam dadam bilan birga yotdilar. Lekin u yerda uzoq davolana olmadilar. Xalq boshiga shunday og'ir kunlar tushganda "kasalman" deb yotishga yuraklari chidamasdi. Davolanmay chiqdilar.

Shu kunlarda Toshkent ochiq shahar, deb e'lon qilindi. Butun qardosh respublikalardan o'zbek xalqiga yordam kela boshladi.

Dori-darmonlar, oziq-ovqatlar, tayyor fin uylari olib kelindi, ko'ngilli quruvchilar oilalari bilan ko'chib kelib yangi uylar, har bir respublika o'z nomiga qo'yilgan ko'chalar, kvartallar, mahallalar barpo qilina boshlandi.

Shu bo'layotgan xayrli ishlar, xalqqa berilayotgan beminnat yordam, ularning dardini yengillashtirish yo'lidagi bo'layotgan sa'y-harakatlardan dadamning ko'ngillari ancha taskin topdi, shekilli.

1966-yil 21-iyun kuni "Vatandoshlarimga tasalli" nomli maqolani yozib bo'ldilar. Bu maqola "Sovet O'zbekiston" gazetasida 22-iyun kuni e'lon qilindi.

Maqola tarix, astrologiya, seysmologiya ilmiga asoslanib yozilgan edi. O'zbekistonning o'tmishida bo'lib o'tgan zilzila fojialari haqida o'tgan shoirlarning she'ridan sanalarini aniqlab bergen edilar.

Tarixiy ma'lumotlar bilan birgalikda poytaxtimiz xalqiga tasalli so'zlari aytilgan edi.

O'sha kezlarda dadam Shayx amaki, Yashin aka, Mirtemir domla, Abdulla aka va boshqa taniqli ijodkorlardangina emas, yosh, hali hech kimga ma'lum bo'lmagan, ijod ostonasiga endi qadam qo'yayotgan, kelajagi bor yoshlardan ham xabar olib turar ekanlar (keyin ular o'zlari kelib aytishgan).

Ukraina yozuvchilari O'zbekiston yozuvchilariga yordam tariqasida bo'lsa kerak, bir guruh yozuvchilarni Odessadagi "Ko'ktebel" ijod uyida dam olishga taklif qildi.

Yashin aka dadamlarga, G'afur ancha mazangiz qochdi, statsionarda ham yotib davolanmadigiz, bolalaringiz bilan borib dam olib keling, deganlarini ayamga aytgan ekanlar. Ayam dadamga shu yer qimirlab turgan joydan sal nariroq ketsak, sog'liqlari yaxshilanarmikin deb o'ylab, "boraylik" deptilar. Ko'pchilik yozuvchilar qatori dadam ayamni, ukam Xondamirni, singlim Toshxonni, jiyanim Yulduzni (Ulug'bek akamning qizlari) olib, "Ko'ktebel" (Odessa)ga boradigan bo'lishdi. Akamlarga Yadro instituti Qibraydan uy berib, ko'chadigan bo'lishdi.

Arpapoyadagi uyda ukam Mirzo Abdulqodir, men, Qudrat akam, Durbek, Jo'rabek, Oliya opa (enagamiz) qoladigan bo'ldik.

Ayam, dadam bizni ishonmasdilar. Men ularni tinchitdim:

— Xavotir olmanglar, hamma qatori yashaymiz, — dedim.

Dadam:

— Xonalarga kirmanglar, ukingga, bolalaringga yaxshi qara, bir gap bo'lsa xabar qilinglar, — deb yana nimalar qilishimiz kerakligini har birimizga alohida aytib uqdirdilar.

Shunday qilib, dadam 1966-yil 22-iyun kuni Qora dengiz bo'yidagi mashhur "Ko'ktebel" ijod uyiga dam olgani ketdilar.

Lekin dadam 24-iyun kuni Qozonda bo'lishlari kerak edi. Abdulla To'qayning 80 yillik yubileyi mo'ljallangan edi. Dadam shu yubileyga borib ma'ruza qilishlari kerak edi...

Odessaga yetib borishgani haqida telegramma oldik. Telegrammada adreslarini yozishgan ekan, ularni tinchitadigan javob xati yozib yubordim. Markaziy gazetalarda Abdulla To'qay yubileyi ochilgani va bir guruh yozuvchilar bilan dadamning ham qatnashganlari haqidagi xabardan ma'lum bo'ldiki, dadam sog'-salomat ekanlar, ko'nglimiz tinchidi.

Dadamlar "Ko'ktebel"ga, akamlar Qibrayga ko'chib ketishgach, uyimiz huvillab qoldi.

Mirzo kuni bilan qurilishlarda, Qudrat aka tumanmatuman yurib, paxta bilan ovora, uyg'a kech kelishadi.

Yer to'xtamay qimirlab turipti... Yaxshiyamki, bolalarim bor, ular bilan bo'lib kun o'tganini bilmayman. Uyda zerikmas, ularni salqingina sobiq "Komsomol ko'li" (hozir O'zbekiston milliy bog'i)ga olib borib, aylantirib kelaman.

3-iyul kuni ertalab Qudrat akam meni tug'ilgan kunim bilan tabrikladilar-da (esimdan chiqib ketgan ekan), kechqurun akam, kelinoyim bolalari bilan kelishlarini aytdilar.

— Tushda bozor qilib yuboraman, dasturxon qilib qo'yarsiz, — dedilar.

— Xo'p, faqat vaqtliroq keling, — dedim.

Soat 11 lar bo'lib qolgan edi, bolalarga ovqat edirayotsam, ko'cha eshik ochilib birov kirdi, qo'lidagi jomadon dadamlarnikiga o'xshardi. Uning ketidan dadam kirib keldilar.

Men bolalarimni ham tashlab, u kishiga tomon yugurib bordim, xursand bo'lib ketdim. Begona kishi taksining haydovchisi ekan. Dadamni quchoqlab oldim. Dadam meni bag'rilariga bosib, peshonamdan o'pdilar. Xursand ovozda:

— Olmos bekach, tug'ilgan kuningizga yetib keldim, — dedilar.

Men xursandligimdan nima deyishni bilmay, eshikka qarayman, ayam, ukalarim ko'rinnmagach:

— Ayam, ukalarim qani? — desam, dadam:

— Ular dam olishyapti. Akang, sizlarni juda sog'indim. Mirzodan xavotir bo'lib kelaverdim, onang, ukalariningi birikki kundan keyin borib olib kelaman, — dedilar.— Mirzo yaxshimi? — deb so'radilar.

— Ha, yaxshi, ishlab yuripti.

Bizning gapimizni eshitib turgan haydovchi yigit jomadonni yerga qo'yib, dadamlar bilan quyuq xayrashib chiqib ketdi.

Dadamlar bolalarimdan birini qo'yib, birini quchoqlab o'padilar. Jo'rabejni "jijing" deb erkalab, qitiqlab qo'yadilar, u qiqir-qiqir kuladi. Durbek opoqdadasiga yopishib olib, tinmay gap so'raydi.

Xursandligimdan yugurib, dasturxon tuzayapman.

Huvillab qolgan hovli birpasda to'ldi-qoldi.

Choy qilsam, ichmadilar. Sabzi sharbatini qilib berdim. Yana gulzorning o'rtasidagi sim karavotga joy qildim, dam olsinlar dedim. Uya chopib kirib yaktaklarini olib chiqdim, yechinib kiyindilar, karavotga yonboshlab:

— Jo'rabejni ber-chi, — dedilar.

Jo'rabebek olti oylik shirin bola bo'lib qolgan edi. Utug'ilgandayoq dadamlarga o'xshardi.

Shu mahal u ishtonchasini ho'l qilib yubordi, dadam bo'lsalar kulib:

— Ol-e, bolangni, bobosining qo'lida ham beadab qiliq qiladimi odam, — dedilar bolani qo'limga berib.

U ham sho'xlik qilib, qo'limda irg'ishlardi. Dadam ham xursand edilar.

— Mosh, bilasanmi, o'g'ling menga o'xshaydi, endi men ketishim kerak, — dedilar.

Men bu gaplariga parvo qilmay, toza yaktak, tog'orada iliq suv, sochiq olib keldim. Bolalarni Oliya opaga berib, dadamlarni yuvintirdim, oyoqlarini tog'oraga solib yuvdim, toza suv bilan chayib, yumshoq sochiq bilan artib qo'ydim. Toza yaktakni kiyib, qaytadan yotdilar:

— Endi dam olaman, qolgan gaplarni keyin aytaman, — dedilar.

— Dada, nima ovqat qilay, — dedim.

— O'zing, bolalaring nima xohlasalaring, o'shani qil, — dedilar.

Oliya opa qaynatma sho'rva soldi. Men oshning zirvagini qovurib qo'ydim. Havo issiq, hovli sathida daraxtning soyasi bo'lmasa, turib bo'lmaydi. Hammayoqqa suv sepdim. Suv birpasda qurib qoldi.

Dadam issiqdan lohas bo'ldilarmi, u xlabel olmadilar.

Bolalarim yig'lab, to'polon qilib dadamni uyg'otib yuborishmasin, deb hovlining u chekkasidagi loy supaga yotqizib uxlatgan edim.

Qudrat akam bozor qilib haydovchilaridan berib yuboribdilar. Dadam kelganlarini aytib, Qudrat akam tezroq kelsinlar, dedim.

Dadamni yer qimirlashi uyg'otib yubordi. Turib hovlini aylanib yurdilar-da, ko'ngillari aynib, behuzur bo'ldilar.

Men yo'lida charchaganlari, salqin joydan issiqqa kelganlariga yo'yib, qatiq, suv keltirdim. Ichmadilar. Og'zilarini suvda chayib, "Kazbek" papirosini chekdilar.

— Dada, Odessada dam olaturmapsiz-da, Toshkent juda isib ketdi. Yer qimirlashi pasaygan bo'lsa-da, to'xtamayapti. Yo'lida charchab ketipsiz. Sho'rva ichib, tiniqib yaxshilab xlabel olsangiz, o'zingizga kelib qolasiz, — desam, dadam:

— Qozondaligimda Toshkentda qattiq yer qimirladi, shahar vayron bo'lib ketdi, degan vahimali gapni eshitib, sizlardan xavotir bo'lib, hech turolmadim. Telefon qilay desam, aloqa uzilgan ekan, battar xavotir bo'ldim. Odessaga borib aeroportdanoq telefon qilsam, u yerda ham aloqa uzilgan, qattiq yer qimirladi, deyishdi. Onangga aytmadim, o'z ko'zim bilan ko'ray, deb keldim. Tinch ekansizlar, birikki kun dam olib olay, ularni o'zim borib olib kelaman, onang ham ketaman degan edi. Endi yana qachon dam olasiz, bir kelibsizlar, dengizda cho'milib dam olinglar dedim-da, tashlab keldim, — dedilar. — Toshkentga kelsam, xayriyat tinchlik ekan. Aeroportni ko'rib ko'nglim ancha ravshan bo'ldi. Taksida shaharni aylandim, anchagina yangi uylar bitay deb qolipti, ko'r-dingmi?

— Qayoqda, nevaralaringiz bilan hech joyga chiqa olmayman.

— Odessadan telegramma bergen edim.

— Olmadik, kelishingizni bilsak, kutib olardik-ku, — dedim.

Vahimali gaplarni Qozonda eshitib, dadam rosa asabiylashibdilar-da, deb o'yladim. Kechga yaqin hovli yana ham isib ketdi. Uylarning ichi hovlidan salqinroq,

lekin u yerga kiring, deyishga qo'rqaman, yer qimirlab turipti.

Dadam tushlik ham qilmagan edilar, qornilari ochdimi deb:

— Dada, ovqat olib kelay, — desam, dadam:

— O'zing ko'rding-ku, ko'nglim behuzur bo'lib turipti, qo'yatur, bolalar kelsin, — dedilar.

Mirzo kelib qoldi. Dadamni ko'rib juda xursand bo'lib ketdi. Achromlashib, dadamni ko'tarib olib ko'rishdi.

— Nega dam olmay keldingiz, qarang, Toshkentning issig'ida turib bo'lmaydi-ku, — dedi.

Dadam:

— Bor, dushga kirib chiq, hammayog'ing chang bo'lib ketibdi, — dedilar.

— Axir eski uylarni buzyapmiz, o'miga yangisini qurishadi, — dedi vazminlik bilan Mirzo.

Dadam g'urur bilan unga qarab turar edilar. Kech kirdi. Suv sepilganiga bir oz salqin tushdi. Oliya opa bolalarni ko'lga olib ketdi. Salqinlab kelishadi. Dasturxon qildim, osh damladim. Akam, kelinoyim Muxtor bilan Anvarni olib kelishdi.

Dadamning bir o'zları kelganlariga hayron bo'lib kelinoyim ayamlarning, Yulduzning sog'lig'ini so'radilar. Dadam menga aytganlarini ularga ham aytdilar. Qudrat aka keldilar. Hammamiz dasturxon atrofida jam bo'lib ovqatlandik. Razm solib o'tirsam, dadam ovqat yemadilar. Meni tabrik-lashdi.

Dadam Qozondagi tantanalarni aytib berdilar. Abdulla To'qayning tug'ilgan yurtiga borganlarini aytidilar. Yarim kechagacha gapirishib o'tirdik. Kelinoyim, akam yana Qibrayga qaytib ketishayotganda:

— Qibray bu yerdan bir-ikki daraja salqinroq, dada, u yerga bormaysizmi? Yer qimirashi ham bilinmaydi, — dedilar kelinoyim dadamga.

— Boraman, ozroq ishlarim bor, bitirib olay, — dedilar.

Bolalarni chodirga olib kirib uxlatdim.

Mirzo, dadam, Qudrat aka uzoq gaplashib o'tirishdi. Dadam har xil latifalar aytib berdilar shekilli, rosa kulishdi.

Dasturxонни yig'ib oldim. Mirzo joyiga borib yotib, charchagan ekan, uxbab qoldi. Qudrat aka ham chodirga kirib ketdilar. Dadam yotmay, hovlini aylanib yurdilar. So'ng so'riga kelib o'tirib:

— Olmos, qara, hovlimiz qanday chiroyli.— Chiroq nurida ko'm-ko'k barglar orasidan qip-qizil olchalar, endi tugayotgan sap-sariq giloslar marjon osib qo'ygandek, hammayoq sokin, atrofdan rayhon isi kelardi.

— Kel, — she'r yozamiz, — dedilar.

— Xo'p,— dedim.

Uyning ichiga xonadagi mashinkani olgani kirgan edim, yer qimirlab qoldi. Ichkaridan mashinka bilan yugurib chiqayotsam, dadam men tomon yalang oyoq kelayaptilar.

— Qo'rqmadingmi? — dedilar. Dadamning ranglari o'chib ketgan edi.

— Yo'q, dada, o'rganib qoldim, kuniga necha marta qimirlaydi, — dedim.

Mashinkani stolga qo'yib, ochdim, yozish uchun sozladim-da, chekkasiga G'afur G'ulom deb yozib qo'ydim.

Dadam so'rida parqu yostiqqa yonboshladilar.

— Aiting, yozaman, — desam, dadam:

— E, mashinkangi chiqillatsang, she'r aytgim kelmay qoladi, — dedilar.

— Bo'pti, qalam bilan yozaman, aytavering, — desam yuzlarida hayajon:

— Atrosga qara, shunday jannatni tashlab ketib bo'ladimi?

— dedilar.

Men gapning tagini tushunmaganga oldim-da (ba'zan shunaqa gap qilib qo'yar edilar):

— Qayerga ketamiz, o'tiripmiz-ku, — dedim.

Shu mahal Jo'rabek yig'lab qoldi.

— Bor, bolangga qara, matematikning (hisobdan bo'shligimga kesatib, haligi gapga tushunmadi deb o'yladilar) tagi ho'l bo'ldimi, qorni ochdimi? — dedilar.

— Qorni to'q, Qudrat aka qaraydilar, she'r yozmaymizmi, — desam, g'ashlari kelib:

— Ertak ham ishlab kelsin, ham kechasi bolangga qarasina, bor, bolani uxlat. Mirzoga ertalab ayt, Mustafoni aytib kelsin, qarindoshlardan xabar olay, — dedilar.

— Dam olmaysizmi? — desam, dadam:
— U ish ham dam, — dedilar. — Men ham yotaman,
charchaganman, — deb qo'shib qo'ydilar.

Men dadamga xayrli tun tilab, yuzlaridan o'pib, orqalarini
silab, chodirga kirib ketdim.

Bir oz vaqt o'tgach, xabar olay desam, so'rining chirog'i
o'chgan edi. Dadam uxiagan bo'lsalar, uyg'otib yubormay
deb, men ham yotdim. Allamahalgacha issiq, dimdan uxlay
olmadim. Hammayoq sokin, lekin vaqt-vaqt bilan yaqin-
yiroqlarda itlar huradi va sekin, ba'zan sal qattiq yer
to'lg'anib, o'zining borligidan darak bergandek bo'ladi...

Vaqtli turdim, deb o'ylasam, dadam turib ko'chaning
mashinasida Ko'kcha bozordan qaymoq, yangi chiqqan chillaki
uzum, handalak, bolalarga xo'rozqand, qovurilgan jo'xori
olib keliptilar, charchab, joylariga kiyim-boshlari bilan yotib
uxlab qoliptilar.

Oyoq uchida yurib, choy qo'ydim, Qudrat aka shoshilib,
bir piyola quruq choy ichib, ishga ketib qoldilar. Bolalarni
ovqatlantirayotgan edim, Mirzo ham turdi. Yuvinib choyga
kelganida:

— Mirzo, Mustafо amakini aytib kelar ekansan, dadam
aytdilar, — dedim. Mirzo: "Xo'p" degandek bosh irg'itib
qo'yib, kitobidan boshini ko'tarmay choyini ichib, ishiga ketdi.

Oliya opa tushlik ovqat solib qo'ydi. Men bolalar tinchib
turganidan soydalaniб, olma, uzum, sabzidan sharbat qilib
qo'ydim. Dadam tursalar ichadilar.

Dadam turdilaru, lekin choy ichmadilar, sharbatlardan
bir-ikki ho'plab, uni ham oxirigacha ichmadilar.

— Dada, sharbatlar yoqmadimi? — desam:
— Bittasi shirin, bittasi taxir, bittasi nordon ekan,
bolalaringga ber, — dedilar-da: — "Toshkent suvi" bormi? —
deb so'radilar.

— Tamom bo'lgan edi, hozir chiqib olib kelaman, —
desam, — qora non ham qo'shib olgin, dedilar.

Bolalarni Oliya opaga berib, tezgina bozor oldidagi
gastronomga borib, aytganlarini olib kelsam, dadam ichkariga,
yotoqlariga kirib, karavotlariga yotib oliptilar.

Suvni ochib, piyola bilan olib kirib, tumbochkalariga
qo'ydim-da:

— Nega uya kirib yotdingiz, yer qimirlayapti-ku, — desam:

— Tashqari issiq, dam ololmayapman, men ham sen aytganingdek, yerning qimirlashiga o'rganib qoldim, — dedilar.

— Kechagidan yaxshimisiz?

— O'z uyim, o'lan to'shagim, bobolar so'zi, — deb kulib qo'ydilar. — Ventilyatorni qo'yib qo'y. Bor, bolalaringga qara, men dam olaman, — dedilar.

— Biror narsa kerak emasmi? — desam, “yo'q” ishorasini qildilar.

Men dam olsinlar, deb chiqib ketdim. Ishlarning orasida sekin oyoq uchida uya kirib xabar olib ketaman, pish-pish uxlayaptilar. Faqat ovqat yemaganlari meni xavotirga soladiyu, lekin avvallari ham shunday bo'lardi-ku, deb o'zimni tinchlantiraman. Ayamlarni tinchitay deb, xat yozdim. Oliya opadan pochtaga berib yubordim. Bolalarning qiy-chuvi dadamning tinchlarini buzmasin deb, hovlining narigi chekkasidagi supaga olib ketdim.

Hovlining ikki qavatlì uy bor tomoniga dadam bultur birinchi qavatiga bitta xona, vanna, tualet qo'shib qurdirgan edilar. “Mazza qilib shu yerda she'r yozaman”, degan edilar. U suvoqdan chiqib, kafellar qilingan, bo'yalib tayyor bo'lganda yer qimirlab qolib, ko'chib ham kirolmadilar. So'rida shu ta'mirlashdan qolgan asbob-uskunalar yoyilib yotardi. Durbek “men rabochiyman”, deb ularni u yoqdanbu yoqqa sudrab o'ynaydi.

Dadam tushlikka ham turmadilar. Oldilariga kirsam, “kerak bo'lsang, o'zim chaqiraman, dam olay”, dedilar. Nima deyman, havo haddan tashqari issiq, yolg'iz yotgilari kelapti shekilli, tinchlik kerakdir, deb yana chiqib ketdim.

Bir amallab kun kech bo'ldi. Mirzo keldi. Unga dadam ovqat yemayotganlarini, faqat “Toshkent suv” ichayotganlarini, xavotirlanganimni aytdim. Ertaga do'xtir chaqiraymi, ayam yo'qliklariga dadamning ko'ngillari nima tusayotganini bilmayotganimni aytdim. Mirzo qat'iy:

— Do'xtir chaqiring, — dedi.

Qudrat aka keldilar. Dadam hovliga chiqdilar, birga ovqatga o'tirishdi. Dadam ovqat emayotganlariga Qudrat aka:

— Dada, nega ovqat emayapsiz? — dedilar. Dadam:
— Bir oz tobim qochdi shekilli, ko'nglim ko'tarmayapti, —
devdilar, Qudrat aka:
— Dada, charchadingiz-da. Yaqinda Olmaotaga borib kelgan
edingiz, yana Toshkent—Odessa—Qozon—Odessa—Toshkent,
o'ho' ozmuncha yo'imi. Samolyot charchatib yuborgan.
Avvallari men Moskvaga borsam, bir necha kun g'alati bo'lib,
o'zimga kela olmas edim, — dedilar. Men ham vaqtida gapga
qo'shilib:

— Ertalab do'xtiringizni chaqiraman, — desam, qarshilik
ko'rsatmadilar. Urihib beradilar, deb o'ylagan edim, xayriyat
oldilaridan o'tdim.

Mirzo dadamdan xabardor bo'lib, kabinetda yotdi. Shu
kunlar yer sekin, bilinar-bilinmas qimirlardi. Unga parvo
qilmay qo'ygandik.

Chaqirgan do'xtirim soat o'n birlarga keldi. Kolokolnikova
dadamlarni ko'ra boshladi, qon bosimlari yaxshi, yurak urishi,
o'pka, oshqozon, jigar shishgan, o't xalta, ichaklar, deb
turib "choy qoshiq olib keling", dedi menga. Men choy
qoshiqqa borsam, Durbek Jo'rabeckning aravachasini
g'ildiratayotib, yiqitib yuborishiga sal qoldi. Jo'rabeckni qo'limga
olib, qoshiq olib kirsam, do'xtir dadamga:

— U vas istosheniye, ustali, appetita net, — deyapti. Men:
— Da, on kak priyexal nichego ne kushal, tolko neskolko
glotka soka vipil, — dedim.
— Gafur aka, davayte ya vam glyukozi sdelayu, ona kak
pitaniye budet i utomleniye snimet, — dedi. Dadam "xo'p",
ishorasini qildilar.

Do'xtir ukol qildi-da, dadamlarga:

— Gafur aka, ne lyajete li vi v statsionar? — dedi. Dadam
norozidek bo'lgan edilar:

— Xotya bi, na nedelku, mi vas podkreplim i vi mojete
prodoljit otdixat v "Koktebele", da, — dedi ovutgan ovozda.
Dadam rozi bo'ldilar shekilli, indamadilar.

Dadamlarni ko'rib bo'lib ketayotganida, albatta statsionarga
yotqizish kerak, asablari joyida emas, yuraklari taxikardiya,
jigarlari shishgan, juda holsizlanganlar, ustiga ovqat
yemayabdilar, degan vajlarni keltirdi. Bugun joy tayyorlashini,

stat-sionardagilarga xabar qilishini, ertaga dadamni statsionarga yotqizishini aytib, jo'nab ketdi.

Do'xtirni kuzatib, dadamning oldilariga kirdim.

— Dada, joy bo'lsa bugun yotasizmi? — desam:

— Bugun emas, ertaga, bir o'zim yotmayman, pirimni (Qutbiddin eshon, urgutlik tilchi olim), chaqirtir, birga yetamiz, — dedilar.

Mirzo uyda edi.

— Mirzo, dadam statsionarga bir o'zim bormayman, pirimni aytib kelinglar, o'sha kishi bilan birga davolanamiz deyaptilar, borib aytib kelasanmi? — dedim. "Xo'p" dedi.

Qutbiddin eshonning uylari Sag'bon ko'chada edi. Mirzo borsa, yo'q ekanlar, yozda Samarcandga xotin, bola-chaqalarini ko'rgani ketgan ekanlar, degan gap topib kelib, dadamlarga aytdi. Mirzo:

— Dada, akangiz Risqi qori amakimlarni aytaylik, birga yotinglar, — desa, dadam rozi bo'lgandek bo'ldilar.

Kechga yaqin telefon ishlab qoldi, hamshira qiz statsionarda joy tayyorlashganini aytди. Kechqurun akam keldilar. Dadamning statsionarga yotayotganlarini eshitib:

— Onamlarni (ayamlarni) chaqiraylikmi, kelsinlarmi? — deb so'rasalar, dadam:

— Yo'q, men statsionarda uzoq yotmayman, uch-to'rt kundan keyin sal o'zimga kelay, Odessaga borib ular bilan dam olaman-da, birga olib kelaman, — dedilar.

Dadamlarning xohishlarini qaytarib bo'lmash edi.

Ertasi 7-iyul kuni dadamning ancha mazalari qochdi. Amakim keldilar. Akam keldilar. Qudrat aka dadamlarga "kechqurun oldingizga boraman", deb ishga ketdilar.

Men dadamlarning statsionarga olib ketadigan narsalarini tayyorladim.

Suv olib kelib yuvintirdim, soqollarini oldilar. Tog'orada iliq suv olib kelib oyoqlarini yuvdim, tirnoqlarini oldim. Mazalari yo'qligidanmi, kayfiyatları yo'qligidanmi, negadir hazil ham qilmadilar.

Men hazil qilsam ham, dadam hafsalalari kelmaygina iljayib qo'ydilar.

Kiyimlarini kiyib, tayyor bo'ldilar. Akam, amakim, Mirzo dadamni statsionarga olib ketishdi.

Yana uy, hovlilar huvillab qoldi. O'rtadagi chodirlar ko'zimga shunaqa xunuk ko'rindiki, kechga yaqin Oliya opa bir odamni aytib keldi, birga ko'chirib tashladik. Eski oshxona yonidagi akamlar yotib yurgan so'riga pashshaxona tutdim. Mirzoga gilos tagidagi so'riga joy tayyorlab qo'ydim.

Kechga yaqin dadamning oldilariga sharbatlar, ovqat olib borsam, Mirzo ishdan chiqib, to'g'ri dadamning oldilariga boripti.

— Bolalaringni nega tashlab kelding. Mirzo, akang keldi, bo'ladi-da, — dedilar dadam.

Xavotirlanganimni aytdim.

— Dada, statsionarga yotganingizni ayamga xabar qilaymi, — desam, jahllari chiqib:

— Senlarga necha marta aytdim-ku, o'zim borib olib kelaman deb, — dedilar har bir so'zlarini alohida ta'kidlagan ovozda.

Mirzo menga qarab, boshqa gapirmang, ishorasini qildi. Dadam bilan xayrashib, Mirzo ikkalamiz uyg'a keldik.

8-iyul kuni ertalab Mirzoni praktikaga, Qudrat akani ishga jo'natdim. Bolalarning kiyimini dazmol qilayotgan edim, Jo'rabek yig'lab qoldi, aravachasidan yiqilmasin deb yugurib borsam, shu mahal o'ynab yurgan Durbek qizib turgan dazmolga qo'lini tekkizib oldi. Dod solib yig'ladi. Kuyish qanaqa og'rishini bilmasam edi. Birga qo'shilib yig'layman, joni jahonim kuyib ketgandek bo'ldi. Kichkina, do'mboq qo'lchasi qizarib, pufakcha bo'lib chiqdi. Oliya opaga Jo'rabekni berib, Durbekni olib do'xtirga yugurdim. Durbekni chinqirtirib, stolbnyakka qarshi ukol qilishdi.

— Kelin, bir-ikki kunda tuzalib qoladi, qo'rwmang, — deb kattaroq yoshdagi jarroh dori qo'yib, bog'lab qo'ydi.

Uyg'a kelsam, Jo'rabek qorni och, yig'lab turibdi. Durbekning qo'lchasi og'rib, u yig'laydi. Men o'zimni urishaman, nima qilishimni bilmayman. Oliya opa ham "bolani kuydirding, xayoling joyida emas", deb urishadi.

— Aylanayin, bolachug'im, seni ne qildilar, — deb Durbekni ovutmoqchi bo'ladi. O'zim kuyganim yetmagandek, bolamning kuyib qolganiga yig'layman.

Birpasdan keyin dorining ta'siridanmi yoki charchabmi, Durbek uxbab qoldi. Jo'rabeckni Oliya opaga tashlab, o'zim dadamning oldilariga ketdim.

Borsam, oyim (Sarvi ammam) dadamning oldilarida, Risqi qori amakim bilan gapirishib, choy ichib o'tirishi.

Dadam beholgina yotiptilar, ahvollarri uncha yaxshi emas. So'rashib bo'lib, do'xtirlari Antonina Aleksandrovna Raspovovaning xonasiga kirdim. U men kuyib, shu yerda yotganimda 6 oy davolagan qadrdonim. U meni o'z bolasidek qarshi oldi, bolalarimni, Qudrat akamni so'radi. Dadam-larning ahvollarini so'rasam:

— U nego saxar visokiy, boyus kak bi koma ne nachalos, skaji, chto za ukol yemu sdelali, — dedi,

Men do'xtirlari quvvat bo'lsin deb, glyukoza qilganini aytdim.

— No togda ego sostoyaniye etogo trebovalo, da polojeniye kriticheskoye, ni kak saxar ne padayet, insulin delayem, cherez nekotoroye vremya, opyat povishayetsya. V den, po neskolko raz saxar proveryayem, — dedi.

Nima qilish kerakligini so'rasam:

— Konsilium sobirayem, professorov pozvali, oni chto-to predprimit, seychas podoydut, — dedi.

Professorlarning qarorini bilmay ketmayman, deb dadamning palatalariga kirdim. Dadam bezovta edilar:

— Ayangdan xabar bormi? — deb so'radilar.

Telefon qilib otolmaganimni aytdim. Telegramma yuboraymi, deb so'ray dedim-da, yana asabiylashmasinlar deb, indamadim. Bir ozdan keyin oq xalat kiygan anchagina do'xtirlar kirishdi. Ularga xalaqit bermaylik deb, men, oyim, amakim chiqib ketdik. Shu mahal Ulug' akam kelib qoldilar. Men uydagi voqeani aytgan edim. "Uyga bor, bolalaringga qara, men hamma gapni bilib, senga aytaman", dedilar.

Dadam bilan xayrashib, uyga ketdim. Dadamning oldilarida akam, oyim, amakim qolishdi. Taksida uyga yetib kelganimda, kech kirib qolgan edi. Oliya opa ikkita bola bilan qiynalib ketipti.

Ikkalasi ham injiqlik qilishi.

Durbekning qo'li og'riyapgan bo'lsa kerak, xuddi kattalardek qo'lini ushlab ixraydi. Bolalarni oldim. Oliya opa

ovqatni oxirigacha pishirolmay o'tirgan ekan, hovlidagi ochiq oshxonaga ketdi. Qorong'i tushganda Mirzo, Ulug' akam, Qudrat akam kirib kelishdi. Kayfiyatları yo'q.

— Do'xtirlar nima deyishdi? — desam, akam:

— Qandları baland, hamma buyurilgan dori-darmonlar qilinyapti, — dedilar.

Bu xabar meni tinchita olmas edi. Bolalarimning xarxashasi yuragimni siqar edi.

Hammalari:

— Bolangga qara, bolangga qara, — deyishardi. Ularni olib, hovlining hech kim yo'q joyida yig'lab oldim. Durbek boshimni silab, "maßenkiy" dedi. Uni achenlab oldim, hammayog'idan o'paman, o'zining qo'lchasi og'rib tursa ham, mening ezilib ketganimni tushunganiga hayron bo'laman. Ayamlarning qadrlari juda-juda o'tyapti. Hozir dadamning oldilarida bo'lsalar, xuddi u kishi tuzalib qoladigandek, ayamni sog'inganim bilindi. Ayamga juda orqa qilib yuravergan ekanman, hech ishda yo'qdayman. Qorong'ida shu gaplarni o'ylab, bolalarimni bag'rimga bosib o'tirsam, Qudrat aka qidirib keldilar.

— Ha, nima gap, nimaga qorong'ida o'tiripsizlar, — dedilar. Men:

— Hech gap yo'q, — dedim. Ovozim gapimga to'g'ri kelmasdi.

— Ko'p xafa bo'lmanang, hammasi yaxshi bo'ladi, — dedilar.

Necha kunlardan beri Qudrat akam bilan yakka gapi-risholganim yo'q edi. U kishi so'raydilar, men javob beraman, men so'rayman, u kishi javob beradilar. Bolalarimiz qo'ynimizda uqlab qolishdi.

Yer allalagandek qimirlaydi. Endi er qimirlaydimi, yoriladimi, men uchun baribir. Qudrat akam yaxshi bo'ladi, dedilar-ku, axir, deyman o'zimga-o'zim.

U kishi meni, men u kishini nimalardir deb ovutamiz. Biz yer qimirlashidan, notinch, o'ng'aysiz, xavotirli hayotdan charchab ketgan ekanmiz. Ikkalamiz uchun jan-nat shu yerdadek o'tiripmiz. Yana gumburlab yer qimiradi, xuddi tungi qushlar uchib ketgandek bo'ldi, havolardan

verga tushdik. Hovlining u burchagidan akamlarning ovozlari keldi. Qudrat aka:

— Yuring, bolalarni yotqizaylik, Ulug' ayamga telefon qilayotgan edi, ulana oldimikin, — deb Durbekni ko'tarib oldilar-da, astagina: — Yomon kuyiptimi? — yana meni xafa bo'lmasin degan ohangda so'radilar.

— Uncha emas, baribir bola uchun og'ir-da, — dedim.

— Mayli, bo'lar ish bo'pti, xafa bo'laver mang, tuzalib ketadi, — dedilar meni tinchitib. Durbek dadasingning qo'ynida rohatlanib, erkalanib uxbab yotardi.

Akam "Ko'ktebel"ga telefon qilaverib, charchaptilar. Asabiylashib:

— Telegramma beraylik, kelishsin, — dedilar.

Akam Qibrayga ketmay, hovlida qoldilar. Mirzo, akam, Qudrat aka gapirishib o'tirishdi. Shu xavotirli kunlar qandaydir bir-birimizni yana ham yaqinlashtirgan edi. Men bolalarimning yoniga borib yotdim.

9- iyul kuni hammani ish-ishiiga jo'natdim-da, Jo'rabe kni yana Oliya opaga tashlab, Durbekni do'xtirga olib bordim. Do'xtir ko'rib, qo'lchasingning kuygan yerini bog'lamay ochib qo'ydi, terisi qorayib qotib qolipti.

— Hech narsa qilmaydi, dog'i ham qolmaydi, erta-indin ko'chib tushadi, — dedi do'xtir.

Do'xtirdan kelishimga tovuq sho'rva tayyor ekan, olma, uzum sharbatini oldimu dadamning oldilariga ketdim. Borsam, dadam ko'zlarini ochib, shiftga qarab yotiptilar, amakim allanarsalar o'qiyaptilar. Tizzalarida eskicha kitob.

Dadam meni ko'rib o'rnilaridan turmoqchi bo'ldilar, men yonlariga kelib o'tirib so'rashdim, bolalarni so'radilar. Hammasi yaxshi, dedim. Yana asablariga ta'sir qilmasin deb, Durbekning qo'li haqida aytmadim.

— Dadajon, bugun ancha tetikka o'xshaysiz, — desam, amakim:

— Mirzo Abdul G'afurga rosa dori-darmonlar qilishyapti, ancha yaxshi bo'lib qoldi, — dedilar suyunib.

— Ovqat yedilarmi, — desam:

— Shu qilgan dorilari ovqatning o'rmini bosar emish, — dedilar amakim.

Dadam ham amakimning gaplarini ma'qulladilar. Erta bilan Mirzo va akam kelib ketishganini aytdilar.

— Kechqurun nima ovqat qilib kelay? — desam, dadam:

— Shu olib kelganlaring bo'ladi, hadeb bo'zchining mokisidek qatnayverasanmi? — dedilar.

Sog'liqlari ancha yaxshiligin ko'rib, mening ham kayfiyatim yaxshilandi. Do'xtirlarining oldiga kirsam yo'q ekan, kutib o'tirmay uyg'a qaytdim.

Negadir Mirzo ham, Qudrat aka ham kechikib ketishdi. Men ovqat ham yemay, ularning kelishini kutib o'tiripman.

Osmon to'la yulduzlar... Faqat issiq, juda issiq.

Men yana ayamlarga — Odessaga telefon qilay-chi, deb harakat qilib ko'rdim, bo'lmadi. Allamahalda darvoza tagiga mashina kelib to'xtadi. Qudrat aka, Mirzo kirib kelishdi. Kayfiyatları yo'q. Nima gap deb so'rashga tilim bormaydi. Yuvinib kelishdi, ovqat olib keldim, choy damladim. Ovqat yejishga ham ishtahalari yo'q.

— Dadamlarning oldilaridamidilaring? — desam, Mirzo bosh irg'itib qo'ydi. — Nima gap, tushda borganimda yaxshi edilar.

Mirzo indamadi. Qudrat aka:

— Qandlari yana oshib ketipti. Hamma dorini qilishyapti. Kadinovich, Vohidov, yana boshqa professorlar ko'rishdi. Yana konsilium qilishdi. Ancha yaxshi bo'lgunlaricha o'sha yerda bo'ldik. Mirzo yotib qolmoqchi edi, ruxsat berishmadi, amaki borlar, — dedilar.

Mening ichimga yana vahima kirdi.

— Ayamlarga telefon qila olmayapman, xabar qilish kerak, kelsinlar, — dedim, xuddi ayam kelishlari bilan dadamni tuzatib qo'yadigandek.

Mirzo, ertaga telegramma beraman, dedi.

Hammamiz kayfiyatsiz, har kungidek gapirishib o'tirgimiz ham kelmay, joy-joyimizga borib yotdik. Shanba ham o'tdi. Ertaga 10-iyul, dam olish kuni, men bolalarni Qudrat akaga tashlaymanu ertalabdan dadamning oldilarida bo'laman, deb reja qilib qo'ydim.

Ertalab Mirzoning ham, Qudrat akaning ham choyga kelishlari qiyin bo'ldi. Ba'zida dam olish kunlari menga

yoqmaydi. Choy kech ichiladi, hamma kundagi mo'ljallangan ishlarning tartibi buzilib ketadi.

Yuragim shoshib ketyapti. Tezroq dadamlarning oldilariga bora qolsam, o'z ko'zim bilan ko'rsam. Bolalarga bir amallab, zo'r lab ovqat yedirdim. Kiyinib tayyor bo'lib ham edim, Qudrat aka:

— Dadamning oldilariga Mirzo ikkovimiz boramiz, olib boradigan narsalar tayyormi, — dedilar.

Mening yuragim tars yorilay deb:

— Men ham bormoqchi edim, — desam:

— Siz biror quvvat bo'ladigan yengil ovqat qilib turing, biz kelgach, o'sha mashinada borasiz, — dedilar.

— Xo'p, — dedim nima qilishimni bilmay.

Ular ketishdi. Qo'lim ishga bormaydi.

Soat 12 lar bo'lib qoldi. Biror narsa bilan ovora bo'lay, deb qaynatma sho'rva qildim, "chaynamay ichib yuboradigan ovqat shu-da", deyman o'zimga o'zim. O'zimga ish topib, necha xil sharbatlar qildim, bolalarimni cho'miltirib, uxlatdim.

Endi hech qayerga sig'may qoldim. Radiodan yo Otello, yo Alisher Navoiyning inssenirovkasini beryapti. Dialoglar, musiqa yuragimni siqib yubordi, dadamning olib yuradigan "Spidola" priyomniklarini o'chirib qo'ydim. Oliya opani chaqirdim:

— Oliya opa, uylarga qarab qo'ying, biror ovqat qiling. Bolalarga ham qarang, men dadamning oldilariga boraman, — dedim.

— To'xta, birortalari kelsin, bugun dam olish kuni, mehmon kelishi mumkin, keyin borarsan, — dedi Oliya opa.

— Yo'q, boshqa chiday olmaýman, — dedim.

Qo'limga ovqatlar solingen sumkani oldimu bozor yonidan taksiga tushib, statsionarga ketdim. Mashina sekin yurayotganga o'xshaydi, svetoforlar oldida to'xtaganiga ham chiday olmayman, tezroq yura qolsa-chi, deyman. Nihoyat, yetib bordim, eshik qorovuli:

— G'afur akaning oldilarida juda odam ko'p, birortasi chiqsin, kirasisz, — dedi.

Men chiday olmay, "dod"lavoray dedim.

— Jon amaki, hozir kirgizmasangiz, men shu yerda o'lib qolishim mumkin, telefon qiling. Antonina Aleksandrovnaga aytin, — dedim.

Qorovulning kayfi uchib ketdi shekilli, tezgina telefon qilib gapirishib bo'lib:

— Qizim, kiring, — dedi.

Zinalardan yugurib chiqyapman. Allaqanday ovozlar. Dadam, dadam fors tilida she'r o'qiyaptilar, battar hovliqib ketdim, nafasim tiqilib qoldi. Palataga kirsam, hamma shu yerda. Bahri ammam, oyim, Mirzo, Ulug' akam, Qudrat aka ayvondatik turishipti. Darvin aka, do'xtirlar dadamning tepalarida, kirishim bilan dadamning ko'zlarini menga tushib: "Rafiqam qani", — dedilar. Do'xtirlar:

— Hozir keladilar, — deyishdi.

Yana she'r o'qidilar. Karavotlari yoniga tiz cho'kib, qo'llarini yuzimga surtdim, peshonalaridan o'pdim. Bilmadilar shekilli, qo'limni astagina qisgandek bo'ldilar... Ancha shunday o'tirdim. So'ng ukol qilamiz, deyishdi. Ammamlarning oldilariga borib, yig'lashdan o'zimni zo'rg'a tutib, ko'rishdim:

— Nima gap, kecha yaxshi edilar, — desam:

— Koma, qand balandligidan koma bo'lib qoliptilar. Do'xtirlar shu bir-ikki soat ichida komadan chiqarib olamiz, deyishyapti, — dedilar.

Bir necha vrach, hamshiralari sistema ko'tarib kirishdi. Amakim qandaydir duoni dimog'larida o'qiyotgan edilar, dadamning shirali ovozlarini bosib ketdi. Hammamizga koridor, hovliga chiqinglar, issiq, havo yetishmayapti, deyishdi.

Haqiqatan ham havo issiq, xona dim bo'lib ketgan, ishlayotgan ventilyatorlar issiq havo chiqarayotganga o'xshardi.

Hech kim bilan ko'rishgim ham, gaplashgim ham kelmaydi. Hech kim meni ko'rmasaydi. Savol ham bermasaydi, deyman. Koridorning bir burchagiga borib devorga qarab o'tirdim. Yomon xayolga borishdan o'zimni saqlayman, o'zimcha "xudo saqlasin, ko'z tegmasin, tavba qildim", deb takrorlayman. To'g'rida osilgan soatning har minuti soatga aylangandek

o'tardi. Nihoyat, do'xtirlar chiqishdi. Akam, Qudrat aka ular bilan ordinatorskiyga (do'xtirlarning xonasi) kirib ketishdi. Men dadamning oldilariga kirdim.

Risqi qori amakim dadamning yonlariga stul qo'yib o'tirib qandaydir duolar o'qiyaptilar. Men negadir dadamlar bu duolarni eshitishlarini xohlamas edim. Chunki dadam bu duolar, Qur'oni yod biladigan shoir odam, ta'sirchanlar, "tuzalishimga ilinj yo'qmikin" deb o'yłamasinlar, derdim. Lekin amakim ham "tezroq tuzalsin, shu holatdan chiqsin", deb o'qiyapti-ku, deyman. Shu sabab o'qimang, deya olmayman.

Dadam bir narsalar deyaptilar, bizning tilimizda emas...

Do'xtirlar kirishdi. Yana hammani tashqariga chiqarishdi. Yana allakimlar kelishdi.

Meni Antonina Aleksandrovna birga xonasiga olib kirdi-da:

— Davayka, mi tebe davleniye izmerim, a to ti mne ne nravishhsya, vozmi sebya v ruki, — dedi.

Men indamay stulga o'tirdim. Qo'limga tonometrni bog'lagan edi, eshikdan hamshira hayajonda yugurib kirib uni chaqirishayotganini aytdi.

Do'xtir tonometrni hamshiraga berib, o'zi tez-tez chiqib ketdi. Yo'lakda qandaydir noxush jonlanish sodir bo'lganini sezdim, dadamning ovozlari eshitilmay qoldi. Men qanday qilib qo'limdan tanometrni yilib tashlaganimni bilmayman. Yo'lakka uchib chiqqandek bo'ldim, butun shu yerda davolanayotganlar hayajonda, ammalarim yo'q, menga yo'l berishyapti. Pałataga qanday kirganimni bilmayman. Dadam chiroyli bo'lib kulimsirab bellarigacha yalang'och, oyoqlariga choyshab yopilgan, badanlari xuddi yigitlarnikidek yaltillaydi, tinchgina yotiptilar. Do'xtirlar meni tezlikda qaytarib olib chiqib ketishdi. Yana hamma yo'lakda. Ammam, oyim, yana kimlardir bilmayman, meni ushlab turishipti.

Bir mahal Darvin akam terlab, pishib yig'lab chiqdilar. Yuraklarini massaj qilishganini, to'g'ri yurakka ukol qilishganini kimgadir aytayotganlarini eshitdim. Darvin akam do'xtir bo'lganimga ming pushaymonman, qo'limdan hech narsa kelmas ekan, degandek ahvolda edilar.

Men yana palataga kirdim... Dadamning boshlarini ushlayman, qo'llarini uqalayman, hech qanday harakat yo'q. Dod deyman, dadam ko'zlarini ochmaydilar... Nega, nega, deyman... keyin nima bo'ldi, qanday uyg'a bordim, kimman, nimaman bilmayman.

Faqat, faqat hammasi tamom, endi hayot yo'qdek.

Keyin odamlar, odamlar, mendan allanarsalsalarni so'rashadi, maslahat berishadi, yupatishadi.

Meni ezg'ilab, ezg'ilab, mayda-mayda qilib, o'ldirib tashlashsa edi, qani... Dadam tirik qolsalar edi.

Odamlar, kimlar ular, bilmayman. Bolalarimni ko'rsatishadimi-e, emiz deyishadi, menga baribir...

Dadamni olib kelishdi. Zaldagi katta stolga yotqizishdi.

Tumonat odam uyg'a, hovliga sig'may ketyapti.

Sharof aka (Rashidov) hukumat a'zolari bilan, Yodgor Sodigovna Nasritdinova hukumat ayollari bilan, Yodgor opa qora kiyimda, boshida qora ro'mol...

Sharof aka akamlar, Qudrat akaga:

— Odessaga, Muhammarram opamlarga maxsus samolyot uchib ketdi, ertalab olib keladi. (Qani edi shu samolyot ikki kungina avval borsaydi, ayam bilan dadam birga bo'lishsa edi. Balki, balki ayam yurak haroratlari bilan dadamni saqlab qolarmidilar, deyman o'zimga-o'zim, kuyib-kuyib yig'layman.)

— Dafn marosimi komissiyasi tuzildi, nima qilish kerak bo'lsa qilamiz, ertadan respublikamizda motam e'lon qilinadi, — deyishdi hukumat a'zolari.

Radio, televizordan noxush xabarni eshitib, tanish-notanish hamma ko'ngil so'ragani kelyapti. Hovlilarga odam sig'may ketgan.

Hamma mendan bir narsalar so'raydi. Akamga, ammalarimga, xolamga, Qudrat akamga yuboraman. Ular o'zlarini tutib olishgan. Ko'zim bilan Mirzoni qidiraman. U dadamning boshlarida ovozini chiqarmay yig'layverib, qotib qolgan qo'llarini sindirgudek g'ijimlaydi. Oldiga odamlar orasidan zo'rg'a o'tib, yelkalarini silayman, ko'kragiga boshimni ko'yaman, birga rosa yig'laymiz. Qani dadam tursalar, eshitsalar. Biz ham dadamdek yetim bo'lib qoldik, ko'ngil so'rardilar, deyman.

— Mirzo, ayamga nima deymiz, qanday qilib aytamiz, — deb yana yig'layman. Mirzoni men emas, meni Mirzo yupatadi.

Kechasi bilan hech kim mijja qoqmadı, kechasi bilan qandaydir ishlar qilindi. Yaqin-yiroq qarindoshlar, do'stlar, tanishlar kela boshladı. Qo'qondagi tog'am bolałari bilan azondagi samolyotda kelishdi. Tuman, viloyatlar, boshqa respublikadan dadamning do'stlari, hukumat delegatsiyalari ta'ziya bildirgani kelisha boshładi.

Ayamlar uchun yuborilgan maxsus samolyot 11 yarim-12 larda kelishi kerak edi. Keyin miting bo'lar ekan.

Qora rido, boshida kichik qora do'ppiga o'xshagan bosh kiyimi bor, qandaydir odamlar mendan allanarsa so'raydi. Dadamning "Men yahudiyan" she'rlarini gapiradi. Bir narsa mumkinmi, deydi, miyam karaxt bo'lib qolgan, gapiga tushunmayman, akamlarga yubordim. Akam javob berdilar. Ular juhud ruhoniylari ekan. Dadamning she'rlaridan kelib chiqib, u bizning dinimizda, deb o'ylashgan ekan, ruxsat bersanglar, o'zimizning rusumda ko'msak, deyishar emish.

Akam Hamidulla akamni chaqirdilar. Akam ularning gapini eshitib, bu axir she'r, "Allegoriya" edi-ku, deptilar.

— Ichkarida nechta qorilar kelgan, allaqachon musulmonchasiga qilinadigan udumlarni qilishib, kafanlab, faqat yuzlari ohib qo'yilgan. Alhamdulilloh, G'afur G'ulom musulmon edilar, o'z dinimizda ko'mamiz,— deganlaridan keyin uzr so'rab, ta'ziya bildirib, chiqib ketishdi.

Mirzo Abdulqodir ayamlarni kutib olgani aeroportga ketdi.

Bir necha fursat o'tgach, Yodgor opa, Xadicha Raimovna, bir qancha ayol hukumat a'zolari bilan ayamni olib kelishdi.

Men qanday ko'rishdim, nima dedim, Toshxon, Xondamirni nimalar deb ovutdim, ahvollari qanday edi, bilmayman. Faqat ayamlarning faryodlariga chiday olmadim, bir mahal ukol qilib o'zimga keltirishdi.

Ayam dadamning boshlarini qo'llariga olib, ushlab:

— Habibim, noyobim, oltin boshingizda qanday ajoyib fikrlar qog'oz yuzini ko'rmay ketib qoladimi? — deb xuddi dadam bilan gapishtgandek gapirib yig'layaptilar.

Hamma ayamning so'zlariga chiday olmay yig'lardi.

Sharof Rashidov, hukumat a'zolari, yozuvchilardan Vohid Zohidov, Said Ahmad aka, Yashin aka, Vahob aka, S.Shermuhamedov, Anvar aka Qo'chqorovlar keldi.

Dadamlarni ochiq mashinada sobiq Qizil maydon tomon olib borishdi, mashinada ayam, men, ukalarim, akam bor edilar. Meni va Toshxonning sochini yoyib qo'yishdi. Mitingda juda ko'p odam nutq so'zladi. Shoirlar dadamga marsiya she'rlar o'qishdi. U qaysi zal edi, qayerdan kirdik, qayerda turdik, bilmayman, hozir ham aytib bera olmayman.

Faqat qozoq shoiri, dadamlarning do'stlari Sobit Muqonovning nutqi hayratga soldi. Sobit Muqonov aprelda Qozog'istonda, iyunning oxirida Qozonda dadam bilan uchrashganini aytди.

"Qozonda uchrashganimda G'afur har doimgidek xushchaqchaq, quvnoq, askiyachi, gapdon G'afur emas edi. Qandaydir dard uning ichini yeb yotgani bilinardi.

— Bu nimasi? — desam.

— Toshkentda nima gap bo'layotganini bilayapsanmi? — deb so'radi.

Zilzila haqida gapirdi.

— G'afur, bu yerda zilzila yo'q-ku, — desam.

— Xalqimni o'ylayman, — dedi.

— Toshkent zilzilasi G'afurni olib ketdi, — dedi Muqonov. — Har bir shoir o'z xalqini G'afurdek sevsin. G'afur o'z xalqini qattiq sevardi. Xalqining taqdiri — uning taqdiri edi, — dedi.

Qozon aeroportida G'afur bilan xayrashar ekanman:

— Do'stim, endi qachon ko'rishamiz, — desam.

— Do'stim, bu bizning oxirgi ko'rishiшимиз, endi sen mening janozamga borasan, — dedi.

— Bu ne deganining? — desam:

— O'zimni-o'zim sezyapman, — dedi".

Sobit Muqonov bu so'zni aytganida mitingda to'plangan xalq yer qimirlagandek bir to'lg'anib "uh" tortib yubordi.

Mitingda Sobiq Muqonovning nutqini hayajon bilan tinglashdi.

Xalq dadam bilan xayrashardi. Xayrashuv mitingi uzoq bo'ldi. Mehnatkashlar, dadamning do'stlari oxirgi alvidolarini aytishar edi.

Xalq shoiri zamonini so'nggi yo'lga kuzatar ekan, daryo bo'lib ko'chadan qabristongacha ketardi, ko'chalarga, tomlarga, devorlarga chiqib, yig'lab, xayrashib turishardi.

G'afur G'ulom o'z xalqini sevib, butun qalb haroratini, bor umrini uni ulug'lashga sarflagan. So'nggi nafasigacha xalqi bilan birga bo'ldi. Boshiga tushgan vahimali zilzila kunlarida ham xalqi, Vatanidan uzoq keta olmay birga bo'ldi.

Xalq ham G'afur G'ulomga o'z hurmat-ehtiromi, muhabbatini o'n hissa qilib qaytardi...

Dadamni yerga qo'yib kelganimizdan keyin juda qattiq zilzila bo'ldi.

Toshkent xalqini vahimaga solgan, qancha odamlarning yostig'ini quritgan, xonadonini vayron qilgan, besaranjom qilgan yer dadamni bag'riga olib ham tinchimadi.

Xalq uchun G'afur G'ulom vafoti katta balli zilzila bo'ldi.

Shayxzoda, Oybek, Abdulla Qahhorlarning vafoti ham o'sha darajadagi zilzilalar edi.

Men otam G'afur G'ulom necha zamonlar o'tsa-da, shoiri zamon bo'lib qolaverishlarini, hali-veri bunday iste'dod dunyoga kelmasligini bila turib, ko'p qirrali ijodlarini tahlil qilishni adabiyotshunos olimlarga havola qildim.

Oddiyina hayotimizda 1966 -yilning 26- aprelidan 11-iyuligacha sodir bo'lgan voqealarni o'z mushohadamda bayon qildim.

Bo'lib o'tgan voqealarni qalamga olish uchun menga 32 yil umr va katta jur'at kerak bo'ldi.

Boshimdan o'tgan ko'pgina yo'qotishlarning eng og'iri dadamni yo'qotish bo'ldi. Bu fojiali voqealarni qancha asab, qancha qon sarflab yozganim yolg'iz o'zimga ma'lum.

32 yil saqlab kelganim, har daqqaq men bilan endilikda tarix bo'lib qolgan voqealarni sizlar bilan bo'lishdim. Ma'zur tuting.

Mo'min-musulmonman, taqdirga tan bermay ilojim yo'q.

Barcha tilga olganlarim – olamdan o'tganlar ruhi shod bo'lsin!

MUNDARIJA

Bodom guli.....	3
Siyohdon.....	7
Mirtemir amaki.....	17
Abdulla Qahhor.....	21
Hamid aka.....	25
Ustozi ulamo.....	30
O'sha mungli damlarda.....	34
Ota huquqi bilan.....	45
Ziyofat.....	50
Sayohat.....	53
Mukammal bo'limgan olam.....	79
Jannatdan haydalish.....	82
Dandon sopli pichoq.....	92
Eshak yemi.....	95
Harir durra.....	98
Savodi chiqdi.....	100
Zilzila.....	102

Adabiy-badiiy nashr

Olmos (Ahmedova Olmos)

BODOM GULI

Xotiralar, hikoyalar

Muharrir *Hikoyat Mahmudova*

Musavvir *Anatoliy Bobrov*

Badiiy muharrir *Yulay Gabzalilov*

Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*

Kichik muharrir *Nazmi Fozilova*

Musahhih *Mavjudha Nasriddinova*

Kompyuterda sahifalovchi *Surayyo Rahmedova*

IB № 4227

Bosishga 20.10.2004 da ruxsat etildi. Bichimi 84x108¹/₃₁ Tayms garnitura. Ofset bosma. 7,14+0,42 vkl. shartli bosma toboq. 8,1+0,42 vkl. nashr tobog'i. Jami 2000 nusxa. 248 raqamli buyurtma. 61 – 2004 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30 // 700128. Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.